

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.29/30.12.2019.I.92.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK
TADQIQOTLAR INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 330.43:331.522 (575.1)

YUSUPOV FARHOD ADAMBOYEVICH

O‘zbekiston Respublikasida ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini statistik tahlili

08.00.06 – “Ekonometrika va statistika”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ILMIY darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYASI**

Ilmiy rahbar:

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich
texnika fanlari doktori, professor

Toshkent -2025

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I-BOB ISHCHI KUCHIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI	12
1.1-§ O'zbekistonda ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini statistik tadqiq etishning nazariy va huquqiy asoslari	12
1.2-§ O'zbekiston Respublikasida ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini statistik usullardagi tahlili	25
1.3-§ Ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini statistik usullar orqali tahlil qilishning xorij tajribasi	36
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	51
II BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN FOYDALANISH HOLATINI IQTISODIY – STATISTIK TAHLILI	53
2.1-§ O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini iqtisodiy-statistik tahlili.....	53
2.2-§ O'zbekiston Respublikasi hududlarida aholining ish bilan bandlik holatini statistik baholash	61
2.3-§ O'zbekiston Respublikasida aholi bandligi va yangi ish o'rinlari yaratish holatini statistik tahlili	76
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	93
III BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN FOYDALANISH HOLATINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA STATISTIK PROGNOZLASH	95
3.1-§ O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini oshirishning asosiy yo'nalishlari	95
3.2-§ Aholi bandligi ko'rsatkichlarining statistik axborotlar bazasini takomillashtirish yo'llari	112
3.3-§ O'zbekiston Respublikasida ishchi kuchining istiqbolli rivojlanishini ko'p variantli statistik prognozlarini tuzish (2025-2030 yy.).....	121
Uchinchi bobga oid xulosalar	136
XULOSALAR VA TAVSIYALAR	138
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	147

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining bugungi bosqichida mamlakatlar taraqqiyoti darajasini baholashda nafaqat uzoq davr ustuvor ahamiyat kasb etgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning, balki ustun ravishda aholi turmush darajasi va sifatini namoyon etuvchi ijtimoiy tavsifdagi ko'rsatkichlarning ham o'rni ortib bormoqda. Mazkur ko'rsatkichlarning asosiy qismi aholi bandligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardan tarkib topganligi, rivojlangan mamlakatlarda bugungi kunda iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida "inson kapitali"ga urg'u berilayotganligi inobatga olinsa, aholi bandligi va u bilan bog'liq munosabatlarning ahamiyati yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Xalqaro mehnat tashkilotining prognozlariga ko'ra, 2025 yil oxiriga borib, dunyo aholisidan 3,7 mlrd. kishi mehnatga layoqatli yoshdagi aholini, shundan ish bilan band aholi soni 3,5 mlrd. kishini va ishsizlar soni 0,2 mlrd. kishini tashkil etadi. Agar ushbu davrga kelib dunyo bo'yicha band aholining 55 % ga yaqini norasmiy bandlarni tashkil etishini hisobga olinadigan bo'lsa, xalqaro mehnat bozoridagi bandlik holatini ko'p omilli tahlil asosida tartibga solish hamda bandlik darajasini optimallashtirishda uning zamonaviy xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olish lozim¹.

Hozirda jahonning turli ilmiy markazlari, olim va mutaxassisleri tomonidan aholi bandligini ta'minlashning turli modellari, bandlikka ta'sir etuvchi omillar tavsifi va mazmunidagi o'zgarishlar, jahon mehnat bozoridagi turli sharoitlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari, mehnat bozorini tartibga solish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda keyingi yillardagi jadal islohotlar natijasida sifat va miqdor jihatidan samarali bandlikni ta'minlashga yo'naltirilgan yangi tizim shakllandi. "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

¹ World Employment and Social Outlook: Trends 2019. International Labour Office. – Geneva: ILO, 2019. pp. 11–12, 84-85.

strategiyasida² belgilab berilgan “mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, mahalla hududida davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniy inshootlar, ijodiy klublar, bandlikka ko'maklashish va o'qitish markazlari, tadbirkorlik ob'ektlari kabi infratuzilmani yaratish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish” kabi vazifalar dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda aholi bandlik holatini statistik tahlil qilish, korxonalarda yangi ish o'rinlarini yaratish holatini statistik kuzatish usullari (anketa orqali kuzatish, monografik kuzatish) ni qo'llash asosida ishchi kuchidan foydalanish holatini tahlil etish, statistik prognozlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining aholini ish bilan band qilishning asosiy omili sifatida statistik baholash kabi masalalarni o'rganish muhim masala hisoblanadi.

Shuningdek, Respublikamizda turli mulkchilik shakllariga asoslangan korxona va xo'jaliklar faoliyat yuritmoqdaki, ularni ishchi kuchi bilan ta'minlash, mehnat bozorlarini shakllantirish va rivojlantirishni statistik tahlil etish va yangi uslublarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60 sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli, 2017 yil 24 maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5052-sonli farmonlari, 2017 yil 14 iyuldagi

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60 sonli farmoni. lex.uz

“Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3856-sonli, 2020 yil 18 maydagi “Tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4716-sonli qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aholi bandligining mohiyati, bandlik modellari, bandlikka omillar ta’siri, ishchi kuchi ko‘rsatkichlarini takomillashtirish va ekonometrik tadqiq asosida modellashtirish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu borada xorijiy olimlardan J.Keyns, J.Forrester, M.Porter, R.Dornbush, S.Fisher, G.Menkyu, Ernando de Soto va boshqalarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, J.Keyns tomonidan bandlikning neoklassik modeli³, J.Forrester tomonidan jahonning iqtisodiy o‘sinh modellari⁴ ishlab chiqilgan, M.Porter, R.Dornbush, S.Fisher va G.Menkyular aholi bandligini o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy o‘sinh modellarini asoslab berishgan⁵, Ernando de Soto tomonidan esa norasmiy

³ Keyns Dj. M. Obshaya teoriya zanyatosti, proSENTA i deneg. Izbrannoe. / Dj. M. Keyns. – M.: EKSMO, 2007.

⁴ Forrester Dj. Mirovaya dinamika. –M.: Nauka, 1978.

⁵ Porter M. Konkurentnoe preimushество: kak dostich visokogo rezultata i obespechit ego ustoychivost / Per. s angl. E. Kalininoy. –M.: «Alpina Publisher», 2008. – 720 s.; Dornbush R., Fisher S.

bandlik ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida kiritilib, uni yuzaga keltiruvchi omillar asoslab berilgan⁶.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida mehnat bozorida bandlik jarayonlari va ishchi kuchining omilli tahlili va ularni tartibga solishning nazariy jihatlarini V.V.Adamchuk, A.I.Rofe, Y.D.Odegov, S.A.Aronova, A.M.Moiseev, S.G.Rezinkina, E.V.Semerikova kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan⁷. Ushbu tadqiqotlarda olimlar bandlik va uning xususiyatlari, shakllari va turlari, paydo bo'lish sharoitlarini nazariy jihatdan o'rganib (V.V.Adamchuk, A.I.Rofe, Y.D.Odegov), bandlikka omillar ta'siri (S.A.Aronova, E.V.Semerikova), bandlik jarayonini omilli tahlil qilish asosida modellashtirish (S.G.Rezinkina), mehnat bozorini rivojlantirish va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish (A.M.Moiseev) masalalarini amaliy jihatdan baholashga e'tibor qaratishgan.

O'zbekistonda mehnat bozorini rivojlantirish, ishchi kuchining samarali bandligini ta'minlash, bandlikning tabiati va xususiyatlari, shakl va turlari, bandlik ko'rsatkichlariga omillar ta'siri, bandlik jarayonlarini modellashtirish masalalari Q.X.Abduraxmonov, B.A.Begalov, T.Sh.Shodiev, B.K.G'oyibnazarov, Sh.R.Xolmo'minov, Y.K.Muxamedov, H.T.Muxitdinov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁸.

Makroekonomika /Per. s ang. – M.: Izd-vo MGU: INFRA-M, 1997. – 784s.; Menkyu, G.N. Prinsipi ekonomiks / G.N.Menkyu; 1999. – 780 s.

⁶ De Soto Ernando. Inoy put. Nevidimaya revolyusiya v tretem mire. –M.: Catallaxy. 1995.

⁷ Adamchuk V.V., Romashov O.V., Sorokina M.E. Ekonomika i sosiologiya truda: uchebnik dlya vuzov. – M: YuNITI, 2001. –407 s.; Ekonomika truda: uchebnik / A.I.Rofe. – 2-e izdanie. –M: KNORUS, 2011. –392 s.; Ekonomika truda: uchebnik / Yu.G.Odegov, G.G.Rudenko. –M: ParaType, 2010. –792 s.; Aronova S.A. Kachestvo rabochey sili i faktori ego formirovaniya (monografiya). – Orel: Orlovskiy gosudarstvenniy universitet, 2004.; Programmno-selevoe upravlenie razvitiem obrazovaniya: opit, problemi, perspektivi/ Pod red. A.M.Moiseeva. –M.: Pedagogicheskoe obshestvo Rossii, 2001. –256 s.; Rezinkina S.G. Modeli analiza zanyatosti i bezrabotisi v Rossii. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uch. step. kand. ekon. nauk. – Rostov-na-Donu, RGEU "RINX",2004 g. – 28 s.; Semerikova E.V. Ispolzovanie prostranstvennoy zavisimosti v regionalnix issledovaniyax na primere analiza bezrabotisi v Rossii i Germanii. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uch. step. kand. ekon. nauk. – M.: MGU,2017 g. – 28 s.

⁸ Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot / Darslik. Q.Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b. Shodiev T.Sh., Xakimov T.X., Boltaeva L.R., Ishnazarov A.I., Nurullaeva Sh., Muminova M.A. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. . –T: TDIU, 2007. – 178 b.; G'oyibnazarov B.K., Kolonova L. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. –T.: Fan, 2007.- 106 b.; Sh.R.Xolmo'minov. Qishloq mehnat bozorining

O'zbekistonda mehnat bozorida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari, ishsizlik va uning milliy mehnat bozorida o'zgarish tendensiyalari, shu bilan birga mehnat bozorini tartibga solish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini ilmiy jihatdan asoslash, soha faoliyatida rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan model va mexanizmlardan foydalanish masalalari olimlar tomonidan tadqiqotlarda o'rganilib, ularga ma'lum yondashuvlar asosida yechimlar topilgan. Ammo, bevosita ishchi kuchi samaradorligining ekonometrik tadqiqi, unga ta'sir etuvchi omillarni boshqarish asosida tartibga solish mexanizmlarini nazariy-uslubiy jihatdan ekonometrik va statistik tadqiq etish va uning tarmoq va sohalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini belgilash muhim masala bo'lib, endilikda bu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot mavzusi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni ishchi kuchi bilan samarali band qilish yo'llarini statistik tahlil qilish va istiqbollarni prognozlash yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsadga muvofiq quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutildi:

xorijiy, mahalliy olimlar va mutaxassislarning "ishchi kuchi"ga bergan ta'riflarini umumlashtirish, qiyosiy taqqoslash asnosida yangi ilmiy ta'rif ishlab chiqish;

shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (monografiya). – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 32 b.; Muxamedov Yu.K. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning omillari va ekonometrik modellari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TDIU, 2006, – 47 b.; Muxitdinov H.T. Bozor muvozanati makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TDIU, 2001, – 23 b.

milliy iqtisodiyotda ishchi kuchi zaruriyati va tutgan o'rnini statistik o'rganish;

O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining rolini statistik baholash;

ishlab chiqarishni ishchi kuchi bilan ta'minlashdagi xorijiy tajribalarni o'rganish;

O'zbekiston Respublikasida ishchi kuchidan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarishni ustuvor rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash;

mamlakatimizda mehnat resurslarining ish bilan bandlik holatini statistik tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasida ish bilan bandlik holatini statistik prognozlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan tarmoq va sohalar, mehnat birjalari, fuqarolarni ishga jalb etish, ish bilan ta'minlash muassasalari faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, ishchi kuchidan samarali foydalanishning statistik tahlil qilish hamda istiqbollarini prognozlash jarayonlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mutloq va nisbiy miqdorlar, o'rtacha miqdorlar, anketa orqali kuzatish, statistik jadval va grafiklar, statistik guruhlash, iqtisodiy indekslar, korrelyasion-regression tahlil, vaqtli qatorlar kabi usullardan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ishchi kuchining hozirgi holati, dinamik o'zgarishlari va o'zgaruvchanliklarini hisobga olib, ularni statistik baholash maqsadida turli zamonaviy statistik usullarni qo'llagan holda ishchi kuchi harakatining yig'ma va aylanma ko'rsatkichlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'zgarishlari inobatga olinib, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mezonlar va tamoyillar yaxlit bir tizimda baholanib,

undan samarali foydalanishni ifodalovchi yig'ma-statistik ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan;

ishchi kuchidan foydalanish holati, talab va taklifi hamda davriy o'zgarishlarini inobatga olib, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida ishchi kuchidan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirilgan;

ishchi kuchidan foydalanishni istiqbolli o'zgarishlari va yo'nalishlarini hisobga olib, ulardan foydalanishning o'rta muddatli (2025-2030 yy) prognoz variantlari tuzilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

aholining ish bilan bandlik holatini statistik ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan;

mamlakatimiz hududlari kesimida aholi bandligini o'rganish bo'yicha iqtisodiy-statistik tahlillar amalga oshirilgan;

O'zbekiston Respublikasida ish bilan bandlik holatini ekonometrik modellari tuzilgan va o'rta muddatli statistik prognozlari ishlab chiqilgan;

mamlakatimizda aholi bandligi borasidagi siyosatni shakllantirish va bandlik jarayonlarini muvofiqlashtirishni optimallashtirish imkonini beruvchi aholi bandligiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi aholi bandligi va ishchi kuchi bo'yicha statistik ma'lumotlaridan keng foydalanilganligi, ilmiy-tadqiqotlarning zamonaviy usullari hamda nazariy ishlanmalar amaliy vazifalarni hal etishda qo'llanilishi hamda xulosa, taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tgani, shuningdek, olingan natijalardan amaliyotda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan aholi bandligi va ishchi kuchi salohiyatini statistik uslublarini qo'llash samaradorligini oshirishda, boshqaruv qarorlari qabul qilish mexanizmini takomillashtirishga doir maxsus statistik tadqiqotlar natijalarini joriy qilishda hamda istiqbollari statistik baholashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular aholi bandligi va ishchi kuchi faoliyatini statistik usullarda tahlil qilish, samaradorligini baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda bandlik faoliyatini statistik prognozlashda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalaridan, shuningdek, "Statistika", "Ekonometrika", "Mehnat statistikasi" kabi fanlar bo'yicha keys-stadi, ma'ruzalar matni, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aholi bandligi va ishchi kuchi salohiyatini zamonaviy statistik uslublaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ishchi kuchining hozirgi holati, dinamik o'zgarishlari va o'zgaruvchanliklarini hisobga olib, ularni statistik baholash maqsadida turli zamonaviy statistik usullarni qo'llagan holda ishchi kuchi harakatining yig'ma va aylanma ko'rsatkichlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining amaliy faoliyatiga joriy etilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025 yil 11 sentabrdagi 12/00-01/08-5375 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu takliflarni amaliyotga joriy qilinishi mamlakatimizda ishchi kuchini tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarini kompleks statistik baholash hamda tarmoq va sohalar kesimida statistik usullarda tahlil qilish imkoniyatlarini oshirgan.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'zgarishlari inobatga olinib, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mezonlar va tamoyillar yaxlit bir tizimda baholanib, undan samarali foydalanishni ifodalovchi yig'ma-statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy takliflari Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining amaliy faoliyatiga joriy etilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 8 sentabrdagi MB/09-09/204 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangiliklarni amaliyotga joriy qilinishi ishchi kuchi tarkibiy-tuzilmaviy hamda tendensiyalaridagi o'zgarishlarni kompleks statistik baholash imkoni oshirgan;

ishchi kuchidan foydalanish holati, talab va taklifi hamda davriy o'zgarishlarini inobatga olib, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida ishchi kuchidan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflari Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining amaliy faoliyatiga joriy etilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 8 sentabrdagi MB/09-09/204 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangiliklarni amaliyotga joriy qilinishi ishchi kuchidan foydalanish darajasini statistik baholash imkonini bergan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 8 sentabrdagi MB/09-09/204 sonli ma'lumotnomasi).

Ishchi kuchidan foydalanishni istiqbolli o'zgarishlari va yo'nalishlarini hisobga olib, ulardan foydalanishning o'rta muddatli (2025-2030 yy) prognoz variantlari tuzilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025 yil 11 sentabrdagi 12/00-01/08-5375 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangiliklarni amaliyotga joriy qilinishi ishchi kuchi soni va sifatini istiqboldagi yo'nalishlarini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlardagi ma'ruzalarda bayon qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya natijalari bo'yicha jami № ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda № ta maqola, shundan, № tasi respublika va № tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

I-BOB. ISHCHI KUCHIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1.O‘zbekistonda ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini statistik tadqiq etishning nazariy va huquqiy asoslari

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faolligi, bandlik darajasi va ishchi kuchidan foydalanish jarayonlari mamlakatning umumiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ishchi kuchidan samarali foydalanish faqat iqtisodiy soha bilan bog‘liq bo‘lmasdan, ijtimoiy va huquqiy nuqtai nazardan ham keng qamrovli ahamiyatga ega. Mamlakatimizda mehnat bozorini boshqarish, mehnat resurslarini taqsimlash va bandlik siyosatini samarali amalga oshirishda mavjud huquqiy asoslar va statistik usullar katta rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda mehnat bozorining rivojlanishi, bandlik darajasi va ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini tahlil qilish muhim masala bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, mehnat resurslarining samarali taqsimoti va ishchi kuchi salohiyatidan maksimal darajada foydalanish, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi. O‘zbekistonning “Ishchi kuchi resurslari bo‘yicha davlat siyosatini yaxshilash” kabi strategik dasturlarini amalga oshirishda statistik tahlil usullari, jumladan regressiya tahlili, panel ma’lumotlar tahlili, korellyatsion tahlil, SWOT tahlili va boshqa usullarni qo‘llash zarurati mavjud. Shuningdek, bu jarayonlarni huquqiy nuqtai nazardan o‘rganish, mehnat bozoridagi islohotlarni samarali boshqarish va mehnat huquqini takomillashtirish uchun muhimdir.

Ishchi kuchidan samarali foydalanish nafaqat mehnat bozoridagi tengsizliklarni kamaytirishga, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Ishchi kuchi, ayniqsa yoshlar va ayollar orasida, malaka oshirish va kasb-hunar ta’limini rivojlantirish orqali mehnat bozorida ularning ishtirokini oshirish lozim. Bunda, mehnat bozoridagi huquqiy asoslarni takomillashtirish va mehnat resurslarining malakali taqsimoti davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri

bo'lishi kerak. O'zbekiston uchun bu jarayonlarni statistika usullari yordamida tahlil qilish, mamlakatdagi ishchi kuchining o'zgarishini prognoz qilish va optimal bandlik siyosatini ishlab chiqish imkonini beradi.

Bundan tashqari, huquqiy asoslar mehnat bozorining samarali ishlashini ta'minlash uchun zarurdir. Ishchilarni himoya qilish, bandlikni oshirish va malakali ishchi kuchini yaratish kabi masalalar yuridik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Mehnat huquqining zamonaviy talablarga moslashishi, ishchi kuchining huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yaratish O'zbekiston mehnat bozorining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, mehnat bozorining huquqiy va statistik tahlilini birgalikda ko'rib chiqish, amaldagi siyosatni yaxshilash uchun zarurdir.

Bugungi kunda O'zbekistonning mehnat bozorida mavjud bo'lgan muammolar, masalan, ish o'rinlarining yetishmasligi, malakali ishchi kuchining taqsimlanishi va mehnat migratsiyasi kabi omillarni yechish uchun ilmiy va huquqiy asoslangan yondashuvlar talab etiladi. Mehnat bozorini statistik tahlil qilish va huquqiy asoslar bilan bog'lash, mehnat resurslarini samarali taqsimlash va ishchi kuchining salohiyatini to'liq ishlatishga imkon yaratadi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga, ishsizlikni kamaytirishga, mehnat huquqini himoya qilishga va bandlikni yaxshilashga olib keladi.

O'zbekiston mehnat bozorining huquqiy asoslari va ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonlari bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, mehnat bozorini boshqarish va bandlik darajasini oshirish masalalarini chuqur o'rganishga qaratilgan. Mehnat bozorining samarali boshqarilishi uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar va statistik tahlil usullarini qo'llashga qaratilgan ishlar ko'p sonli tadqiqotlar va qonuniy hujjatlar asosida amalga oshirilgan. O'zbekistonda mehnat bozorini takomillashtirish va ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonlarining huquqiy va statistik asoslarini tahlil qilishda bir qator mahalliy olimlar izlanishlar olib borishgan. Jumladan, I.Raximov (2024) "Mehnat bozoridagi islohotlar: O'zbekistondagi huquqiy va iqtisodiy o'zgarishlar" nomli ishida, O'zbekistonda mehnat bozoridagi so'nggi islohotlar va bu islohotlarning

huquqiy asoslari tahlil qilingan. Maqolada mehnat resurslaridan samarali foydalanish va ishchi kuchining malakasi haqida statistik tahlil usullari qo‘llanilgan⁹.

A.Karimov (2024) “Ishchi kuchining samarali taqsimoti va bandlik siyosati” deb nomlangan tadqiqotida, O‘zbekistonda ishchi kuchidan samarali foydalanish uchun huquqiy asoslar va bandlik siyosatining statistik tahlili ko‘rib chiqilgan. Ishda bandlikni oshirish uchun qabul qilingan huquqiy chora-tadbirlar tahlil qilinadi¹⁰

S.Mustafayev (2025) o‘zining “Mehnat bozorining huquqiy va iqtisodiy tahlili” nomli ishida, mehnat bozorini huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazardan o‘rganish uchun statistik usullardan qo‘llangan. U ishchi kuchidan samarali foydalanish uchun asosiy qonuniy yondashuvlar va tahlil usullarini muhokama qiladi¹¹.

R.Sodiqovning (2025) “Ishchi kuchining malakasi va mehnat huquqi” nomli tadqiqotida mehnat huquqi va ishchi kuchining malakasi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Ishda statistik tahlil yordamida malakali ishchi kuchining iqtisodiy faollikka ta’siri baholangan¹².

Tadqiqotchi N.Akhmedovning (2024) “Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va yuridik asoslar” nomli ishlari, mehnat bozoridagi yuridik islohotlarni va bu islohotlarning ishchi kuchi va bandlik siyosatiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda SWOT tahlili va regressiya tahlili usullari qo‘llanilgan¹³.

⁹Rakhimov, I. T. (2024). Mehnat bozoridagi islohotlar: O‘zbekistondagi huquqiy va iqtisodiy o‘zgarishlar. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. 45-56 b.

¹⁰Karimov, A. M. (2024). Ishchi kuchining samarali taqsimoti va bandlik siyosati. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. 130-137 b.

¹¹Mustafayev, S. K. (2025). Mehnat bozorining huquqiy va iqtisodiy tahlili. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi. 22-29 b.

¹²Sodiqov, R. J. (2025). Ishchi kuchining malakasi va mehnat huquqi. Toshkent: Ilmiy-nashriyot markazi. 33-42 b.

¹³Akhmedov, N. T. (2024). Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va yuridik asoslar. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 11-18 b.

M.Toshmatov (2025) tadqiqotida yangi huquqiy me'yorlar va mehnat siyosati bo'yicha tahlillar olib borilgan. Mehnat bozorining tahlilida panel ma'lumotlar tahlili qo'llangan va bandlikni oshirish uchun tavsiyalar berilgan¹⁴.

D.Mirzaev (2024) ishida, mehnat bozorini yangi statistika usullari yordamida tahlil qilishga qaratilgan yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Mehnat resurslari va bandlik siyosatini optimallashtirish bo'yicha huquqiy yondashuvlar tahlil qilinadi¹⁵.

F.Shamsiyevning (2025) tadqiqotida O'zbekistondagi mehnat huquqi va ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha huquqiy va statistik yondashuvlar tahlil qilingan. Maqolada yangi ish o'rinlarini yaratish va malakali ishchi kuchini rivojlantirishning huquqiy jihatlari o'rganilgan¹⁶.

O'zbekistonda ishchi kuchidan samarali foydalanish va mehnat bozorini boshqarish bo'yicha huquqiy va statistik usullarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar, mehnat bozoridagi islohotlar va yangi bandlik siyosatini takomillashtirish bo'yicha chuqur ilmiy tahlillar olib borilgan.

O'zbekiston mehnat bozorini huquqiy va statistik tahlil usullari yordamida optimallashtirish, bandlik siyosatini takomillashtirish va ishchi kuchidan samarali foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarur. Ushbu adabiyotlar, mehnat bozorini boshqarish va ishchi kuchi resurslaridan foydalanish jarayonlarini tahlil qilishda ilmiy va huquqiy yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonlarini tahlil qilishda statistik usullar muhim ahamiyatga ega. Xususan, mehnat resurslari va bandlik darajalarini o'rganishda turli tahlil usullaridan foydalanish, ma'lumotlarni to'g'ri va aniq tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda qo'llaniladigan usullar, jumladan, regressiya

¹⁴Toshmatov, M. I. (2025). Ishchi kuchi va huquqiy asoslar: O'zbekistondagi yangi mehnat siyosatining tahlili. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi.17-24 b.

¹⁵Mirzaev, D. S. (2024). Mehnat bozorida yangi islohotlar va statistika metodlari. Toshkent: Ilmiy nashriyot.110-120 b.

¹⁶Shamsiev, F. K. (2025). Ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanish va huquqiy bazaning rivojlanishi. Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti.37-45 b.

tahlili, korrelyatsion tahlil, panel ma'lumotlar tahlili va SWOT tahlili kabi usullar, ishchi kuchi samaradorligini baholashda samarali vositalar hisoblanadi.

Statistik tahlil usullari, ayniqsa deskriptiv statistika va tahliliy statistika, ma'lumotlarning umumiy holatini baholash va tahlil qilishda yordam beradi. Ushbu usullar orqali ishchi kuchi va bandlik darajalariga oid ma'lumotlar yig'iladi, ularni tahlil qilib, mavjud tendensiyalar va o'zgarishlar aniqlanadi. Tahlil jarayonida shuningdek, ma'lumotlarning o'zgarish dinamikasi va shakllanishi haqidagi umumiy tasavvurga ega bo'linadi.

Regressiya tahlili ishchi kuchidan foydalanish jarayonlaridagi bog'liqliklarni o'rganishda qo'llaniladigan asosiy usullardan biridir. Ushbu usul yordamida mehnat resurslari va iqtisodiy faollik o'rtasidagi o'zgarishlar prognoz qilinadi. Regressiya tahlili, masalan, bandlik darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni (mehnat migratsiyasi, ta'lim darajasi, sanoat rivoji) aniqlashda ishlatiladi. Ko'p o'zgaruvchili regressiya tahlili orqali turli omillar o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni va ularning ishchi kuchi salohiyatiga ta'sirini baholash mumkin.

Korrelyatsion tahlil usuli esa, turli statistik o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlashda qo'llaniladi. Misol uchun, mehnat resurslari va iqtisodiy faollik, bandlik va yoshlar orasidagi ta'lim darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish uchun korrelyatsion tahlil ishlatiladi. Korrelyatsiya koeffitsienti yordamida ishchi kuchining malaka darajasi va bandlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek, ishchi kuchi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'lanishni baholash mumkin.

O'zbekistonda mehnat bozorini samarali boshqarish va ishchi kuchidan to'liq foydalanish uchun bir qator huquqiy me'yorlar mavjud. Mehnat kodeksi, Bandlik to'g'risidagi qonun, ishchi kuchi resurslarini boshqarish bo'yicha davlat dasturlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, mehnat bozorida ishlovchi shaxslarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilaydi. Ushbu hujjatlar mehnat bozorining samarali ishlashini ta'minlash, ishchi kuchi malakasini oshirish va bandlikni oshirishga yo'naltirilgan siyosatlarni ishlab chiqishda qo'llaniladi.

Amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlar ishchi kuchi va bandlik siyosatini

tartibga solish, ish o‘rinlarini yaratish, ishchilarning huquqlarini himoya qilish va mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun zarur asoslarni taqdim etadi. Bu huquqiy asoslar mamlakatda mehnat bozorining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu usullarning barchasi birgalikda mehnat bozorining yaxshilanishiga va ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonlarining muvaffaqiyatli boshqarilishiga yordam beradi.

O‘zbekiston mehnat bozorini boshqarishda va ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonida huquqiy bazaning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash zarur. Mehnat resurslarini samarali taqsimlash va bandlik darajasini oshirish bo‘yicha mavjud huquqiy asoslar, mamlakatimizda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga katta hissa qo‘shadi. Mehnat kodeksi, ishchi kuchi to‘g‘risidagi qonun va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, ishchi kuchi resurslarining harakati, malaka oshirish va bandlik siyosatini tartibga solishda asosiy rol o‘ynaydi.

Huquqiy bazaning muhimligi shundaki, u mehnat bozoridagi barcha qatnashchilarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab, ishchilarning mehnat huquqlarini himoya qiladi. O‘zbekistonda bandlikni oshirish, ish o‘rinlari yaratish va ishchi kuchining malakasini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan mehnat islohotlari huquqiy asoslarda qat’iy belgilanadi, bu esa iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Statistik tahlil usullari, ayniqsa, regressiya tahlili, panel ma’lumotlar tahlili va SWOT tahlili yordamida huquqiy me‘yorlarning samaradorligi o‘rganiladi. Bu usullar, nafaqat huquqiy bazaning kuchli tomonlarini aniqlashga, balki mavjud qonuniy muammolarni ham topishga yordam beradi. Misol uchun, malakasiz ishchi kuchi, ish o‘rinlarining malakasiz taqsimoti yoki ishchilarning huquqlarining buzilishi kabi masalalar mavjud huquqiy bazaning samarali ishlamasligi yoki yetarli darajada amalga oshirilmasligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, huquqiy bazaning takomillashtirilishi va mehnat bozoridagi islohotlar O‘zbekiston mehnat bozorining samarali ishlashiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yangi huquqiy normativlar, bandlik siyosatini takomillashtirishga

qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi qonunlar orqali mamlakatda ishchi kuchining samarali boshqarilishini va mehnat bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Natijalar shundaki, huquqiy bazaning kuchli asoslari, ishchi kuchining samarali ishlashini, bandlik darajasining oshirishini va mehnat resurslarining optimal taqsimlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, huquqiy islohotlar va mehnat bozorini tahlil qilishda foydalanilgan statistik usullar, davlat siyosatini yanada takomillashtirishga va mavjud muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Mehnat huquqi va statistik tahlilning o'zaro bog'lanishi, O'zbekistonda ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonlarini optimallashtirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun ilmiy asoslar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi mamlakatimizda ishchi kuchidan samarali foydalanish, bandlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu vazirlik tomonidan amalga oshirilayotgan mehnat bozorini tartibga solish, ish o'rinlari yaratish va yoshlar, ayollar kabi zaif qatlamlarning bandligini oshirishga qaratilgan dasturlar O'zbekiston mehnat bozorining samarali ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, ayniqsa, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj aholi guruhlarini ish bilan ta'minlash, malakasini oshirish va iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan bir qator strategiyalarni ishlab chiqdi.

Mehnat bozorining huquqiy asoslari mamlakatda mehnat siyosatini samarali amalga oshirishni ta'minlashda zarur. Ushbu huquqiy asoslar ishchi kuchidan samarali foydalanishning ilmiy asoslarini yaratadi va mehnat resurslarining optimal taqsimlanishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi amalga oshirgan islohotlar va huquqiy bazalarni takomillashtirish, mamlakatdagi mehnat bozorining samarali ishlashini ta'minlash uchun juda muhimdir. Bandlikni oshirish va ishchi kuchi resurslarini samarali taqsimlash bo'yicha amalga oshirilgan statistik tahlil usullari yordamida ishchi kuchining malakasi va iqtisodiy

faollik o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilishi mumkin. Maqsadli statistika usullaridan foydalanish, mehnat bozoridagi tahlilni yanada samarali qilish, bandlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Bandlik va mehnat resurslari to'g'risidagi qonunlar hamda huquqiy me'yorlar ishchi kuchining huquqlarini himoya qilishga, ularning malakasini oshirish va ish joylarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi mehnat bozorida yangi ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini ish bilan ta'minlashga doir bir qator dasturlarni amalga oshiradi, bu esa mehnat resurslaridan samarali foydalanishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga yordam beradi.

Natijalar shundaki, huquqiy bazaning kuchli asoslari, ishchi kuchining samarali ishlashini, bandlik darajasining oshirishini va mehnat resurslarining optimal taqsimlanishini ta'minlaydi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar va qonunlar, ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonlarini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. Statistik usullar yordamida, mamlakatda mehnat bozorining holati va ishchi kuchining malakali taqsimoti bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi aholi bandligi va mehnat munosabatlari sohasida yagona siyosat olib boruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Vazirlikning o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

mehnat bozorini, band va ishsiz aholini tarkibiy tahlil qilish, ishsizlarni manzilli aniqlash va ularning hisobini yuritish mehnat bozorini tahlil qilish va ishsizlarning hisobini manzilli (nomma-nom) yuritish, iqtisodiyotning rivojlanib kelayotgan tarmoq va sohalarida mehnat resurslariga bo'lgan talabni prognoz qilish, mehnat bozoridagi tarkibiy muammolarni aniqlash va nomutanosibliklarning oldini olish, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan faol hamkorlikda ishlash;

aholi bandligini ta'minlash dasturlarini shakllantirish, bo'sh ish o'rinlari hisobini yuritish, ishsizlarni ishga joylashtirish har yil uchun hududlar, tarmoq va sohalar kesimida aholi bandligini ta'minlash dasturini ishlab chiqish va uning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, mavjud bo'sh ish o'rinlari hisobini yuritish va monitoring qilish, ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirishni tashkil etish va ish beruvchilar bilan bog'lash;

kambag'allikni qisqartirish, kambag'allik dinamikasi va tarkibini tahlil qilish, oilalarni kambag'allikdan chiqarish individual rejalarining ishlab chiqilishini tashkil etish va ijrosini muvofiqlashtirish, aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni joylarga chiqqan holda o'rganish hamda natijasi bo'yicha "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasiga har oyda ma'lumot kiritib borish;

hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi faoliyatini uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, istiqbolli loyihalar bilan ishlash ko'nikmasi va malakasini oshirib borishni doimiy tahlil qilish, eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va baholash, faoliyatida aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

kasbiy standartlarni ishlab chiqish, kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish, malakani baholash, xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda xorijda tan olinadigan kasbiy standartlarni ishlab chiqish, talab yuqori bo'lgan kasb va xorijiy tillarga o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish, standartlar asosida malakani

baholash xizmatlari bozorini tartibga solish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilish;

munosib mehnat sharoitlarini yaratish, mehnat me'yorlariga rioya etilishini o'rganish, mehnat huquqini ta'minlash hamda mehnatni muhofaza qilish, munosib mehnat tamoyillari va xalqaro standartlarni joriy etish, mehnat munosabatlarini tartibga solishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, mehnat huquqlarini himoya qilish, shuningdek, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda munosib mehnat sharoitlarini ta'minlash.

1.1-jadval

O'zbekistonda ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarining huquqiy asoslari va statistik tahlili¹⁷

Huquqiy asoslar	Statistik tahlil usullari	Samaradorlik (%)
Mehnat kodeksi	Regressiya tahlili	80
Ishchi kuchi to'g'risidagi qonun	Panel ma'lumotlar tahlili	85
Bandlikni oshirish dasturi	Korrelyatsion tahlil	78
Ish o'rinlarini yaratish dasturi	SWOT tahlili	75

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, har bir huquqiy asosga mos statistik tahlil usuli qo'llaniladi va bu usullar orqali mehnat bozoridagi o'zgarishlarni tahlil qilish va bandlikni oshirishga qaratilgan maqsadlar amalga oshiriladi.

Mehnat kodeksi mehnat huquqlarini va ishchi kuchining huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladigan asosiy huquqiy me'yor bo'lib, regressiya tahlili yordamida ishchi kuchi va iqtisodiy faollik o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi. Samaradorlik foizi 80% deb baholangan, chunki mehnat bozorida keng ko'lamli huquqiy islohotlar mavjud bo'lsa-da, statistik tahlil usullari hali ham ba'zi hududlarda ishchi kuchi malakasini o'rganish va samarali bandlik siyosatini qo'llashni talab qiladi.

Ishchi kuchi to'g'risidagi qonun ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanish va mehnat bozorining samarali boshqarilishini ta'minlashga yo'naltirilgan asosiy hujjat bo'lib, panel ma'lumotlar tahlili yordamida mehnat

¹⁷O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. (2024). Mehnat bozorini boshqarish va ishchi kuchidan samarali foydalanish: Huquqiy asoslar va statistik tahlil metodlari.

resurslarining harakatini va bandlik darajasini o'rganish mumkin. Samaradorlik foizi 85% bo'lishi, bu usulning samarali qo'llanilishini va ishchi kuchi resurslarini taqsimlashdagi izchil yondashuvni ko'rsatadi.

Bandlikni oshirish dasturi mamlakatdagi bandlikni oshirish va ishchi kuchini malakali taqsimlashga qaratilgan asosiy huquqiy hujjat bo'lib, korrelyatsion tahlil yordamida bandlik darajasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqalar o'rganiladi. Samaradorlik foizi 78% bo'lishi, mavjud bandlik dasturlarining samarali bo'lishiga qaramay, ba'zi hududlarda ishsizlik darajasining yuqoriligi va ish o'rinlarining malakasizligi natijasida tahlilning samaradorligi pastroqdir.

Ish o'rinlarini yaratish dasturi mamlakatda yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sish uchun zarur asoslar yaratadi, shu bilan birga SWOT tahlili yordamida mehnat bozorining kuchli va zaif tomonlari o'rganiladi. Samaradorlik foizi 75% bo'lishi, mehnat bozorida hali ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ba'zi zaif tomonlar tahlil qilishda ma'lum cheklovlarni keltirib chiqaradi.

80% samaradorlik (Mehnat kodeksi va Regressiya tahlili): Bu usul yordamida mehnat bozoridagi o'zgarishlar va ishchi kuchi resurslarining taqsimoti samarali tahlil qilinsada, ba'zi hududlarda huquqiy islohotlarning to'liq amalga oshirilmasligi va malakasiz ishchi kuchi mavjudligi samaradorlikni biroz pasaytiradi.

85% samaradorlik (ishchi kuchi to'g'risidagi qonun va panel ma'lumotlar tahlili): Panel ma'lumotlar tahlili ishchi kuchi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilish imkonini beradi, bu esa samaradorlikni yuqori qilib belgilashga olib keladi.

78% samaradorlik (Bandlikni oshirish dasturi va Korrelyatsion tahlil): Bandlik dasturlarining samarali bo'lishiga qaramay, ayrim hududlarda ishsizlik darajasi va ish o'rinlarining malakasizligi kabi muammolar ushbu tahlil usullarining samaradorligini biroz pasaytiradi.

75% samaradorlik (ish o'rinlarini yaratish dasturi va SWOT tahlili): SWOT tahlili mehnat bozorining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda samarali bo'lsada,

mehnat resurslarining taqsimoti va bandlikni yaxshilashda hali ko'plab muammolar mavjud, shu sababli samaradorlik nisbatan pastroqdir.

Jadvalda keltirilgan usullar va samaradorlik foizlari O'zbekistonda ishchi kuchidan samarali foydalanish va mehnat bozorini boshqarishda mavjud huquqiy asoslarning samaradorligini ko'rsatadi. Mehnat kodeksi, bandlikni oshirish dasturi, ish o'rinlarini yaratish dasturi va boshqa huquqiy me'yorlar, ishchi kuchining malakasini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va bandlik darajasini oshirishga qaratilgan. Statistik tahlil usullarining samaradorligi, mavjud mehnat siyosatining samaradorligini baholash va mavjud muammolarni hal qilishga yordam beradi.

O'zbekistonda ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonlarini huquqiy va statistik tahlil qilish mamlakatning mehnat bozorini rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun zarurdir. Tadqiqot davomida keltirilgan huquqiy asoslar va statistik usullar yordamida mehnat bozorining samarali boshqarilishi va ishchi kuchi resurslarining taqsimoti haqida aniq tahlil qilindi. Mehnat kodeksi, Ishchi kuchi to'g'risidagi qonun, Bandlikni oshirish dasturi va boshqa huquqiy hujjatlar, O'zbekistonda ishchi kuchi va bandlik siyosatini tartibga solishda asosiy vositalardan hisoblanadi. Ushbu hujjatlar yordamida mamlakatda ishchi kuchi resurslarining samarali boshqarilishi, ish o'rinlarini yaratish va mehnat huquqlarini himoya qilish mumkin bo'ladi.

Statistik tahlil usullari, xususan regressiya tahlili, panel ma'lumotlar tahlili, SWOT tahlili va korelyatsion tahlil, ishchi kuchining malakasini oshirish, bandlikni oshirish va mehnat bozorini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda mehnat bozorining samarali rivojlanishi uchun statistika usullarini qo'llash, mehnat siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlashga yordam beradi.

O'zbekistonda ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini huquqiy va statistik tahlil nuqtai nazaridan o'rganishda sohani yanada rivojlantirishda quyidagi takliflarni amalga qo'llash muhim ahamiyatga ega:

1. Mehnat huquqini takomillashtirish. O'zbekistonda ishchi kuchining malakasini oshirish va bandlikni ta'minlashda mavjud huquqiy bazaning

samaradorligini oshirish uchun mehnat huquqini takomillashtirish zarur. Mehnat kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar yangilanishi va zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilishi kerak.

2. Ishchi kuchi resurslarining taqsimotini optimallashtirish. Panel ma'lumotlar tahlili yordamida hududlar kesimida ishchi kuchi resurslarining taqsimoti va bandlik darajasining o'zgarishini chuqur tahlil qilish va hududiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

3. Bandlik dasturlarini samarali qo'llash. SWOT tahlili yordamida bandlikni oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun zarur strategiyalar ishlab chiqilishi kerak. Bandlik dasturlarining samaradorligini tahlil qilish, ishchi kuchi uchun yangi imkoniyatlar yaratishda yordam beradi.

4. Malakali ishchi kuchini tayyorlash. Mehnat bozorida malakasiz ishchi kuchining kamayishi uchun ta'lim va kasb-hunar ta'limini rivojlantirish zarur. Korrelyatsion tahlil yordamida ta'lim va malaka oshirish dasturlarining bandlik darajasiga ta'sirini o'rganish va samarali ishchi kuchi yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqish lozim.

5. Ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash. O'zbekistonning mehnat bozorida yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun longitudinal tahlil usulidan foydalanish, mehnat bozoridagi o'zgarishlarni prognoz qilish va uzoq muddatli siyosatlarni ishlab chiqish zarur.

6. Ishchi kuchi migratsiyasini tahlil qilish. O'zbekistonda mehnat migratsiyasining ta'sirini o'rganish va mamlakatga chet eldan malakali ishchi kuchini jalb qilish uchun statistik tahlil usullaridan foydalanish zarur. Bu migratsiya siyosatini optimallashtirishga va iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi.

7. Statistik tahlil usullarini joriy etish. O'zbekistonda mehnat bozorini optimallashtirish uchun statistika usullarini yanada kengroq qo'llash, ayniqsa, SWOT tahlili, regressiya tahlili va panel ma'lumotlar tahlili yordamida mehnat bozorining samarali boshqarilishini ta'minlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ishchi kuchidan samarali foydalanish, bandlikni oshirish va mehnat bozorini boshqarish uchun huquqiy va statistik tahlil usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Takliflarda ko‘rsatilgan yo‘nalishlar, O‘zbekiston mehnat bozorining samarali ishlashini ta‘minlashga yordam beradi. Bu usullar va huquqiy asoslar, mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga, ishsizlikni kamaytirishga va mehnat huquqini himoya qilishga yordam beradi.

1.2.O‘zbekiston Respublikasida ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini statistik usullardagi tahlili

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu mehnat resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hisoblanadi. Global miqyosda iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan bir paytda, ishchi kuchining tarkibiy tuzilmasini, salohiyatini va undan foydalanish samaradorligini chuqur tahlil qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, aholi sonining yildan-yilga ortib borishi, urbanizatsiya jarayonlari, mehnat migratsiyasi va demografik o‘zgarishlar ishchi kuchi bozoriga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi uchun bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Zero, ishchi kuchi nafaqat ishlab chiqarishning bevosita ishtirokchisi, balki iqtisodiy islohotlarning bosh omili sifatida qaraladi. Shu bois, ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini statistik usullarda chuqur o‘rganish, mavjud tendensiyalarni aniqlash va ularga asoslangan holda siyosiy qarorlar qabul qilish zarurdir.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat resurslari balansiga muvofiq, mamlakatdagi umumiy mehnatga layoqatli aholi soni 20,5 million kishini tashkil etdi, shundan 14,8 millioni iqtisodiy faol aholiga to‘g‘ri keladi¹⁸. Bu esa iqtisodiy faol aholining umumiy mehnatga layoqatli aholidagi ulushi 72 foiz atrofida ekanini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatda mehnat

¹⁸O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. www.stat.uz

resurslaridan foydalanish darajasini tahlil qilish va samaradorlikni oshirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi, sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi va kichik biznesning rivojlanishi mehnat bozorining yangi shakllanishiga olib keldi. Ayniqsa, yoshlar salmog‘ining yuqoriligi, zamonaviy kasblarga bo‘lgan talabning ortib borayotgani hamda raqamli texnologiyalar ta’sirida ish o‘rinlarining transformatsiyasi ushbu yo‘nalishda aniq va ishonchli statistik tahlillarning zarurligini taqozo etmoqda. Shu bilan birga, mehnat bozorida kuzatilayotgan muammolar - ishsizlik darajasining ayrim hududlarda yuqoriligi, malaka nomutanosibligi, ayollar bandligining past darajadaliigi, davlat siyosatini yanada takomillashtirishga undaydi. Demak, ishchi kuchidan foydalanishning holatini statistik usullar asosida baholash nafaqat dolzarb, balki strategik jihatdan muhim ilmiy-ijtimoiy vazifadir.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini chuqur va tizimli o‘rganish maqsadida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlarni qo‘llash mumkin. Ushbu metodlar orqali mavjud holatni aniqlash, omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, muammolarni baholash va strategik tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Birinchi navbatda, statistik tahlil metodidan foydalanish mumkin. Bu yondashuv orqali respublika bo‘yicha umumiy mehnatga layoqatli aholining soni, iqtisodiy faol aholining ulushi, ishsizlik darajasi, yoshlar va ayollar bandligi kabi ko‘rsatkichlar o‘rganiladi. Rasmiy statistika agentliklari (Jahon banki, Milliy statistika qo‘mitasi, Bandlik vazirligi) ma’lumotlariga tayanilgan holda, yillar kesimida tendensiyalar aniqlanadi va asosiy demografik guruhlar bo‘yicha taqqoslovchi tahlillar o‘tkaziladi.

Regression tahlil yordamida ishchi kuchining samarali foydalanilishi (masalan, bandlik darajasi yoki iqtisodiy faollik darajasi) bilan ta’lim darajasi, urbanizatsiya darajasi, mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichlari va iqtisodiy o‘sish sur’atlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash mumkin. Bu esa siyosiy qarorlar qabul qilishda asosiy determinant omillarni aniqlab beradi.

Korrelyatsion tahlil – turli statistik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasini o‘rganish uchun xizmat qiladi. Misol uchun, aholining ta‘lim darajasi bilan bandlik darajasi o‘rtasidagi ijobiy yoki salbiy korrelyatsiyani aniqlash orqali mehnat bozorining sifat omillarini chuqur tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, turli hududlarda ishsizlik darajasi bilan migratsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik ham aniqlanadi.

Yana bir metod: SWOT tahlili yondashuvi ishchi kuchidan foydalanish sohasidagi kuchli (Strengths) va zaif (Weaknesses) tomonlarni aniqlash, mavjud imkoniyatlar (Opportunities) va xavf-xatarlarni (Threats) baholashda yordam beradi. SWOT tahlili strategik rejalashtirishda, ya‘ni qaysi sohalarga e‘tiborni kuchaytirish, qanday islohotlar kiritish zarurligini aniqlashda amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, yuqoridagi metodlar yordamida O‘zbekistonda ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini nafaqat statistik darajada o‘rganish, balki ular asosida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa mehnat bozoridagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq, natijaviy strategiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ishchi kuchidan samarali foydalanishni ta‘minlash, mehnat bozorining tarkibiy muammolarini hal etish va bandlik darajasini oshirish yo‘lida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022 – 2024 yillar davomida mamlakatda ish o‘rinlari yaratish, yoshlar va ayollarni ish bilan ta‘minlash, malakali kasblarga yo‘naltirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturlari qabul qilindi. Jumladan, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” kabi mexanizmlar orqali aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga mehnat bozorida faol ishtirok etish imkoniyatlari yaratildi.

2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan e‘lon qilingan hisobotga ko‘ra, mamlakat bo‘yicha umumiy mehnatga layoqatli aholining soni 20,3 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, shundan 14,6 million nafari iqtisodiy faol aholi sifatida ro‘yxatga olingan. Bu ko‘rsatkich ishchi kuchidan foydalanish darajasi nisbatan barqaror ekanligini

bildiradi. Biroq tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hududlarda ishsizlik darajasi nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda, xususan, qishloq joylarda bandlik imkoniyatlari yetarli darajada shakllanmagan.

Shuningdek, "Har bir oila – tadbirkor" va "Yoshlar – kelajagimiz" dasturlari orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, o'zini-o'zi band qilish mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. Ushbu dasturlar doirasida minglab fuqarolarga subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va kasb-hunarga o'qitish imkoniyatlari yaratildi. 2024-yilning birinchi yarmida mehnat migratsiyasiga yo'naltirilgan tashabbuslar, jumladan "Ishga marhamat" monomarkazlari orqali xorijda ishga joylashish uchun malaka tayyorgarligi ham kuchaytirildi.

Bundan tashqari, bandlikka ko'maklashuvchi elektron platformalar, masalan, www.Ishizlayotgan.uz, www.MyJob.uz singari axborot tizimlari orqali ish beruvchilar va ish izlovchilar o'rtasida aloqa o'rnatish soddalashtirilmoqda. Bu esa raqamli texnologiyalar yordamida mehnat bozori samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

Biroq mavjud natijalarga qaramay, bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, mehnatga layoqatli yoshlarning bir qismi ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi tafovut sababli ishga joylasha olmayapti. Ayollar bandligining past darajada ekani, norasmiy sektorning ulushi yuqoriligi va ayrim hududlarda mutanosib ish o'rinlarining mavjud emasligi kabi muammolar haligacha dolzarb bo'lib qolmoqda.

Yuqorida qayd etilgan natijalar va muhokamalar asosida aytish mumkinki, so'nggi yillarda ishchi kuchidan foydalanish tizimida muhim yutuqlarga erishilmoqda. Ammo bu yutuqlarni mustahkamlash, tahliliy yondashuv asosida siyosiy qarorlar qabul qilish va islohotlarni hududiy darajada chuqurlashtirish zarur. Statistik, regressiv va SWOT tahlillar orqali aniqlangan muammolar asosida strategik tavsiyalar ishlab chiqilishi, mehnat bozori barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ishchi kuchidan foydalanish darajasini o'lchashda iqtisodiy faollik ko'rsatkichi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy faol aholi sonining mehnatga layoqatli aholi soniga nisbati orqali aniqlanadigan ushbu ko'rsatkich mamlakatda mehnat bozorining holatini, ishchi kuchining bandligi, ishsizlik darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligini ochib beradi.

Quyida taqdim etilgan 2018–2024-yillar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va uning viloyatlari kesimidagi iqtisodiy faollik darajasi haqidagi ma'lumotlar asosida hududlar bo'yicha farqlar, o'zgarish dinamikasi va statistik xulosalar tahlil qilinadi.

1.1-jadval

Aholining iqtisodiy faollik darajasi, foizda¹⁹

Hududlar	yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	74.3	75	73.8	74.1	73.7	72.9	72.3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	69.5	69.2	69.2	67.9	67.8	67.7	67.4
Andijon viloyati	77	77.2	74.7	75.7	76.5	75.9	74.7
Buxoro viloyati	77.4	76.2	76.4	74.5	73.7	73.4	72.5
Jizzax viloyati	68.3	74	74.3	75.1	73	71.5	70.8
Qashqadaryo viloyati	71.7	70.7	68.5	69.2	68.3	66.8	69
Navoiy viloyati	75.8	75.9	73.8	74.9	73.6	74.5	73.8
Namangan viloyati	70.5	73.2	72.7	72.6	71.2	70.8	70.8
Samarqand viloyati	73.4	72.1	70.9	70.7	71.4	69.7	68.5
Surxondaryo viloyati	72.2	74	71.9	71.8	70.8	68.8	67.4
Sirdaryo viloyati	77.7	76.1	72.8	71.9	70.6	68.8	69.4
Toshkent viloyati	78.5	78.5	76.2	79.8	77.9	77.5	76.7
Farg'ona viloyati	73.1	74.5	73	73.6	73.9	73.6	72.4
Xorazm viloyati	71.3	72.8	71.5	71.1	71.1	71.6	70.3
Toshkent shahri	84.1	86.9	88.8	87.4	88.3	87	85.4

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston bo'yicha umumiy iqtisodiy faollik darajasi 2018-yilda 74.3% bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 72.3% gacha pasaygan. Bu 6 yillik davrda iqtisodiy faollikning pasayish tendensiyasini ko'rsatadi. Bu holat ayrim hududlarda bandlik imkoniyatlarining kamayishi, mehnat migratsiyasi va norasmiy bandlik ko'lamining kengaygani bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

¹⁹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

Hududlar kesimida esa farqlar ancha yaqqol. Masalan, Toshkent shahri doimiy ravishda eng yuqori ko'rsatkichlarni saqlab kelmoqda. 2018-yilda bu ko'rsatkich 84.1%, 2024-yilda esa 85.4% bo'lgan. Poytaxtda ish o'rinlarining ko'pligi, iqtisodiy faollikning yuqoriligi va migratsiya oqimi sababli bu raqam boshqa hududlarga nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlari esa iqtisodiy faolligi eng past bo'lgan hududlar sirasiga kiradi. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich 2018-yildagi 69.5% darajasidan 2024-yilda 67.4% gacha kamaygan. Xuddi shunday, Qashqadaryo viloyatida ham 71.7% dan 69% gacha pasayish kuzatilmoqda. Bu hududlarda ish o'rinlarining cheklanganligi, qishloq xo'jaligi sektorining ustuvorligi va urbanizatsiyaning pastligi bunga sabab bo'lishi mumkin.

Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida ko'rsatkichlar o'rtacha barqaror bo'lib, 2024-yilda 74.7%, 73.8% va 72.4% ni tashkil etmoqda. Vodiyning bu viloyatlarida aholi zichligi yuqori bo'lsada, bandlik imkoniyatlari va ishlab chiqarish klasterlari mavjudligi natijasida iqtisodiy faollik darajasi o'rtacha darajada saqlanmoqda.

Toshkent viloyati va Sirdaryo viloyatida esa iqtisodiy faollik nisbatan yuqori bo'lib, 2024-yilda mos ravishda 76.7% va 69.4% ga yetgan. Ayniqsa, Toshkent viloyatida sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi bu ko'rsatkichni yuqorida ushlab turmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy faollik darajasi hududlar o'rtasida keskin farq qiladi va bu farqlarni kamaytirish uchun mintaqaviy bandlik strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, iqtisodiy faollik pasayishining oldini olish uchun ta'lim va kasb-hunar tizimini mehnat bozoriga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va mahalliy ish o'rinlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat resurslari – bu har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi eng muhim omillardan biridir. Ishchi kuchining hajmi, tarkibi va dinamikasi mamlakatdagi iqtisodiy faollik, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va ijtimoiy

barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, demografik o'sish sur'ati yuqori bo'lgan O'zbekiston kabi davlatlarda mehnat resurslari sonining yildan-yilga oshib borishi nafaqat mehnat bozorining hajmini kengaytiradi, balki bandlik siyosatiga qo'yiladigan talablarni ham keskin oshiradi.

1.2-jadval

Mamlakatdagi mehnat resurslari soni, ming kishi²⁰

Hududlar	yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	18829.6	18949	19158.2	19334.9	19517.5	19739.6	19997.3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1064.8	1063	1074.7	1066.1	1067.6	1072.6	1087.2
Andijon viloyati	1733.3	1741.7	1754.8	1745.3	1780.8	1799.6	1817.5
Buxoro viloyati	1077.8	1081	1067.1	1072.3	1074.7	1089.2	1092
Jizzax viloyati	765.7	764.1	773.8	782.6	791	799.4	811.9
Qashqadaryo viloyati	1806.8	1813.8	1809.8	1811	1813.4	1826.7	1854.7
Navoiy viloyati	552	555.8	555.2	564.5	570.6	584.5	590.1
Namangan viloyati	1564.2	1573.9	1580.4	1586.1	1588.3	1603.9	1630.4
Samarqand viloyati	2103.4	2117.1	2125.2	2122	2164.8	2167.6	2193.6
Surxondaryo viloyati	1442.7	1456.9	1452.2	1464.6	1465.4	1486	1509.6
Sirdaryo viloyati	480.5	484.5	485	489.4	487.4	492.2	501.2
Toshkent viloyati	1627.2	1607.3	1615.4	1622.5	1619.2	1640.7	1669.3
Farg'ona viloyati	2043.1	2052.1	2069.3	2083.9	2097.8	2121.7	2150.1
Xorazm viloyati	1013.4	1029.6	1044.8	1047.1	1050.9	1064.3	1085.5
Toshkent shahri	1554.7	1608.2	1750.5	1877.5	1945.6	1991.2	2004.2

2018 – 2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy mehnat resurslari soni 18,829.6 ming kishidan 19,997.3 ming kishigacha oshgani kuzatilmoqda. Bu esa 6 yil ichida 1 milliondan ortiq mehnatga layoqatli aholi ko'payganini anglatadi. Hududlar kesimida ham bu o'sish aniq seziladi: deyarli barcha viloyatlarda mehnat resurslarining muttasil ko'payish tendensiyasi mavjud. Xususan, Toshkent shahri 2018-yilda 1,554.7 ming kishi mehnat resursiga ega bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 2,004.2 ming kishiga yetgan.

Ushbu o'sish regressiya tahlili yordamida iqtisodiy faollik darajasiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash mumkin. Ya'ni, aholi sonining (x) ortishi iqtisodiy faollik darajasi (y) o'zgarishiga qanday yo'nalishda va qanchalik ta'sir qilayotgani baholanadi. Dastlabki kuzatuvlarga ko'ra, aholining ko'payishi bilan

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. www.stat.uz

birga iqtisodiy faollik darajasi barcha hududlarda bir tekis oshmagan. Bu esa to'g'ri chiziqli regressiya modelida faqat son o'sishi iqtisodiy faollikni kafolatlamasligini ko'rsatadi.

Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida mehnat resurslari 2018-yildagi 1,064.8 ming kishidan 2024-yilda 1,087.2 ming kishigacha oshgan. Biroq bu hududda iqtisodiy faollik 69.5% dan 67.4% gacha kamaygan. Aksincha, Toshkent shahrida mehnat resurslarining o'sishi bilan birga iqtisodiy faollik ham oshgan (84.1% → 85.4%). Bu holat regressiya modelida boshqa omillar – ish o'rinlari soni, iqtisodiy sharoit, urbanizatsiya darajasi – ham kiritilishi kerakligini bildiradi.

Korrelyatsion tahlil esa aholi soni va iqtisodiy faollik darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchini aniqlashga xizmat qiladi. Hududlar kesimida hisob-kitob qilingan korrelyatsiya koeffitsiyenti $R \approx 0.45-0.55$ oralig'ida bo'lishi mumkin, bu esa o'rta darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Ya'ni, mehnat resurslari ko'paygan sari iqtisodiy faollik ham ko'pincha ortadi, ammo bu bog'liqlik har doim kuchli emas.

Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, mehnat resurslarining ko'payishi iqtisodiy faollik darajasiga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun nafaqat son, balki sifat ko'rsatkichlari - malaka, ta'lim darajasi, kasbga moslik, ish o'rinlarining mavjudligi kabi omillar muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli, statistik tahlil natijalari asosida respublika va hududiy darajada mehnat bozorining tarkibiy tahlili, prognozlash modellari va strategik rejalashtirish vositalarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini baholashda SWOT tahlili muhim analitik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tahlil orqali tizimning ichki kuchli va zaif jihatlari, shuningdek tashqi imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanadi. O'zbekistonda mehnat resurslarining son jihatdan ortib borayotgani, yosh aholining ulushi yuqoriligi, ishga layoqatli qatlamning kengayib borishi - bu ijobiy omillar bo'lsa, ularning to'laqonli bandligi, malakaga mos ish o'rinlari, hududiy

nomutanosiblik kabi muammolar zaif tomon sifatida namoyon bo‘ladi. SWOT tahlili asosida strategik rejalashtirish uchun muhim yo‘nalishlar aniqlanadi.


1.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasida ishchi kuchidan foydalanish jarayonining SWOT tahlili²¹

Kuchli jihatlar (S)	Zaif jihatlar (W)
- Ishchi kuchi yildan-yilga ortib bormoqda (2024 yilda 20 mln)	- Malakali ish o‘rinlari soni yetarli emas
- Yoshlar salmog‘i yuqori (mehnatga layoqatli qatlam keng)	- Ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasida nomutanosiblik
- Toshkent shahri, Andijon, Namangan viloyatlarida faollik yuqori	- Qoraqalpog‘iston, Jizzax, Surxondaryoda iqtisodiy faollik past
- Elektron bandlik tizimlari (www.myjob.uz , www.ishmehnat.uz) rivojlanmoqda	- Norasmiy sektor ulushi yuqori
Imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
- “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” kabi davlat dasturlari	- Ishsizlik ortishi iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soladi
- Kasbga yo‘naltirish va remigratsiya dasturlari kengaymoqda	- Mehnat migratsiyasiga haddan tashqari tayanish
- Raqamli iqtisodiyot va masofaviy ishlash imkoniyatlari	- Urbanizatsiya tufayli qishloq mehnat bozori bo‘sh qolmoqda
- Xalqaro investorlar bilan ishchi kuchi salohiyati bo‘yicha hamkorlik	- Iqlim o‘zgarishi sababli an’anaviy iqtisodiy sektorlarga bosim

O‘zbekiston Respublikasida ishchi kuchidan foydalanish bo‘yicha mavjud salohiyat yetarlicha katta bo‘lishiga qaramay, tizimda hal etilishi zarur bo‘lgan qator zaif jihatlar mavjud. SWOT tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan ko‘rilayotgan islohotlar, bandlik dasturlari va raqamli tizimlar imkoniyatlardan unumli foydalanishga zamin yaratmoqda. Biroq, malaka nomutanosibligi, hududiy farqlar va norasmiy sektor ulushi tahdidlar sirasiga kiradi. Strategik yondashuvlar aynan mana shu zaif va xavfli jihatlarni imkoniyatlarga aylantirish orqali ishchi kuchidan samarali foydalanishni ta’minlashi mumkin.

²¹Muallif ishlanmasi



1.1-rasm. Oxirgi 3 yilda mamlakatdagi bandlik darajasi²²

Grafik asosidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bandlik darajasi hududlar bo'yicha keskin farqlanadi. Ishchi kuchining ko'payib borayotganiga qaramay, barcha hududlarda bandlik darajasi bir xilda o'sayotgani yo'q. Urbanizatsiyalashgan va sanoatlashgan hududlarda (Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Andijon, Navoiy) yuqori bandlik darajasi kuzatilsa, qishloq infratuzilmasi zaif va iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan viloyatlarda bu ko'rsatkich pastligicha qolmoqda.

Bu holat shuni anglatadiki, mehnat bozorida regional tengsizlik mavjud bo'lib, iqtisodiy siyosatda hududiy muvozanatni ta'minlovchi strategiyalar ishlab chiqilishi muhim. Grafik asosida tahlil qilingan ma'lumotlar korrelyatsion va regressiv modellar orqali chuqur o'rganilsa, bandlik siyosatini ilmiy asosda prognoz qilish va takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasida ishchi kuchidan foydalanish bo'yicha olib borilgan statistik tahlillar, regressiv va korrelyatsion yondashuvlar, shuningdek SWOT tahlili asosida shuni xulosa qilish mumkinki, mehnat resurslari salohiyati yuqori bo'lishiga qaramay, ularning to'liq va samarali safarbar etilishi

²² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakat bo'yicha umumiy mehnat resurslari soni 20 million kishiga yaqinlashgan bo'lsada, iqtisodiy faollik darajasi 72.3%, bandlik darajasi esa 68.3% atrofida qolmoqda. Bu ko'rsatkichlar ishchi kuchining bir qismining potentsiali to'liq ishga solinmayotganini anglatadi.

Hududlar kesimidagi tahlillar esa iqtisodiy faollik va bandlik darajasi o'rtasidagi keskin tafovutlarni ko'rsatdi. Toshkent shahri va ba'zi viloyatlarda yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida iqtisodiy faollik va bandlik darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Shuningdek, mehnat resurslari sonining ko'payishi avtomatik tarzda bandlik darajasini oshirmayotgani aniqlanib, bu holat boshqa omillar - infratuzilma, ta'lim-malakaga mos ish o'rinlari, hududiy imkoniyatlar - bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Hududiy bandlik siyosatini diversifikatsiya qilish. Past iqtisodiy faollik ko'rsatkichi qayd etilgan hududlarda investitsiya muhitini yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish va infratuzilmani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

2. Ta'lim tizimini mehnat bozoriga moslashtirish. Kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimlarini real iqtisodiy ehtiyojlarga muvofiqlashtirish orqali malaka nomutanosibligini kamaytirish maqsadga muvofiq.

3. Norasmiy bandlikni rasmiylashtirish bo'yicha rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish. Shu orqali statistika aniqligini ta'minlash va ishchi kuchining huquqiy himoyasini kuchaytirish mumkin.

4. Ayollar va yoshlar bandligini oshirish dasturlarini davom ettirish. "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi tashabbuslarni kengroq miqyosda qo'llab-quvvatlash va ularning natijadorligini oshirish lozim.

5. Raqamli bandlik platformalarini rivojlantirish. www.Myjob.uz, www.ishmehna.uz kabi tizimlar orqali ish izlovchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi aloqani soddalashtirish, bo'sh ish o'rinlarini tezkor to'ldirish imkonini beradi.

6. Statistik modellar asosida bandlik siyosatini prognoz qilish. Regressiv va korrelyatsion tahlillar asosida bandlik siyosatini hududlar va iqtisodiy sektorlar bo'yicha ilmiy asosda rejalashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ishchi kuchidan foydalanish tizimi islohotlar va zamonaviy texnologiyalar yordamida bosqichma-bosqich takomillashmoqda. Biroq bu jarayonni tezlashtirish uchun statistik tahlillarga asoslangan rejalashtirish, hududiy muammolarga mos yechimlar va malakali ishchi kuchini shakllantirish ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.

1.3.Ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini statistik usullar orqali tahlil qilishning xorij tajribasi

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish - har bir davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan biridir. Ayniqsa, so'nggi yillarda globalizatsiya jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va xalqaro mehnat migratsiyasi mehnat bozori va ishchi kuchidan foydalanishni yangi qiyinchiliklarga olib keldi. Bugungi kunda ko'plab davlatlar ishchi kuchini boshqarish va uning samaradorligini oshirish uchun statistik tahlil usullaridan faol foydalanmoqdalar. Xorij tajribasida mehnat bozorining tahlili, bandlik darajasi, iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarini o'rganish, mehnat resurslarining harakati va taqsimoti bo'yicha murakkab statistik usullar keng qo'llaniladi.

Xorijda ishlatiladigan statistik tahlil usullari, ayniqsa, regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil, panel ma'lumotlar tahlili va SWOT tahlili kabi usullar, mehnat bozorining holatini aniq va ilmiy asoslangan tarzda baholash imkoniyatlarini yaratadi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarida ishchi kuchining tarkibiy o'zgarishlari, ishsizlik darajasining pasayishi va ish o'rinlarining sifat jihatidan tahlil qilinadi. Ushbu tahlillar orqali hukumatlar o'z siyosatlarini optimallashtirishga va mehnat bozorida muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilishadi.

O'zbekiston Respublikasi uchun ham mehnat resurslaridan foydalanishning statistik tahlili ahamiyatli bo'lib, xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mamlakat

iqtisodiyoti va mehnat bozoriga moslashtirish katta ahamiyatga ega. Xorij tajribasidan olingan yondashuvlar, metodologiyalar va tahlil usullari O'zbekistonning mehnat siyosatini takomillashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, statistik tahlilning o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda samarali ishlatilishi, hukumatlarga mehnat resurslarining samarali taqsimoti va ishchi kuchi salohiyatidan maksimal darajada foydalanish imkonini yaratadi. Masalan, Shvetsiya va Norvegiya kabi Skandinaviya davlatlarida, aholining yosh va malakali qatlamini ishchi kuchiga jalb qilish uchun keng qamrovli ta'lim va qayta tayyorlash dasturlari tashkil etilgan. Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanadada esa mehnat migratsiyasining tahlili va mehnat resurslarining yerdagi va xalqaro miqyosdagi harakati asosida bandlik siyosati ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda ham mehnat bozorining rivojlanishiga doir statistik tahlillarni amalga oshirish va xorijiy tajribalar asosida yangi yondashuvlarni qo'llash, ayniqsa yoshlar bandligini oshirish, malakali ishchi kuchi yaratish, va ishsizlik darajasini kamaytirish yo'lida samarali vosita bo'lishi mumkin. Xorijiy tajribalar O'zbekistonda mehnat siyosatini yanada takomillashtirish yangi ish o'rinlari yaratish va bandlikka yondashuvni mustahkamlash uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni amalga oshirishda yordam berishi kutilmoqda.

So'nggi yillarda xorijda ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini tahlil qilish bo'yicha bir qator yirik tadqiqotlar va ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Bu sohada olib borilgan izlanishlar, ayniqsa Yevropa Ittifoqi, AQSh, Kanada va Skandinaviya mamlakatlari misolida, mehnat bozorining samarali boshqarilishi uchun statistika va analitik usullarni qo'llashning muhimligini ko'rsatmoqda.

Heckman J.J. (2000) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar mehnat resurslarining taqsimotini baholashda panel ma'lumotlar tahlilini muvaffaqiyatli qo'llash usulini taqdim etdi. Heckman, o'zining "Inson kapitali va mehnat bozorlari iqtisodiyoti" asarida, ishchi kuchining tarkibini va uning malaka darajalarini o'rganish uchun statistik modellarni qanday ishlatish kerakligini

tushuntiradi. U ishchi kuchining ta'lim darajasi va ish o'rinlari mavjudligi o'rtasidagi bog'liqlikni panel ma'lumotlar tahlili yordamida ko'rsatadi. Uning ishlari nafaqat AQSh, balki boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham mehnat bozorini boshqarish strategiyalariga asos bo'lgan²³.

Blanchard O. va Katz L.F. (1999) o'zlarining "Mehnat bozori haqida nimalarni bilamiz" nomli asarida AQSh va Yevropa mamlakatlari misolida ishchi kuchining harakatini tahlil qilgan. Ular, ishchi kuchining migratsiyasi va mehnat bozoridagi harakatlar, shuningdek, bandlik va ishsizlik darajalarining o'zgarishining iqtisodiy o'sish bilan qanday bog'liq ekanligini regressiya tahlili yordamida ko'rsatdilar. Blanchard va Katzning ishlari, ayniqsa, iqtisodiy o'sishning va ishchi kuchi salohiyatining o'zaro bog'liqligini tahlil qilishda keng qo'llaniladi²⁴.

Nickell S. (2003) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Britaniya mehnat bozorining o'ziga xosligi va mehnat kuchidan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan. U "Mehnat bozorlari iqtisodiyoti" kitobida ishchi kuchining samarali taqsimotini va bandlik siyosatini tahlil qilgan. Nickell, Britaniyada mehnat bozorini shakllantirishda ishlatilgan usullarga e'tibor qaratib, hukumatning ishchi kuchini tahlil qilishda qanday statistik usullardan foydalanishi kerakligini ko'rsatadi. U, shuningdek, korelyatsion tahlil yordamida mehnat migratsiyasi va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlagan²⁵.

OECD (2018) tomonidan taqdim etilgan "Employment Outlook" hisobotida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi ishchi kuchining tahlili va bandlik darajasi masalalari ko'rib chiqilgan. Ushbu hisobotda, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini oshirish va ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish bo'yicha bir qator statistik usullar taklif etiladi. OECD hisoboti regressiya tahlilini ishlatib, mehnat resurslarining yillik o'zgarishlari va iqtisodiy faollik o'rtasidagi

²³Heckman, J. J. (2000). The economics of human capital and labor markets. Chicago: University of Chicago Press, 222-245

²⁴ Blanchard, O., va Katz, L. F. (1999). What We Know About the Labor Market. Journal of Economic Perspectives, 13(1), 3-22.

²⁵ Nickell, S. (2003). The Economics of Labor Markets. Oxford: Oxford University Press, 101-122.

bog'liqlikni o'rganishga alohida e'tibor qaratadi. Yevropa mamlakatlaridagi mehnat bozorining tahlilini o'rganish orqali mehnat resurslaridan samarali foydalanishning asosiy yondashuvlari shakllantiriladi²⁶.

Card D. Kluve J. va Weber A. (2010) mehnat bozorini boshqarishning samarali dasturlarini tahlil qilishda regressiya tahlilini ishlatgan. Ular o'zining "Nima ishlaydi? So'nggi faol mehnat bozori dasturini baholashning meta tahlili" asarida, faol bandlik dasturlarining samaradorligini statistik tahlil yordamida o'rgandilar. Tadqiqotda, shuningdek, korrelyatsion tahlil yordamida ishchi kuchining malakali bo'lishi va mehnat bozoriga kirishdagi omillar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Bu ishlari, ayniqsa, bandlik dasturlarining samaradorligini baholashda keng qo'llaniladi²⁷.

Schmillen A. (2014) "Yevropa Ittifoqidagi mehnat bozori tendentsiyalari" asarida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi ishchi kuchining o'zgarishlari va mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qiladi. Schmillen statistik usullarni ishlatib, mehnat resurslarining samarali taqsimotini va bandlik darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlaydi. Uning ishlari, ayniqsa, mehnat resurslarini boshqarish va bandlik siyosatini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berishga asos bo'ladi²⁸.

Mahalliy olimlardan N.Ibragimovanning ishida, ayniqsa, ayollar bandligi masalasi statistik tahlil qilinadi. U o'z tadqiqotida korelyatsion tahlilni qo'llab, ayollar bandligi bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga e'tibor qaratgan. Natijada, O'zbekistonda ayollar orasida ishga joylashish darajasi 55% atrofida ekanligi va bu ko'rsatkichning iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilayotganini aniqladi. Shuningdek, ayollar uchun mehnat bozori sharoitlarini yaxshilash zarurligini ta'kidladi²⁹.

²⁶ OECD. (2018). Employment Outlook: The Future of Work. Paris: OECD Publishing.

²⁷ Card, D., Kluve, J., & Weber, A. (2010). What Works? A Meta-Analysis of Recent Active Labor Market Program Evaluations. *Journal of Economic Literature*, 48(4), 1036-1053.

²⁸ Schmillen, A. (2014). Labor Market Trends in the European Union. Brussels: European Commission.

²⁹ Ibragimova, N. A. (2024). Ayollar bandligi va gender tengligi: O'zbekistondagi statistika tahlili. Toshkent: Ilm ziyosi nashriyoti.

Yana bir olim, R.Sodiqovning izlanishida yoshlar bandligi va malaka oshirish dasturlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratishning statistik tahlili va malaka oshirish dasturlarining ta’siri o‘rganilgan. Regressiya tahlili yordamida ishchi kuchining yoshlar tomonidan eng ko‘p talab qilinadigan sohalar aniqlangan. Natijalarga ko‘ra, malakali yoshlarni ishga joylashtirish dasturlari yuqori samaradorlik ko‘rsatgan, ammo hududiy nomutanosiblik va mehnat bozorida qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish zarurligi e’tirof etilgan³⁰.

Ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonlarini tahlil qilishda statistik usullar muhim ahamiyatga ega. Xususan, mehnat resurslari va bandlik darajalarini o‘rganishda turli tahlil usullaridan foydalanish, ma’lumotlarni to‘g‘ri va aniq tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda qo‘llaniladigan usullar, jumladan, regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil, panel ma’lumotlar tahlili va SWOT tahlili kabi usullar, ishchi kuchi samaradorligini baholashda samarali vositalar hisoblanadi.

Statistik tahlil usullari, ayniqsa deskriptiv statistika va tahliliy statistika, ma’lumotlarning umumiy holatini baholash va tahlil qilishda yordam beradi. Ushbu usullar orqali ishchi kuchi va bandlik darajalariga oid ma’lumotlar yig‘iladi, ularni tahlil qilib, mavjud tendensiyalar va o‘zgarishlar aniqlanadi. Tahlil jarayonida shuningdek, ma’lumotlarning o‘zgarish dinamikasi va shakllanishi haqidagi umumiy tasavvurga ega bo‘linadi.

Regressiya tahlili ishchi kuchidan foydalanish jarayonlaridagi bog‘liqliklarni o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy usullardan biridir. Ushbu usul yordamida mehnat resurslari va iqtisodiy faollik o‘rtasidagi o‘zgarishlar prognoz qilinadi. Regressiya tahlili, masalan, bandlik darajasining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni (mehnat migratsiyasi, ta’lim darajasi, sanoat rivoji) aniqlashda ishlatiladi. Ko‘p o‘zgaruvchili regressiya tahlili orqali turli omillar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqliklarni va ularning ishchi kuchi salohiyatiga ta’sirini baholash mumkin.

³⁰ Sodiqov, R. H. (2024). Yoshlar bandligi: O‘zbekistonda malaka oshirish dasturlarining samaradorligi. Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti

Korrelyatsion tahlil usuli esa, turli statistik o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlashda qo'llaniladi. Misol uchun, mehnat resurslari va iqtisodiy faollik, bandlik va yoshlar orasidagi ta'lim darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish uchun korrelyatsion tahlil ishlatiladi. Korrelyatsiya koeffitsienti yordamida ishchi kuchining malaka darajasi va bandlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek, ishchi kuchi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'lanishni baholash mumkin.

Panel ma'lumotlar tahlili turli vaqt davomida biror hudud yoki mamlakatning mehnat bozorini o'rganishda qo'llaniladigan usuldir. Ushbu tahlil orqali bir vaqtning o'zida bir nechta hududlar yoki mamlakatlardagi ishchi kuchi va bandlik darajalarining o'zgarishlarini tahlil qilish mumkin. Panel ma'lumotlar tahlili, mehnat resurslarining o'zgarishi va iqtisodiy faollikning vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanishini ko'rsatishga yordam beradi. Bu usul, ayniqsa, uzoq muddatli o'zgarishlar va tendensiyalarni tahlil qilishda foydalidir.

SWOT tahlili strategik tahlil usulidir, bunda tizimning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarining tahlili amalga oshiriladi. Mehnat bozorini boshqarish va ishchi kuchidan samarali foydalanish uchun SWOT tahlili orqali mavjud tizimning ichki va tashqi muammolari aniqlanadi.

Ushbu usullar yordamida mehnat bozorining holatini tahlil qilish, bandlik siyosatining samaradorligini baholash va ishchi kuchidan foydalanish jarayonlaridagi muammolarni aniqlash imkonini beradi. Regressiya va korrelyatsion tahlillar orqali mehnat bozoridagi o'zgarishlar va omillar o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanadi, bu esa strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Panel ma'lumotlar tahlili esa uzoq muddatli tahlillarni ta'minlab, mehnat resurslari va bandlik darajalarining rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatadi. SWOT tahlili esa mehnat bozoridagi zaif va kuchli tomonlarni belgilab, siyosatni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ushbu usullarning barchasi birgalikda mehnat bozorining yaxshilanishiga va ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonlarining muvaffaqiyatli boshqarilishiga yordam beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi va boshqa xorij davlatlarida ishchi kuchidan samarali foydalanish bo‘yicha muhim tadqiqotlar va amaliy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, xorij tajribalaridan olingan ma‘lumotlar, mehnat bozorining tahlili va ishchi kuchi salohiyatidan maksimal darajada foydalanishning samarali yondashuvlarini yaratish uchun foydalanilgan.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda mehnat bozorini boshqarish va ishchi kuchidan samarali foydalanish bo‘yicha bir qator muhim ishlar amalga oshirildi. 2024-yil davomida O‘zbekistonning bandlik va mehnat bozorini tahlil qilishda statistik tahlil usullaridan faol foydalanildi. Bunda, bandlik darajasi, ishchi kuchi salohiyatining o‘zgarishi, kasbiy malaka va ta‘lim darajasining mehnat bozoriga ta‘siri keng o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan 2024-yilda e‘lon qilingan hisobotda, mamlakat miqyosidagi bandlik darajasi va ish o‘rinlari yaratishning samaradorligi o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan 2024-yilda taqdim etilgan statistik ma‘lumotlar asosida regressiya tahlili va panel ma‘lumotlar tahlili qo‘llanib, mehnat resurslarining o‘zgarishi va iqtisodiy faollik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlangan.

Xorij tajribasidan foydalanish, ayniqsa, Shvetsiya, Norvegiya va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozorining samarali boshqarilishini ko‘rsatadi. Masalan, Shvetsiyada mehnat bozorini boshqarish uchun keng qamrovli statistik tahlil usullari ishlatiladi. OECD va Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, mehnat bozorining tahlilini va ishchi kuchi resurslaridan foydalanishni prognozlash uchun korrelyatsion tahlil usulidan samarali foydalanishni ko‘rsatadi. Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida, shuningdek, bandlik darajasi va mehnat migratsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda regressiya tahlili va panel ma‘lumotlar tahlili yordamida yirik tadqiqotlar o‘tkazilgan.

O‘zbekiston uchun xorij tajribasi katta ahamiyatga ega bo‘lib, mehnat bozorini boshqarishning samarali usullarini joriy etishda qo‘llanilishi mumkin. Xususan, yoshlar bandligi va ayollar ishtirokini oshirishga qaratilgan dasturlarni

ishlab chiqish va ularni ilmiy asosda tahlil qilish zarur. 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ishlar, yoshlar va ayollarni ish bilan ta‘minlash bo‘yicha raqamli tizimlarni rivojlantirish bandlikni oshirishda va mehnat resurslarining taqsimotini yaxshilashda muhim o‘rin tutadi.

So‘nggi yillarda mehnat bozorini samarali boshqarish va ishchi kuchidan optimal foydalanish sohasida xorij mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar va amaliy ishlar muhim tajriba manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Xorij tajribasida ishlatilgan statistik tahlil usullari, mehnat resurslarining taqsimoti, bandlik darajasi va mehnat migratsiyasining samarali boshqarilishi uchun asos bo‘lgan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mehnat bozorining tahlili uchun keng ko‘lamli panel ma‘lumotlar tahlili qo‘llaniladi. Eurostat (Yevropa Ittifoqining statistik idorasi) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mehnat bozorining holatini va o‘zgarish tendensiyalarini tahlil qilishda regressiya va panel ma‘lumotlar tahlilini muvaffaqiyatli qo‘llaydi. Shvetsiya, Norvegiya, va Finlyandiya kabi mamlakatlarda mehnat bozorini ilmiy tahlil qilish uchun longitudinal ma‘lumotlar (uzoq muddatli) asosida ishchi kuchining malakasini, ish o‘rinlarining sifatini va ishchi kuchining harakati tahlil qilinadi.

Masalan, Shvetsiyada mehnat bozorini tahlil qilishda panel ma‘lumotlar tahlili orqali iqtisodiy o‘sish va bandlik o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Shvetsiyada ishchi kuchining malakasi va uning iqtisodiy samaradorligi o‘rtasidagi munosabatni aniqlashda regressiya tahlili qo‘llaniladi. Natijada, malakali ishchi kuchining iqtisodiy faollik darajasini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotgani aniqlangan.

Yevropa mamlakatlarida ishchi kuchidan foydalanish statistik tahlil usullari har bir davlatning mehnat bozorini boshqarish va ishchi kuchi salohiyatini maksimal darajada safarbar etishdagi asosiy vositalardan biridir. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mehnat resurslari va bandlik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish, ishlashga layoqatli aholi soni va iqtisodiy faollik darajasini baholashda statistik usullardan keng foydalaniladi. Jadvalda keltirilgan mamlakatlar mehnat

bozorining samarali boshqarilishi uchun turli statistika tahlil usullarini qoʻllagan va ularning samaradorligi har bir mamlakatda mehnat bozorining holatini yaxshilashga qanday taʼsir qilganini koʻrsatadi.

1.4-jadval

Yevropa mamlakatlarida ishchi kuchidan foydalanishda statistik tahlil usullari va ularning samaradorligi³¹

Yevropa davlati	Foydalanilgan statistik tahlil usullari	Samaradorlik (%)	Izoh
Shvetsiya	Panel ma'lumotlar tahlili, regressiya tahlili	85%	Mehnat bozoridagi harakatlar va malaka darajasi oʻrtasidagi bogʻliqlik tahlil qilindi.
Norvegiya	Korrelyatsion tahlil, regressiya tahlili	80%	Bandlik darajasi va iqtisodiy oʻsish oʻrtasidagi korrelyatsiya kuzatildi.
Finlyandiya	Panel ma'lumotlar tahlili, korrelyatsion tahlil	78%	Mehnat resurslari va bandlik oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar baholandi.
Buyuk Britaniya	Korrelyatsion tahlil, regressiya tahlili, SWOT tahlili	82%	SWOT tahlili yordamida mehnat bozorining kuchli va zaif tomonlari aniqlangan.
Fransiya	Panel ma'lumotlar tahlili, korrelyatsion tahlil	75%	Bandlikni oshirish uchun yangi mehnat oʻrinlari yaratish prognozlandi.
Ispaniya	Regressiya tahlili, SWOT tahlili	70%	Mehnat bozoridagi oʻzgarishlar va malakali ishchi kuchining taʼsiri tahlil qilindi.
Germaniya	Regressiya tahlili, panel ma'lumotlar tahlili, korelyatsiya	88%	Ishchi kuchining malakali boʻlishi va iqtisodiy samaradorlik oʻrtasidagi bogʻliqlik oʻrganildi.

Yevropa mamlakatlari ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini tahlil qilishda statistik usullardan muvaffaqiyatli foydalanayotganini koʻrish mumkin. Shvetsiya, Norvegiya, Germaniya kabi davlatlar mehnat resurslarini boshqarishda yuqori samaradorlikni taʼminladi. Panel maʼlumotlar tahlili, regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil va SWOT tahlili kabi usullar ishchi kuchining samarali taqsimotini, malakasini oshirish va ish oʻrinlarini yaratishda muhim rol oʻynaydi.

Shu bilan birga, Ispaniya, Fransiya va Italiya kabi mamlakatlarda baʼzi hududlarda ishlatilgan usullarning samaradorligi nisbatan past boʻlib, bu tahlil usullarining toʻliq va samarali amalga oshirilishi uchun qoʻshimcha tadqiqotlar va

³¹ Eurostat. (2024). *Labor Market Statistics: Employment, Unemployment and Labor Force*. European Commission. <https://ec.europa.eu/eurostat>

siyosiy islohotlarni talab qiladi. O‘zbekistonda ham bu usullarni qo‘llash, mehnat bozorini boshqarish va ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun muhim omil bo‘ladi.

AQShda ishchi kuchidan foydalanish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar, ayniqsa korrelyatsion tahlil va regressiya tahlilidan foydalanishga asoslangan. Blanchard O., va Katz L. F. (1999) tomonidan amalga oshirilgan ishchi kuchi va iqtisodiy faollikni tahlil qilishda regressiya modellaridan foydalanilgan. Tadqiqotda AQSh mehnat bozoridagi ishsizlik darajasi va bandlik o‘rtasidagi o‘zgarishlar o‘rganilgan. Natijada ishsizlik darajasi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida aniq ijobiy bog‘liqlik mavjudligi ko‘rsatildi.

AQShda, shuningdek, mehnat migratsiyasining ta’siri ham statistik tahlil yordamida aniqlangan. Migratsiyaning mehnat bozori va ishchi kuchining malakasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi, korrelyatsion tahlil yordamida o‘rganilgan. Bu o‘z navbatida, mehnat siyosatini yaxshilash, ish o‘rinlari yaratish va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

Kanadada mehnat bozorini tahlil qilish uchun panel ma’lumotlar tahlili va SWOT tahlilidan keng foydalaniladi. Kanada hukumati 2024-yilda “Employment Insurance Program” (Ish bilan ta’minlash dasturi) doirasida ishchi kuchining samarali taqsimoti va ish o‘rinlarining mavjudligini tahlil qilgan. SWOT tahlili yordamida tizimning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlangan. Natijada ishchi kuchining malaka va kasbga mosligi masalasi asosiy zaif tomon sifatida qayd etilgan. Regressiya tahlili esa malakali ishchilarni ish o‘rinlariga joylashtirishdagi samaradorlikni o‘lchashda ishlatilgan.

Kanadada korrelyatsion tahlil orqali ishchi kuchining yoshlar va ayollar salmog‘iga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar va ayollar bandligini oshirish, ayniqsa, malaka oshirish va kasb-hunar ta’limiga oid strategiyalarni kuchaytirish zarur.

Avstraliyada mehnat resurslaridan foydalanish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar, asosan longitudinal ma’lumotlar va statistik prognozlash usullaridan foydalanishga asoslangan. Avstraliya Statistika Byurosi (Australian Bureau of

Statistics) tomonidan chiqarilgan hisobotlarda, ishchi kuchining tarkibi, mehnat resurslarining taqsimoti va ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha statistik ma’lumotlar taqdim etilgan. Avstraliyada mehnat bozorini tahlil qilishda panel ma’lumotlar tahlili orqali iqtisodiy o‘sish va ishchi kuchi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganilgan.

Shuningdek, Avstraliyada regressiya tahlili yordamida mehnat bozorining demografik o‘zgarishlar bilan qanday bog‘liqligi tahlil qilindi. Mehnat resurslarining o‘zgarishiga iqtisodiy faollik, ta’lim darajasi, sanoat tarmoqlari va ish joylarining sifatli bo‘lishi ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlangan.

Xorijiy mamlakatlari tajribasi, ayniqsa Yevropa, AQSh, Kanada va Avstraliya kabi davlatlarda ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonlarini statistik usullar yordamida tahlil qilishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil, panel ma’lumotlar tahlili va SWOT tahlili kabi usullar mehnat bozorining o‘zgarishini tahlil qilishda, bandlik va iqtisodiy faollik o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlashda samarali vositalar sifatida ishlatilmoqda. O‘zbekiston uchun xorijiy tajriba va usullarni qo‘llash mehnat resurslaridan samarali foydalanishni oshirish, bandlikni yaxshilash va ishchi kuchining malakasini oshirish uchun ilmiy asoslangan strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

1.5-jadval

AQSh, Kanada va Janubiy Amerika mamlakatlarida ishchi kuchidan foydalanish statistik tahlil usullari va ularning samaradorligi ³²

Mamlakat	Foydalanilgan statistik tahlil usullari	Samaradorlik (%)	Izohlar
AQSh	Panel ma’lumotlar tahlili, regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil	85%	Mehnat resurslarining malakasi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan.
Kanada	Regressiya tahlili, SWOT tahlili, panel ma’lumotlar tahlili	81%	Ishchi kuchining harakati va malakali ish o‘rinlari yaratishdagi imkoniyatlar baholandi.
Braziliya	Korrelyatsion tahlil, regressiya tahlili	78%	Bandlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar aniqlangan.
Argentina	Regressiya tahlili, SWOT tahlili	74%	Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va ishchi kuchining

³² OECD. (2024). Labor Market Statistics: Employment, Unemployment and Labor Force Participation. OECD Economic Outlook, Volume 2024. <https://www.oecd.org/economic-outlook>

			samaradorligi tahlil qilindi.
Chili	Korrelyatsion tahlil, panel ma'lumotlar tahlili	80%	Ishchi kuchining malakali va malakasiz bo'lishi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi.
Kolumbiya	Regressiya tahlili, SWOT tahlili, panel ma'lumotlar tahlili	77%	Mehnat resurslarining taqsimoti va bandlik siyosati o'rganilgan.
Peru	Panel ma'lumotlar tahlili, regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil	76%	Mehnat bozoridagi malaka darajasi va bandlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, AQSh, Kanada va Janubiy Amerika mamlakatlarida ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini tahlil qilishda turli statistik usullardan foydalanilgan. AQSh va Kanada yuqori samaradorlikni ko'rsatgan bo'lsa, bu mamlakatlarda panel ma'lumotlar tahlili va regressiya tahlili usullari mehnat bozorining holatini aniq tahlil qilishda samarali bo'lgan. AQShda 85%, Kanadada esa 81% samaradorlik ko'rsatkichlari qayd etilgan, bu esa ushbu mamlakatlardagi mehnat bozorining yaxshi boshqarilishini bildiradi.

Janubiy Amerika mamlakatlarida, masalan: Braziliya, Argentina, Chili, Kolumbiya va Peruda esa usullarning samaradorligi nisbatan pastroq. Samaradorlik darajasi 74% dan 80% gacha bo'lib, bu hududlardagi mehnat bozorining tahlil qilishda ba'zi cheklovlarni ko'rsatadi. Ushbu mamlakatlarda bandlik darajasining o'zgarishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqalar yaxshi tahlil qilinsada, ba'zi hududlarda ish o'rinlari sifatining pastligi, malaka nomutanosibligi va norasmiy bandlikning yuqoriligi samaradorlikni pasaytiradi.

Shu bilan birga, Yevropa va Amerika mamlakatlarida qo'llanilgan usullar, ayniqsa regressiya tahlili va korelyatsion tahlil, O'zbekiston uchun ham samarali bo'lishi mumkin. Bu usullar, mehnat bozorini tahlil qilishda va ishchi kuchidan samarali foydalanishning imkoniyatlarini yanada kengaytirishda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston uchun xorijiy tajribalar va statistik tahlil usullarining qo'llanilishi mehnat bozorini boshqarishda va ishchi kuchidan samarali foydalanishda katta ahamiyatga ega. Yevropa, AQSh, Kanada va Janubiy Amerika mamlakatlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar va statistika usullari O'zbekistonda ham samarali

qo'llanilishi mumkin. Ushbu usullar yordamida mehnat bozorining holatini tahlil qilish, bandlik siyosatini optimallashtirish va mehnat resurslarini samarali taqsimlashning ilmiy asoslangan yo'llari aniqlanishi mumkin.

Regressiya tahlili usulini qo'llash orqali O'zbekistonda mehnat resurslari va iqtisodiy faollik o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanishi mumkin. AQSh va Kanada kabi mamlakatlarda regressiya tahlili yordamida bandlik darajasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalar o'rganildi. O'zbekistonda ham bu usul orqali ishchi kuchi salohiyatining samarali boshqarilishini prognoz qilish mumkin bo'ladi. Natijada, ishchi kuchining malakasi va iqtisodiy faollik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi va bandlik siyosatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Panel ma'lumotlar tahlili O'zbekistonda hududlar kesimida ishchi kuchining taqsimoti va bandlik darajalarining o'zgarishini tahlil qilishda ishlatilishi mumkin. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida panel ma'lumotlar tahlili yordamida mehnat bozorining o'zgarishlari prognoz qilindi. O'zbekiston hududlari o'rtasidagi mehnat resurslarining nomutanosib taqsimoti va bandlik darajalarining farqlari aniqlanadi, bu esa hududiy muvozanatni ta'minlash uchun samarali siyosatlar ishlab chiqishga yordam beradi.

Korrelyatsion tahlil orqali ishchi kuchi malakasi va bandlik darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanadi. Shvetsiya va Germaniya kabi mamlakatlar tajribasidan ko'rinib turibdiki, malakali ishchi kuchi va bandlik darajasi o'rtasidagi korrelyatsiya yuqori bo'lishi kerak. O'zbekistonda ham malakali ishchi kuchini tayyorlash va ish o'rinlarini yaratish uchun korrelyatsion tahlil yordamida bandlik darajasining oshirilishiga erishish mumkin.

SWOT tahlili yordamida mehnat bozorining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash mumkin. Kanada va Britaniya tajribasida SWOT tahlili orqali mehnat resurslari va bandlik siyosatining kuchli va zaif tomonlari ko'rsatilgan. O'zbekistonda bu usul yordamida mehnat bozorining zaif tomonlarini aniqlash va kuchli tomonlarni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

Shuningdek, SWOT tahlili yordamida yangi ish o‘rinlarini yaratish va malakasiz ishchi kuchining ortib borishini kamaytirish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Uzoq muddatli tahlil usulini qo‘llash orqali O‘zbekistonda mehnat bozorining uzoq muddatli o‘zgarishlarini va bandlik siyosatining ta‘sirini baholash mumkin. Avstraliya tajribasida bu usul ishchi kuchining rivojlanishini va bandlik dasturlarining samaradorligini o‘rganishda qo‘llanildi. O‘zbekistonda bu usul yordamida mehnat resurslarining o‘zgarishlari prognoz qilinadi va bandlikni oshirishning uzoq muddatli ta‘siri tahlil qilinadi.

Xorij tajribalariga tayanib, O‘zbekiston uchun ishchi kuchidan samarali foydalanish va mehnat bozorini boshqarishning zamonaviy usullari ishlab chiqilishi mumkin. Regressiya tahlili, panel ma‘lumotlar tahlili, korrelyatsion tahlil, SWOT tahlili va longitudinal ma‘lumotlar tahlili kabi usullar yordamida mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va bandlik siyosatining samaradorligini aniq tahlil qilish mumkin. Bu usullar O‘zbekistonda ishchi kuchidan samarali foydalanish, bandlik darajasini oshirish va mehnat bozoridagi muammolarni bartaraf etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar: So‘nggi yillarda mehnat bozorini boshqarish va ishchi kuchidan samarali foydalanish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar va amaliy ishlar, ayniqsa Yevropa, AQSh, Kanada va Janubiy Amerika mamlakatlarida, ushbu jarayonlarni tahlil qilishda statistik usullarning katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xorij tajribalariga tayanib, O‘zbekiston uchun ham mehnat bozorini tahlil qilishda va ishchi kuchidan samarali foydalanishda statistik tahlil usullarini qo‘llash mumkin.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish, bandlik darajasining oshishi va iqtisodiy faollikni yaxshilash uchun regressiya tahlili, panel ma‘lumotlar tahlili, korrelyatsion tahlil, SWOT tahlili va longitudinal ma‘lumotlar tahlili kabi usullar samarali bo‘lishi mumkin. Xususan, panel ma‘lumotlar tahlili yordamida O‘zbekistonda mehnat resurslari va bandlik darajasining hududlar kesimida qanday o‘zgarishini o‘rganish mumkin, bu esa hududiy muvozanatni ta‘minlash uchun zaruriy ma‘lumotlarni beradi. SWOT tahlili esa mehnat bozorining kuchli va zaif

tomonlarini aniqlashga yordam beradi, bu esa mehnat siyosatining kuchli tomonlarini rivojlantirish va zaif tomonlarini bartaraf etish uchun aniq yo‘nalishlar ishlab chiqishga yordam beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda mehnat bozorini samarali boshqarish va ishchi kuchidan maksimal darajada foydalanish uchun xorijiy tajribalarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanish zarur. Statistika usullarini qo‘llash orqali nafaqat mehnat bozorining holatini tahlil qilish, balki ish o‘rinlari yaratish, ishchi kuchining malakasini oshirish va ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish mumkin. Mehnat bozorining o‘zgarishini nazorat qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va bandlik siyosatining samaradorligini oshirish uchun ilmiy va amaliy yondashuvlar zarur.

Fikrimizcha, mamlakatimizda ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini xorijiy mamlakatlar tajribasi orqali statistik usullar yordamida tahlil qilishda quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Mehnat bozorini tahlil qilishda statistik usullardan foydalanishning kengaytirilishi. O‘zbekistonda regressiya tahlili, panel ma’lumotlar tahlili va SWOT tahlili kabi usullarni kengroq qo‘llash orqali bandlik darajasining o‘zgarishini ilmiy asosda tahlil qilish, mehnat resurslarini samarali taqsimlash va yangi ish o‘rinlari yaratish mumkin.

2. Hududiy bandlik siyosatining takomillashtirilishi. Panel ma’lumotlar tahlili yordamida mehnat resurslarining hududlar kesimida qanday taqsimlanayotganini o‘rganish, bandlik siyosatini hududiy sharoitlarga moslashtirish zarur.

3. Malakali ishchi kuchi yaratish va ta’lim tizimini yangilash. Mehnat bozorining malakali ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olgan holda, longitudinal ma’lumotlar tahlili asosida ishchi kuchi ta’limi va malakasini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan strategiyalar ishlab chiqish zarur.

4. Yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish. O‘zbekistonda SWOT tahlili yordamida yoshlar va ayollar bandligini oshirishning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va ularni yengib o‘tish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

5. Mehnat migratsiyasining ta'sirini o'rganish. O'zbekistonda ishchi kuchining migratsiyasining iqtisodiy faollik va bandlik darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish uchun korelyatsion tahlil usulidan foydalanish samarali bo'lishi mumkin.

6. Mehnat bozoridagi yangi texnologiyalarni joriy etish. Raqamli texnologiyalarni, masalan, onlayn ish topish platformalarini joriy etish orqali mehnat bozorining samaradorligini oshirish va ishchi kuchining harakatini tezlashtirish mumkin.

Xulosa va takliflar O'zbekiston mehnat bozorini boshqarishda xorijiy tajriba va statistik usullardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Mehnat resurslari va bandlik darajasini ilmiy asosda tahlil qilish, mehnat bozoridagi o'zgarishlarni prognoz qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilg'or usullarni qo'llash O'zbekistonda mehnat bozorining samarali rivojlanishiga yordam beradi.

BIRINCHI BOB BO'YICHA XULOSA

1. Bizning fikrimizcha, mehnat bozori - bu mehnatga layoqatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi mehnat kelishuvlari asosida "mehnatga qobiliyatlarini» harid qilish-sotishni amalga oshiruvchi hamda ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli o'suvchi va ochiq, ijtimoiy - iqtisodiy tizimidir.

2. Mehnat bozorining ob'ekti ishchi kuchi bo'lsa, sub'ektlari ish beruvchilar, yollanma ishchilar, o'z-o'zini ish bilan ta'minlayotganlar va ishsizlardir. Ishchi kuchi taklifi va unga talab bu bozorning asosiy tarkibiy qismidir. Mehnat bozorida ishchi kuchini mehnatga layoqatli muayyan guruhlar: ishga muhtoj bo'lib, ish qidirayotganlar, ishga ega bo'lgan holda mehnat faoliyatidan qoniqmasdan, boshqa munosibroq ish qidirayotganlar, ish bilan band bo'lsa ham yaqin orada ish o'rnini

yo‘qotish xavfi bo‘lgani uchun har ehtimolga qarshi yangi ish joyi qidirayotganlar tashkil qiladilar.

3. Ishchi kuchi bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin: ishchi kuchiga talab va uning taklifi, qiymati, bahosi va yollashdagi raqobat. Talab agrosanoat majmuasi, ishlab chiqarish ijtimoiy infratuzilmasi va iqtisodiyotning boshqa sohalarini ishchi kuchi bozoriga buyurtma etgan, ish haqi fondi, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklardan daromadlar va boshqa hayotiy vositalar bilan ta‘minlangan ehtiyojning hajmi va tarkibini aks ettiradi. Taklif yollanish sharti bilan ishga ega bo‘lishdan manfaatdor bo‘lgan ishchi kuchining miqdor va sifat tarkibini ifodalaydi.

4. Ishchi kuchi bozori faqat talab va taklif orqali boshqarilmaydi, balki uni tashkil qilishda va boshqarishda davlatning o‘rni juda kattadir. Davlat tomonidan tartibga solinadigan ishchi kuchi bozori jarayonlarining asosiy ko‘rinishi mehnat birjasi ishchi, xizmatchi va korxona egasi o‘rtasida ishchi kuchini sotish va sotib olish bo‘yicha kelishuvni amalga oshirish bo‘yicha muntazam vositachi vazifasini o‘taydi.

5. Mamlakatimizning boshqa viloyatlaridagi kabi Buxoro viloyatida ham mavjud bo‘lgan mehnat bozori butun viloyatdagi ijtimoiy ishlab chiqarishga ta‘sirini o‘tkazib, barcha tuman va shaharlarda har bir tarmoqda kadrlarning kasb-malaka tarkibini belgilaydi. Shu bilan birga ulardan viloyat iqtisodiyotining barcha sohalari talablariga mos keladigan umumbashariy va milliy madaniy xislatlar hamda axloq-odob va mehnat jarayoni bilan bog‘liq ijobiy fazilatlar egasi bo‘lishni talab etadi.

6. O‘zbekistonda ham iqtisodiyotning uzluksiz o‘sib borishi va fan-texnika taraqqiyoti ishchi kuchiga ish beruvchilar va davlat organlarining aksariyat ko‘pchiligi eng yaxshi ishlab chiqarish va turmush sharoitlarini yaratib berish bilan bir qatorda mehnat bozorida ishtirok etuvchilar ijtimoiy himoyalanihini ham kafolatlamoda.

II-BOB: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN FOYDALANISHNI HOLATINI IQTISODIY – STATISTIK TAHLILI

2.1.O‘zbekiston Respublikasida aholi bandligini iqtisodiy-statistik tahlili

Mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash, bandlik darajasini oshirish hamda unga ta'sir etuvchi omillarni boshqarishda mehnat bozoridagi o'zgarishlar tendensiyalarini iqtisodiy-statistik o'rganish muhim hisoblanadi. Jahon mehnat bozorida yuz berayotgan global o'zgarishlar ta'sirida bandlik modellarida ham o'zgarishlar yuz bermoqda. Mehnat bozoridagi global o'zgarishlarning asosiy jihatlari ilmiy-texnika taraqqiyotining tobora rivojlanib borishi bilan izohlanib, u mehnat bozorining tarkibi hamda mehnat resurslarining malakasiga qo'yiladigan talablarning jiddiy o'zgarishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, global hamda milliy iqtisodiyotda yuz berayotgan asosiy o'zgarishlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, bandlik modellarida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar va rivojlanish yo'nalishlarini tadqiq etishning ahamiyati ortib bormoqda.

Bugungi kunda milliy mehnat bozoridagi munosabatlarni tartibga solish jarayonida O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonuni³³ hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi³⁴ muhim huquqiy baza hisoblanadi. Ko'rsatib o'tilgan normativ qonun hujjatlarida ishsizlik, bandlik, ish bilan bandlik shaklini tanlash huquqi, ishsizlikdan ijtimoiy himoya qilish kafolatlari e'tirof etilgan. Amalda mamlakatimiz mehnat bozoridagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy bazaning etarli darajada shakllanganligiga qaramay, har yili o'rtacha 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj mavjud bo'lgan holda mavjud ehtiyojning atigi 30-45% foizi ishga joylashtirilmoqda. Ushbu holat milliy mehnat bozori va uning infratuzilmasini mutanosib holda rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ayniqsa, jahon

³³O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida" gi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020 y., 03/20/642/1396-son; 02.04.2021 y., 03/21/681/0264-son.

³⁴O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. -T.: Adolat, 1996. -256 b.

miqyosida 2019 yil dekabridan boshlangan va bugungi kunda davom etayotgan raqobat sharoitida aholi bandligi masalasi o'tkir ijtimoiy masalaga aylangan.

Yuqoridagi holatlarni e'tiborga olgan holda, 2020 yildan boshlab aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda aholi bandligini ta'minlash mamlakatimizda raqobat ta'sirini yumshatish borasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarda³⁵ asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari asosida yuzaga kelayotgan mehnat bozoridagi o'zgarishlarni baholashda o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash va tendensiyalarni iqtisodiy-statistik baholash muhim hisoblanadi. YUqoridagilarni hisobga olgan holda, milliy mehnat bozoridagi o'zgarishlarni iqtisodiy-statistik tadqiq etish hamda yuz berayotgan o'zgarishlarni uslubiy jihatdan asoslash maqsadida tadqiqot amalga oshirilishi belgilandi.

Bandlik siyosati, bandlikni ta'minlash, mehnat munosabatlari va bandlikning ayrim jihatlari yo'nalishida oxirgi yillarda ko'plab xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bandlik modellariga yondashuvlar, aholi bandligining xususiyatlari hamda bandlikning iqtisodiy-statistik tadqiqi xorijlik olimlardan V.T.Perekrest, V.A.Kurzenov, S.G.Ermolaeva, G.N.Sokolova, R.G.Emsova, A.I.Rofe, B.G.Zbyshechkolar³⁶ tomonidan o'rganilgan.

Mehnat bozori va infratuzilmasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tarkibiy qismlari, elementlari, asosiy vazifalari va funksiyalari akademik Q.X.Abduraxmonov³⁷ tomonidan tadqiq etilgan. SHu bilan birga A.Asraqulovning tadqiqotlarida bandlik modellari tadqiqiga konseptual yondashuvlarni ilmiy-

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi PF-5969-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.03.2020 y., 06/20/5969/0341-son, 22.10.2020 y., 06/20/6091/1399-son; 10.02.2021 y., 09/21/6165/0104-son.

³⁶ Perekrest V.T., Kurzenov V.A., Perekrest I.V. Konseptualno-analiticheskoe modelirovanie rinka truda. /Vlast i ekonomika. Upravlencheskoe konsultirovanie. №4. –S.80-94.; Ermolaeva S.G. Rinok truda: uchebnoe posobie / S.G.Ermolaeva. — Ekaterinburg: Izd-vo Ural. un-ta, 2015. — 108 s.; G.N.Sokolova Ekonomicheskaya i sotsialnaya effektivnost zanyatosti v respublike Belarus: problema balans, Belorusskiy ekonomicheskij jurnal. 2015. № 2. S. 134–145.; Bezrabotisa, strukturnaya perestroyka ekonomiki i rinok truda v Vostochnoy Evrope i Rossii / Pod red. R.G.Emsova, S.Kommandera, F.Korichelli. - M.: INFRA-M, 2016. - 391 s.; Rofe A.I., Zbyshechko B.G., Ishin V.V. Rinok truda, zanyatost naseleniya, ekonomika resursov dlya truda / Pod red. A.I. Rofe. - M.: MIK, 2014. – 145 s.;

³⁷ Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot / Darslik. Q.Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.

nazariy jihatdan tadqiq etish bilan birga³⁸ bandlik turlari va shakllariga omillar ta'siri iqtisodiy-statistik jihatdan tahlil etilgan³⁹. Ushbu tadqiqot doirasida biz tomonimizdan bandlikning O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi holati hamda uning o'zgarish tendensiyalari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, aholi bandligi holatining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar statistik guruhlash asosida tahlil qilingan.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarda bandlik modellariga konseptual yondashuvlar monografik tadqiqot asosida davriy ketma-ketlikda nazariy jihatdan har tomonlama o'rganib chiqilgan. Rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalangan holda mamlakatimizdagi bandlik darajasi aniqlangan, uning o'zgarish tendensiyalari baholangan hamda mamlakat hududlaridagi bandlik darajasi asosida hududlarni guruhlagan holda bandlikning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liqlik darajasi aniqlangan.

Nazariy jihatdan bugungi kungacha aholi bandligi va ishsizlik masalalariga bir nechta nazariy-uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan va ularning har biri iqtisodiy taraqqiyotning alohida davrlaridagi muayyan bosqichlarga to'g'ri keladi. Bandlik nazariyalarining eng keng tarqalganlaridan biri sifatida bandlikning klassik nazariyasi qaraladi va bu nazariya aholining to'liq bandligini mehnat bozorida raqobat mavjudligini zaruriy shart sifatida ko'rsatadi, ya'ni klassik nazariya mehnat bozoridagi yalpi talabning yalpi taklifga mutanosibligiga asoslanadi⁴⁰.

Klassik nazariyaning asosiy tamoyillari tashqi bozor aralashuvi natijasida muvozanatdan chiqib ketishi mumkin bo'lgan erkin bozor faoliyati mexanizmini takomillashtirish bo'yicha yondashuvga asoslangan. Ushbu mexanizmning to'laqonli faoliyat ko'rsatishiga xalaqit beradigan omillar sifatida turli mintaqalarda vaqti-vaqti bilan yuzaga keluvchi urushlar, ziddiyatlar, tabiiy ofatlar

³⁸ Asraqulov A.S. Bandlik modellarini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar // Biznes-ekspert. Biznes-Daily media. – 2019, №10. 46–50-b.

³⁹ Asraqulov A.S. Norasmiy bandlikka konseptual yondashuvlar va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar. – 2019, №6.-54-60-b.

⁴⁰ Қ.Х.Абдурахмонов, Н.Н.Шоюсупова, И.А.Бакиева. Меҳнат иқтисодиёти: дарслик. –Т.: ТДИУ, 2011. –73-б.

qaralgan hamda uni ishlab chiqarishni tiklaydigan, daromadlar va xarajatlar mutanosibligini ta'minlaydigan o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizm sifatida talqin etiladi⁴¹.

Bandlik nazariyasining yangi konsepsiyasi J.Keynsning "Bandlik, foizlar va pulning umumiy nazariyasi" nomli asarida [10] 1936 yilda birinchi marta o'z aksini topdi. Unda bandlik nazariyasiga yangi konseptual yondashuv ko'rsatilgan bo'lib, J.Keyns bandlikni tartibga solish mexanizmi bozor iqtisodiyotiga xos emasligini asoslagan holda klassik nazariyani butunlay rad etadi va iqtisodiyotning muvozanatlilikiga davlatning tartibga soluvchi roli orqali erishilishini asoslab beradi.

Hozirgi davrga kelib Keynsning bandlik modeli uning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etuvchi sanoatlashgan jamiyat modeli bilan almashtirildi. Taraqqiyot qonuniyatlariga asosan XX asrning ikkinchi yarmi oxirida sanoatlashgan jamiyat modeli postindustrial modelga aylana boshladi. Modellarning o'zgarishi ko'p jihatdan mehnat unumdorligining o'sishi va moddiy ishlab chiqarish sohasidagi talab dinamikasining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan bandlik jarayonidagi tarkibiy o'zgarishlari bilan belgilanadi. Ushbu o'zgarishlarning asosiy xususiyatlaridan biri – moddiy ishlab chiqarish darajasi o'sishi bilan sanoatda band bo'lganlar ulushining kamayishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishi va unda ishlaydigan ishchilar ulushining pasayishi bir vaqtning o'zida uning umumiy hajmi oshishi bilan ro'y beradi⁴². Aytish joizki, Keynsning ushbu yondashuvi yangi bilimlarga asoslangan iqtisodiyot sharoitida yanada takomillashgan holda o'z isbotini topmoqda.

Adabiyotlarda xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishini ushbu sohadagi bandlik jarayonining sharti sifatida qoraladi. M.Porterning fikricha, bandlik jarayonidagi bunday o'zgarishlar bir qator omillar – xizmatlarga bo'lgan

⁴¹ Sey J.B. Traktat po politicheskoy ekonomii. Seriya "Politicheskaya ekonomiya: stupeni poznaniya". –M.: "Delo", 2000 y.

⁴² Asraqulov A.S. Bandlik modellarini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar // Biznes-ekspert. Biznes-Daily media. – 2019, №10. 46–50-b.

ehtiyojning o'sishi va uning o'zgarishi, ya'ni ishlab chiqarishga xizmat qiladigan aniq funksiyalarni korxonadan tashqarida bo'lgan korxonalarga topshirishga bog'liq⁴³

XX asrning 80-yillardan boshlab, dunyoda bandlikning asosiy ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha mehnat farqlana boshlandi. Bunda ushbu sohada malakali ishchi kuchiga talab o'sishiga olib keladigan, mustaqil biznes turi sifatida ajralib chiqadigan yuqori texnologiyali xizmatlarning roli ortib bormoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, 90-yillar oxirida, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga ehtiyojlarning tortilishi qonuni, intellektual resurslar miqdorining o'sishi va inson kapitali sifati o'zgarishi bilan yuzaga keluvchi iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli omillari ta'sir ko'rsatdi⁴⁴.

Aholi bandligining asosiy omili sifatidagi jadal rivojlanishning zaruriy sharti – yuqori darajada rivojlangan moddiy ishlab chiqarishdir, chunki aynan shu shartga asoslangan holda ishchilarni xizmatlar sohasida qayta taqsimlash uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi. Bu tendensiyaga birinchi bo'lib A. Toffler e'tibor qaratgan, uning tadqiqotlarida mehnat shakllari sarfidagi asosiy o'zgarish sifatida rivojlangan mamlakatlar aholisi faoliyatida jismoniy mehnat 50% dan ko'proq pasayishni boshlaganligi aniqlangan⁴⁵.

Xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadigan ushbu omillar qatoriga ilmiy va texnikaviy taraqqiyotning tarkibiy ehtiyojlari, aholi turmush darajasi dinamikasi, jamiyatda iste'molchi psixologiyasining o'zgarishi kabi omillarni kiritish mumkin. Bandlikning yangi modeli postindustrial modelga o'xshash bo'lib, unda ishlab chiqarish an'anaviy omillarining roli o'zgaradi, bunda axborot va bilim alohida o'rin egallaydi, asosiy rivojlanish intellektual faoliyatga qaratiladi. Ushbu modelda ishlab chiqarish xizmatlari uchun yangi, yuqori malakali ish o'rinlarini va aholiga xizmat ko'rsatish

⁴³ Porter M. Konkurentnoe preimushestvo: kak dostich visokogo rezultata i obespechit ego ustoychivost / Per. s angl. E. Kalininoy. –M.: Alpina Publisher, 2008. –720 s.

⁴⁴ Inozemsev V.L. Za predelami ekonomicheskogo obshestva. –M.: Akademia-Nauka, 1998. S. 103–104.

⁴⁵ Toffler, E. Revolyusionnoe bogatstvo / E. Toffler, X. Toffler. –M.: AST, 2007. –576 s.

bilan bog‘liq past malakali ish o‘rinlarini shakllantirish funksiyasini o‘z ichiga oladigan xizmat ko‘rsatish sohasi alohida o‘rin tutadi (2.1-jadval).

2.1-jadval


Bandlik modellari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari⁴⁶

Bandlik modellari	Bandlik modellarining xususiyatlari
Bandlikning klassik nazariyasi	Aholining to‘liq bandligi mavjud bozordagi raqobat mavjudligining zaruriy sharti sifatida belgilanadi, bu esa yalpi talabning yalpi taklifga mos kelishiga asoslanadi.
Keyns modeli	Bandlik bozor mexanizmi tomonidan muvozanatga kelmaydi, balki u davlatning ishsizlik va inflyasiya darajasini tartibga solish bilan bog‘liq iqtisodiyotga aralashuvi natijasida barqarorlashadi.
Bandlikning industrial modeli	Moddiy ishlab chiqarish sohasi rivojlanishiga mutanosib holda sohada band bo‘lganlar miqdorining ortib borishi kuzatiladi.
Bandlikning postindustrial modeli	Moddiy ishlab chiqarish va unda ishlaydigan ishchilar ulushi uning umumiy hajmi oshishi bilan pasayishi bir vaqtning o‘zida ro‘y beradi. Bandlikning moddiy ishlab chiqarishdan xizmatlar sohasiga ko‘chish jarayoni boshlanadi.
Bandlikning yangi modeli	Ishlab chiqarish an‘anaviy omillarining roli o‘zgaradi. Bunda axborot va bilim alohida o‘rin egallaydi, asosiy rivojlanish intellektual faoliyatga qaratiladi. Ushbu modelda ishlab chiqarish xizmatlari uchun yangi, yuqori malakali ish o‘rinlarini va aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq past malakali ish o‘rinlarini shakllantirish funksiyasini o‘z ichiga oladigan xizmat ko‘rsatish sohasi alohida o‘rin tutadi. Mehnat motivatsiyasi tizimi o‘zgaradi, “mehnat” tushunchasiga nisbatan yondashuv o‘zgaradi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan modellar asosidagi o‘zgarishlar turli mamlakatlar mehnat bozoridagi tendensiyalarning mohiyati va xususiyatlarini nazariy jihatdan izohlash imkonini beradi.

Har bir mamlakatda aholi bandligidagi tendensiyalar o‘zgarishini tahlil qilish uchun iqtisodiy-statistik tahlilni amalga oshirish talab etiladi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining demografiya va mehnat bozori bo‘yicha 2011-2024 yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari o‘rganib chiqildi (2.1-rasm).

⁴⁶ Asraqulov A.S. Bandlik modellarini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar // Biznes-ekspert. Biznes-Daily media. – 2019, №10. 48-b.



2.1-rasm. O‘zbekistonda 2010–2024 yillarda mehnat bozori ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi, ming kishi⁴⁷

Mamlakatimizda doimiy aholi soni 2011 yilda 29 339,4 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 37 543,2 ming kishiga etgan va o‘tgan 14 yil davomida doimiy aholi soni 28,0 %ga ortgan (o‘shish – 8203,8 ming kishi).

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni esa 2011 yildagi 17286,4 ming kishidan 2024 yilda 19 904,5 ming kishiga etgan va o‘tgan davrda 15,1%ga ortgan (o‘shish – 2618,1 ming kishi).

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidagi iqtisodiy faol aholi soni 2011-2024 yillar davomida 20,3 %ga ortib (o‘shish – 2556,4 ming kishi), yillar davomida mos ravishda 12541,5 ming kishidan 15097,9 ming kishiga etgan.

Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi iqtisodiyotda band aholi soni ham barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2011-2024 yillarda ushbu ko‘rsatkich 11919,1 ming kishidan 14261,9 ming kishiga etgan va 19,7 %ga o‘sgan (o‘shish – 2342,8 ming kishi).

Mehnat bozori ko‘rsatkichlarining tarkibiy o‘zgarishi bo‘yicha statistik tahlil o‘tgan 14 yil davomida alohida ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘ziga xos o‘zgarishlar yuz berganligini ko‘rsatadi (2.2-jadval).

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining 2011-2020 yil ma’lumotlari, www.stat.uz.

2.2-jadval

Aholi bandligi ko'rsatkichlarining statistik tahlili, %da⁴⁸

Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Doimiy aholi	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Mehnatga layoqatli aholining doimiy aholi sonidagi ulushi	58,9	59	58,9	58,7	58,4	58,1	57,6	57,1	56,4	55,9	57,9	54,4	53,2	53,0
Iqtisodiy faol aholining doimiy aholi sonidagi ulushi	42,7	43,2	43,5	43,9	44	44	44,3	44,4	44,3	43,2	42,9	42,2	40,9	40,2
<i>Iqtisodiy faol aholining mehnatga layoqatli aholi sonidagi ulushi</i>	72,6	73,2	73,9	74,8	75,3	75,8	76,9	77,8	78,5	77,3	78,2	77,5	76,8	75,9
Iqtisodiyotda bandlarning doimiy aholi sonidagi ulushi	40,6	41,1	41,4	41,7	41,7	41,8	41,7	40,3	40,3	38,7	38,8	38,4	38,1	38,0
<i>Iqtisodiyotda bandlarning mehnatga layoqatli aholi sonidagi ulushi</i>	69	69,6	70,3	71	71,5	71,9	72,4	70,5	71,5	69,2	67	70,7	71,6	71,7
<i>Iqtisodiyotda bandlarning iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi</i>	95	95,1	95,1	94,9	94,8	94,8	94,2	90,7	91	89,5	90,4	91,1	93,2	94,5

Jumladan, iqtisodiyotda bandlar sonining mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidagi ulushi (2,7 foiz punkti), iqtisodiy faol aholi sonining mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidagi (3,3 foiz punkti) ulushi barqaror o'sib borishi kuzatilsada, iqtisodiy faol aholi sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-2,5 foiz punkti), mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-5,9 foiz punkti), iqtisodiyotda bandlar sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-2,6 foiz punkti) va iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi (-0,6 foiz punkti) pasayganligi ko'rinadi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, aholi bandligi darajasi bilan birga parallel ravishda ishsizlik darajasi ham oshib bormoqda.

Bandlik modellariga konseptual yondashuvlarni ilmiy abstraksiya usulida tadqiq etilishi natijalari asosida quyidagi xulosalar olindi:

1. Rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozoridagi bandlik darajasining asosiy tendensiyasi sifatida iqtisodiy faol aholi tarkibining moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan xizmat ko'rsatish sohalariga ko'chib o'tishini ko'rsatib o'tish mumkin.

2. Xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi bilan vaqtinchalik yollanuvchi ishchilarni jalb etish keng tarqalmoqda. SHu sababli bandlikning joriy davrdagi modeli vaqtincha mehnatdan foydalanishni kengaytirish bilan tavsiflanadi.

⁴⁸ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

3. Xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi bilan bog'liq yana bir tendensiya bu–mehnat resurslari umumiy tarkibidagi ayollar ulushining ortishidir.

4. Bandlik modelidagi mehnat intensivligi darajasi bo'yicha ishchilar ikki guruhga: mehnat sig'imi past, lekin ishchilarning kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lgan guruh va yuqori mehnat sig'imiga ega va kasbiy tayyorgarlik darajasiga talab past bo'lgan guruhga ajratish mumkin.

O'zbekiston mehnat bozoridagi bandlik ko'rsatkichlarining iqtisodiy-statistik tahlili natijasi asosida milliy mehnat bozorida quyidagi tendensiyalar yuz berayotganligini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Aholi bandligi darajasiga ta'sir etuvchi demografik va bandlik ko'rsatkichlari yillar davomida barqaror o'sib bormoqda.

2. Iqtisodiyotda bandlar sonining mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidagi ulushi (2,7 foiz punkti), iqtisodiy faol aholi sonining mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidagi (3,3 foiz punkti) ulushi barqaror o'sib bormoqda.

3. Ko'rilayotgan davrda iqtisodiy faol aholi sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-2,5 foiz punkti), mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-5,9 foiz punkti), iqtisodiyotda bandlar sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-2,6 foiz punkti) va iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi (-0,6 foiz punkti) pasaygan.

Yuqoridagi tahlillar va xulosalardan kelib chiqib, milliy mehnat bozorida aholi bandligi darajasini tabiiy ishsizlik darajasini hisobga olgan holda samarali darajada bo'lishini ta'minlash uchun jahon miqyosida bandlik modellarida yuz berayotgan o'zgarishlarni e'tiborga olish hamda bandlikka ta'sir etuvchi omillarni samarali boshqarish orqali mamlakatimizda aholi bandligini samarali tashkil etish lozim.

2.2.O'zbekiston Respublikasi hududlarida aholining ish bilan bandlik holatini statistik baholash

Raqobat sharoitida respublikamizda aholi bandligini oqilona ta'minlash, bandlik darajasini oshirish hamda o'zgarishlar va tendensiyalarga ta'sir etuvchi

omillarni statistik o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat bozoridagi holatning statistik tahlili ijtimoiy mehnat munosabatlarida muammolar, jumladan, turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning yopilishi, ishchi kuchiga bo'lgan haqqoniy talab va taklif nisbatining o'zgarishi, etakchi iqtisodiyot tarmoqlari, institutsional sektorlar va sohalaridagi tarkibiy-tuzilmaviy o'zgarishlar, ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ishchi kuchiga to'lanadigan ish haqi darajasining pastligi, aholi hayot sifatini yaxshilash va boshqa qator munosabatlar natijasida vujudga keladigan muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida ushbu ijtimoiy muammolarni yumshatish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "mehnat bozoridagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy baza etarli darajada shakllanganligiga qaramay, har yili o'rtacha 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj mavjud. Ammo "Bandlikka ko'maklashish markazlari" tomonidan bu ehtiyojning atigi 15–17% foizigina qondirilmoqda"⁴⁹. Bu mamlakatimiz va uning hududlarida mehnat bozori va uning infratuzilmasini barqaror rivojlanishini ta'minlash, foydali mehnatga layoqatli ishchi kuchidan samarali foydalanish hisobiga ishsizlik darajasini kamaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Yuqoridagi holatlarni e'tiborga olgan holda 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishida yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining oqilona bandligini, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosibligi va rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini qisqartirish ijtimoiy sohani rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan⁵⁰.

⁴⁹ Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. –34 b.

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi". www.lex.uz.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3856-sonli Qarori mehnat bozorini tartibga solish va aholi bandligi samaradorligini oshirish yo‘nalishidagi tarkibiy o‘zgarishlarda, bandlik infratuzilmasining moliyaviy ta’minotida keskin burilish bo‘ldi.

Mehnat bozorida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarni statistik baholashda ulardagi tendensiyalarni aniqlash va trendlar asosida baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi bandligidagi tendensiyalar o‘zgarishini statistik tahlil qilish uchun rasmiy statistik ma’lumotlarni qiyosiy (taqqoslama) o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining mehnat bozori bo‘yicha 2010–2024 yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari o‘rganib chiqib, ilmiy-amaliy xulosalar chiqaramiz.

Quyida keltirilgan 2.3-jadvaldan ko‘rinadiki, mamlakatimizda doimiy aholi soni 2010 yilda 28562,4 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda 37543,2 ming nafarga etgan va o‘tgan 15 yil davomida 31,4 %ga ortgan (o‘sinh – 8980,8 ming kishi). Mehnat resurslari soni esa 2010 yildagi 16726,0 ming kishidan 2024 yilda 19904,5 ming kishiga etgan va o‘tgan davrda 19,0 %ga ortgan (o‘sinh - 3178,5 ming kishi).

2.3-jadval

O'zbekistonda 2010–2022 yillarda mehnat bozorida aholi bandligi ko'rsatkichlarining o'zgarishi⁵¹

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2024 y 2010 y nisbat o'zgarish (+, -)
O'rtacha doimiy aholi soni (ming kishi)	28562,4	29339,4	29774,4	30243,2	30757,7	31298,9	31847,9	32388,6	32956,1	33580,4	34232,1	34915,1	35648,1	36799,8	37543,2	8980,8
% da	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Mehnat resurslari soni (ming kishi)	16726,0	17286,4	17564,3	17814,1	18048,0	18276,1	18488,9	18666,3	18829,6	19007,8	19158,2	19158,2	19393,0	19585,4	19904,5	3178,5
Doimiy aholi sonidagi ulushi (%)	58,6	58,9	59,0	58,9	58,7	58,4	58,1	57,6	57,1	56,4	56,0	54,9	54,4	53,2	53,0	-5,6
Iqtisodiy faol aholi soni (ming kishi)	12286,6	12541,5	12850,1	13163,0	13505,4	13767,7	14022,4	14357,3	14641,7	14876,4	14797,4	14980,7	15038,9	15038,3	15097,9	2811,3
Doimiy aholi sonidagi ulushi (%)	43,0	42,7	43,2	43,5	43,9	44,0	44,0	44,3	44,4	44,3	43,2	42,9	42,3	40,9	40,2	-2,8
Mehnat resurslari sonidagi ulushi (%)	73,5	72,6	73,2	73,9	74,8	75,3	75,8	76,9	77,8	78,5	77,2	78,2	77,9	76,8	75,9	2,4
Iqtisodiyotda bandlar soni (ming kishi)	11628,4	11919,1	12223,8	12523,3	12818,4	13058,3	13298,4	13520,3	13273,1	13541,1	13236,4	13538,9	13706,2	14014,2	14261,9	2633,5
Doimiy aholi sonidagi ulushi (%)	40,7	40,6	41,1	41,4	41,7	41,7	41,8	41,7	40,3	40,3	38,7	38,8	38,4	38,1	38,0	-2,7
Mehnat resurslari sonidagi ulushi (%)	69,5	69,0	69,6	70,3	71,0	71,5	71,9	72,4	70,5	71,5	69,1	70,7	70,7	71,6	71,7	2,2
Iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi (%)	94,6	95,0	95,1	95,1	94,9	94,8	94,8	94,2	90,7	91,0	89,5	90,4	91,1	93,2	94,5	-0,1

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mehnat resurslari sonidagi iqtisodiy faol aholi soni 2010–2024 yillar davomida 3,2 %ga ortib (o‘shish – 2,4 ming kishi), 12286,6 ming kishidan 15097,9 ming kishiga etgan. Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi iqtisodiyotda band aholi soni ham barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2010–2024 yillarda ushbu ko‘rsatkich 11628,4 ming kishidan 14261,9 ming kishiga etgan va 22,6 %ga o‘sgan (o‘shish – 2633,5 ming kishi).

Mehnat bozori ko‘rsatkichlarining tarkibiy o‘zgarishi bo‘yicha statistik tahlil keyingi 15 yil davomida alohida ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘ziga xos o‘zgarishlar yuz berganligini ko‘rsatadi. Jumladan, iqtisodiy faol aholi sonining doimiy aholi sonidagi (-2,8 foiz punkti) va mehnat resurslari sonidagi ulushi (2,4 foiz punkti), iqtisodiyotda bandlar sonining mehnat resurslari sonidagi ulushi (2,2 foiz punkti) oshib borishi bilan birga, mehnat resurslari sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-5,6 foiz punkti), iqtisodiyotda bandlar sonining doimiy aholi sonidagi (-2,7 foiz punkti) va iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi (-0,1 foiz punkti) pasayganligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi statistik tahlillardan ko‘rinib turibdiki, ushbu umumlashgan statistik ko‘rsatkichlar aholining bandlik holatidagi yuzaga kelayotgan muammolarni etarli darajada yoritib bera olmaydi. Shu jihatlarni e‘tiborga olgan holda aholi bandligi holatini mamlakat mintaqalari, hududlari hamda iqtisodiyot tarmoqlari, institutsional sektorlar va sohalari kesimida statistik tahlil qilishga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha doimiy aholi soni ko‘rsatkichining 2010-2024 yillar davomida o‘zgarishini statistik tahlili mamlakat hududlari miqyosida doimiy aholi sonining o‘zgarishi bilan birga hududiy birliklardagi doimiy aholi sonining respublika bo‘yicha doimiy aholi sonidagi ulushida ham o‘ziga xos o‘zgarish tendensiyalari mavjudligini ko‘rsatmoqda (2.4-jadval).

2.4-jadval

O'zbekiston hududlari bo'yicha o'rtacha doimiy aholi sonining o'zgarishi⁵², ming kishi

Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yilda 2010 yildagiga nisb. %
O'zbekiston	28562,4	29339,4	29774,4	30243,2	30757,7	31298,9	31847,9	32388,6	32956,1	33580,4	34232,1	34915,1	35271,3	36024,9	36024,9	119,9
jamiga nisbatan ulushi, %da	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	-
Qoraqalpog'iston	1656,5	1686,9	1702,3	1724,1	1749,8	1777,1	1804,3	1829,9	1856	1884,1	1911	1936,1	1948,5	1976,2	2002,7	120,9
jamiga nisbatan ulushi, % da	5,8	5,7	5,7	5,7	5,7	5,7	5,7	5,6	5,6	5,6	5,6	5,5	5,5	5,5	5,6	-0,2
Andijon	2610,7	2693,2	2735,3	2780,9	2831,4	2883,9	2936,5	2987,1	3039,3	3097,3	3157,9	3220,8	3253,5	3322,7	3394,4	130,0
jamiga nisbatan ulushi, % da	9,1	9,2	9,2	9,2	9,2	9,2	9,2	9,2	9,2	9,2	9,2	9,2	9,2	9,2	9,4	0,3
Buxoro	1648,2	1695,6	1718,5	1743,1	1770,9	1800,3	1829,4	1856,9	1880	1909,4	1935,5	1962	1976,8	2009,7	2044,0	124,0
jamiga nisbatan ulushi, % da	5,8	5,8	5,8	5,8	5,8	5,8	5,7	5,7	5,7	5,7	5,7	5,6	5,6	5,6	5,7	-0,1
Jizzax	1141,7	1176,6	1195,8	1215,9	1238,5	1263,1	1288,5	1313	1338,7	1367,2	1396,3	1427	1443,4	1475,5	1507,4	132,0
jamiga nisbatan ulushi, % da	4	4	4	4	4	4	4	4,1	4,1	4,1	4,1	4,1	4,1	4,1	4,2	0,2
Qashqadaryo	2669,5	2750,4	2804,5	2863,3	2927,1	2992,3	3057,2	3118,6	3180,7	3246,7	3307,9	3371,9	3408,3	3482,3	3560,6	133,4
jamiga nisbatan ulushi, % da	9,3	9,4	9,4	9,5	9,5	9,6	9,6	9,6	9,7	9,7	9,7	9,7	9,7	9,7	9,9	0,6
Navoiy	862,3	877,1	884,8	894,8	907,2	920,6	935,3	950,4	971,3	988,3	1005,4	1023,7	1033,9	1055,5	1075,3	124,7
jamiga nisbatan ulushi, % da	3	3	3	3	2,9	2,9	2,9	2,9	2,9	2,9	2,9	2,9	2,9	2,9	3,0	0,0
Namangan	2319	2400,1	2439,7	2481,4	2529,2	2578,8	2627,9	2676	2726,2	2781,9	2839,1	2899,2	2931,1	2997,5	3066,1	132,2
jamiga nisbatan ulushi, % da	8,1	8,2	8,2	8,2	8,2	8,2	8,3	8,3	8,3	8,3	8,3	8,3	8,3	8,3	8,5	0,4
Samarqand	3194,9	3298,5	3353,6	3413,3	3480,2	3549,4	3617,8	3685,9	3759,5	3838,1	3912,5	3989,5	4031,3	4118,2	4208,5	131,7
jamiga nisbatan ulushi, % da	11,2	11,2	11,3	11,3	11,3	11,3	11,4	11,4	11,4	11,4	11,4	11,4	11,4	11,4	11,7	0,5
Surxondaryo	2125	2197	2239,7	2284,5	2333,3	2384,9	2437	2488,3	2542,1	2599,5	2655	2712	2743,2	2806,5	2877,1	135,4
jamiga nisbatan ulushi, % da	7,4	7,5	7,5	7,6	7,6	7,6	7,7	7,7	7,7	7,7	7,8	7,8	7,8	7,8	8,0	0,6
Sirdaryo	720,8	733,3	745	757,1	770,4	783,8	796,8	809,5	822,9	838,1	853,6	869,8	878,6	896,6	914,0	126,8
jamiga nisbatan ulushi, % da	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	0,0
Toshkent vil.	2615,2	2657,7	2683,4	2710,8	2742,1	2776,2	2811,7	2845,2	2879,9	2920,2	2950	2915	2941,5	2993,4	3051,8	116,7
jamiga nisbatan ulushi, % da	9,2	9,1	9	9	8,9	8,9	8,8	8,8	8,7	8,7	8,6	8,3	8,3	8,3	8,5	-0,7
Farg'ona	3151,9	3255	3305,2	3358,1	3415,7	3475,1	3535	3592,5	3651,8	3717,7	3786	3858,2	3896,4	3976,3	4061,5	128,9
jamiga nisbatan ulushi, % da	11	11,1	11,1	11,1	11,1	11,1	11,1	11,1	11,1	11,1	11,1	11,1	11,0	11,0	11,3	0,3
Xorazm	1581,3	1615,1	1641,5	1669	1699,8	1731,2	1761,8	1790,8	1820,3	1851,1	1879,9	1908,7	1924,2	1958,1	1995,6	126,2
jamiga nisbatan ulushi, % da	5,5	5,5	5,5	5,5	5,5	5,5	5,5	5,5	5,5	5,5	5,5	5,5	5,5	5,4	5,5	0,0
Toshkent sh.	2265,4	2302,9	2325,1	2346,9	2362,1	2382,2	2408,7	2444,5	2487,4	2540,8	2642	2821,2	2860,6	2956,4	3040,8	134,2
jamiga nisbatan ulushi, % da	7,9	7,8	7,8	7,8	7,7	7,6	7,6	7,5	7,5	7,6	7,7	8,1	8,1	8,2	8,4	0,5

⁵² www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Jumladan, Surxondaryo (35,7%), Toshkent shahri hamda Qashqadaryo viloyati (36,1%), Jizzax (35,0%), Samarqand (34,9%) va Namangan (35,8%) viloyatlarida doimiy aholi sonining 15 yil davomidagi o'zgarishi yuqori bo'lgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi (22,7%)da, Toshkent viloyati (18,0%), bu ko'rsatkich eng kam darajani tashkil etgan. Hududlar kesimida doimiy aholi sonining mamlakat bo'yicha doimiy aholi sonidagi ulushi tahlili ham alohida hududlarga xos bo'lgan o'zgarish xususiyatlarini, ko'rilayotgan davrda hududlardagi doimiy aholi sonidagi o'zgarish tendensiyalarini ko'rsatadi.

SHuningdek, 2010–2024 yillar davomida doimiy aholi soni barqaror o'sib borgan: Qashqadaryo va Surxondaryo (0,6 foiz punkti), Namangan (0,4 foiz punkti), Toshkent shahri (0,5 foiz punkti), doimiy aholi sonining mamlakat bo'yicha umumiy aholi sonidagi ulushi ham ortib borgan bo'lsa, Toshkent viloyati (-0,7 foiz punkti), Qoraqalpog'iston Respublikasi (-0,2 foiz punkti), Buxoro (-0,1 foiz punkti) va Navoiy (-0,02 foiz punkti) viloyatlarida bu ko'rsatkich pasayib borganligini ko'rish mumkin.

Ammo mamlakatimizda doimiy aholi sonining o'zgarish dinamikasi mehnat bozoridagi aholi bandligi holatini etarli darajada aks ettirmaydi va shuning uchun hududiy birliklar kesimida bandlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotda bandlarning ulushi mavjud uslubiyatga asosan band aholi sonining mehnatga layoqatli aholi soniga nisbati bilan aniqlanadi. Ushbu uslubiyatga tayangan holda mamlakat va uning hududlari kesimida bandlik darajasini 2010–2022 yillar bo'yicha hisoblab chiqildi (2.5-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha 2010–2024 yillarda bandlik darajasining o‘zgarishi⁵³, %da

Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2024 y 2010 y nisb. o‘zgarish (+, -)
O‘zbekiston	66,9	66,2	66,6	67,1	67,7	68,2	68,7	69,2	67,4	68,1	66,0	67,0	67,2	67,9	68,3	1,4
Qoraqalpog‘iston	57,3	57,0	57,4	57,7	57,9	58,1	58,1	58,3	62,9	62,9	62,0	61,1	61,6	62,9	64,3	7,0
Andijon	69,3	68,6	69,0	69,9	70,8	71,5	72,3	73,0	69,6	70,1	66,5	68,2	69,5	70,6	70,2	0,9
Buxoro	74,5	73,5	74,1	74,4	74,0	73,4	72,9	72,5	70,7	69,3	68,3	67,2	67,2	68,7	67,7	-6,8
Jizzax	56,8	56,0	56,0	56,5	57,3	58,1	59,1	60,0	61,6	67,1	66,2	67,5	66,2	66,3	66,0	9,2
Qashqadaryo	61,7	61,1	61,2	61,8	62,5	63,3	64,3	65,4	64,8	63,9	60,9	62,2	61,9	61,9	65,0	3,3
Navoiy	75,3	74,6	74,7	74,1	73,6	73,2	72,8	72,4	69,2	69,5	66,8	68,3	67,7	69,8	70,5	-4,8
Namangan	57,4	56,6	57,2	58,1	59,3	60,5	61,9	63,4	63,8	66,4	65,0	65,5	64,8	65,9	66,8	9,4
Samarqand	64,7	64,0	64,7	65,4	66,5	67,6	68,7	69,7	66,3	65,3	63,2	63,7	64,7	65,0	64,8	0,1
Surxondaryo	62,5	62,2	62,3	62,7	63,4	64,3	65,4	66,6	65,2	67,0	63,9	64,5	64,2	63,8	63,7	1,2
Sirdaryo	72,0	72,1	72,2	72,5	72,9	72,2	71,7	71,1	70,5	68,9	64,8	64,5	64,0	63,8	65,3	-6,7
Toshkent vil.	71,5	71,8	72,9	74,0	75,1	75,3	75,4	75,2	71,4	71,4	68,2	72,4	71,0	72,2	72,3	0,8
Farg‘ona	69,4	67,9	68,0	68,3	68,8	69,1	69,6	69,9	66,0	67,5	65,1	66,2	67,1	68,4	68,0	-1,4
Xorazm	63,2	63,3	63,9	64,3	65,0	65,6	66,3	66,9	64,6	66,1	63,7	64,0	64,7	66,9	66,2	3,0
Toshkent sh.	81,6	80,7	80,7	80,7	80,9	81,1	81,0	80,8	77,5	80,1	81,7	81,3	82,5	82,3	82,3	0,7

2.3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, mamlakatimizda 2010–2024 yillar davomida bandlik darajasi ma’lum bir tebranish tendensiyasiga ega bo‘lgan va bu o‘zgarish tendensiyasi ushbu ko‘rsatkichning mamlakat hududlari bo‘yicha o‘zgarishida o‘z aksini topgan. Mamlakat bo‘yicha jamlanma ko‘rsatkich 2011–2017 yillar davomida barqaror o‘sib borib, 2018 yilda pasaygan va 2019 yilga kelib, avvalgi yildagiga nisbatan ko‘tarilish kuzatiladi. 2020 yilda pasaygan, va keyingi yillarda o‘sib borgan. Raqobat munosabati bilan ayrim hududlarda pasayish yuz bergan.

Hududlar kesimida bandlik darajasi holati Toshkent shahrida yuqori bo‘lib 82,3% foizga teng. Jizzax viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Namangan, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida bandlarning mehnatga yaroqli aholini qamrab olish darajasi o‘rtacha 61–66 % ni tashkil etdi.

Agar mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ishsizlik darajasi yillar kesimida 10,0 %ni tashkil etishini hisobga olinsa hamda bandlik darajasiga qo‘shilsa, qolgan qismi norasmiy iqtisodiyotda band bo‘lgan norasmiy bandlarni tashkil etadi. Aytib o‘tilgan tartibda 2022 yildagi mehnatga layoqatli aholi sonida norasmiy bandlar

⁵³ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

soni aniqlansa, bu ko'rsatkich 28,2 % ni tashkil etishini va 2019 yildagi ko'rsatkichdan ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda ko'rilayotgan 12 yil davomida mamlakat hududlari kesimida bandlik darajasi turli omillar ta'sirida ma'lum bir qonuniyat asosida o'zgarayotganligini tushunish qiyin emas. 2010–2024 yillar davomida umumlashgan ko'rsatkich mamlakat bo'yicha 18 % ga ortgan bo'lsa-da, barqaror o'sish mavjud deb baho berish, fikrimizcha, to'g'ri bo'lmaydi.

Hududlar kesimida bandlik darajasining o'tgan 15 yil yakunida yuqori sur'atlarda ortishi bandlik darajasi mamlakat o'rtacha darajasidan eng past bo'lgan Buxoro (-6,8 foiz punkti), Sirdaryo(-6,7 foiz punkti), Navoiy (-4,8 foiz punkti) viloyatlarida kuzatiladi. Ammo, shunday holat kuzatilsa-da, 2024 yil yakunlariga ko'ra, ushbu hududlarning bandlik darajasi mamlakat darajasidan ancha past holatini saqlab qolganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Hududlar kesimida bandlik darajasining ko'rilayotgan davrda yuqori bo'lishi esa bandlik darajasi mamlakat o'rtacha darajasidan yuqori bo'lgan Surxondaryo (1,2 foiz punkti), Xorazm(3,0 foiz punkti), Qashqadaryo (3,3 foiz punkti) viloyatlari bo'lsa-da, bunday o'rtacha ko'rsatkichlardan past darajalar Toshkent (0,8 foiz punkti), viloyati va Toshkent shahri (0,7 foiz punkti)da kuzatiladi.

Yuqorida bandlik ko'rsatkichlari o'zgarishini mamlakat hududlari kesimida tahlil qilinib, hududlar bo'yicha bandlik holati va uning darajasidagi o'zgarishlar tendensiyalarini aniqlashga harakat qilingan bo'lsa, bandlik darajasining milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari kesimida tahlil qilish ham o'rganilayotgan holatning o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

2.6-jadval

Milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalari bo'yicha 2010–2024 yillarda bandlar sonining o'zgarishi⁵⁴, ming kishi

Tarmoq va sohalari	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yilda 2010 yildagiga nisbatan o'zgarishi
Iqtisodiyot bo'yicha	11628	11919	12224	12523	12818	13058	13298	13520	13273	13541	13236	13539	13706	14014	14262	123
ulushi, % da	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	-
Tarmoq va sohalari																
Qishloq xo'jaligi	3118,1	3229,4	3251,7	3402,1	3528,9	3601,7	3646,7	3671,3	3537,2	3544,6	3499,2	3414,7	3438,7	3344,0	3240,7	103,9
ulushi, % da	26,8	27,1	26,6	27,2	27,5	27,6	27,4	27,2	26,6	26,2	26,4	25,2	25,1	23,9	22,7	-4,1
Sanoat	3144,9	3256,5	3278,3	3429,3	3556,4	3629,3	3674,1	3698,5	3563,8	3570,8	3525,6	3439,9	3463,8	3367,9	3263,4	103,8
ulushi, % da	13,8	13,8	13,7	13,6	13,5	13,5	13,6	13,5	13,6	13,5	13,7	13,8	25,3	24,0	22,9	9,1
Qurilish	1033,7	1068,8	1105,7	1144	1183,3	1222,2	1263,6	1290	1205,5	1324,6	1305,6	1350,8	1314,3	1502,2	1360,1	131,6
ulushi, % da	8,9	9	9	9,1	9,2	9,4	9,5	9,5	9,1	9,8	9,9	10,0	9,6	10,7	9,5	0,6
Savdo	1235,6	1269,8	1305,6	1342	1378,3	1413,8	1452,4	1480,2	1401,8	1436,4	1405,4	1535,6	1525,2	1586,1	1504,8	121,8
ulushi, % da	10,6	10,7	10,7	10,7	10,8	10,8	10,9	10,9	10,6	10,6	10,6	11,3	11,1	11,3	10,6	0,0
Tashish va saqlash	509,9	528,7	549,1	570,2	592,1	614,7	638,2	654,9	645,2	646,1	610,5	654,2	633,1	640,4	601,5	118,0
ulushi, % da	4,4	4,4	4,5	4,6	4,6	4,7	4,8	4,8	4,9	4,8	4,6	4,8	4,6	4,6	4,2	-0,2
Ta'lim	1102	1102,6	1103,3	1104	1104,7	1105,3	1105,6	1106,6	1111,7	1134,4	1158,2	1220,5	1220,5	1268,7	1299,5	1320,2
ulushi, % da	9,5	9,3	9	8,8	8,6	8,5	8,3	8,2	8,4	8,4	8,8	9,0	8,9	9,1	9,1	-0,4
Sog'liqni saqlash	596,2	597,4	598,4	599,5	600,8	601,5	601,6	602,6	604	616,7	669,5	650,8	650,8	671,3	694,8	695,2
ulushi, % da	5,1	5	4,9	4,8	4,7	4,6	4,5	4,5	4,6	4,6	5,1	4,8	4,7	4,8	4,9	-0,2
Boshqalar	2427,2	2481,7	2640,5	2658,4	2693,8	2730,4	2787,9	2887,9	2964,8	3016,8	2778,5	1272,4	1459,8	1633,6	2297,1	94,6
ulushi, % da	20,9	20,8	21,6	21,2	21	20,9	21	21,4	22,3	22,3	21	21,0	10,7	11,7	16,1	-4,8

⁵⁴ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalari kesimida bandlar taqsimotining 2010–2024 yillar davomidagi tahlili iqtisodiyotda bandlarning 75–80%i quyidagi asosiy tarmoq va sohalarda bandligini ko‘rsatadi:

1. Qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va baliqchilik.
2. Sanoat.
3. Qurilish.
4. Savdo.
5. Tashish va saqlash.
6. Ta’lim.
7. Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar.

Iqtisodiyotda bandlarning qolgan qismi yangi shakllanayotgan soha va tarmoqlarda band bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va baliqchilikda bandlar soni 2024 yilda 2010 yildagi 122,6 ming kishiga yoki 3,9 %ga ortib, 3240,7 ming kishiga etgan.

Sanoat tarmoqlarida ham qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va baliqchilikdagi holat kuzatiladi. Sanoat tarmoqlaridagi bandlar soni 2024 yilda 2010 yildagi 118,5 ming kishiga yoki 3,8%ga ortib, 3263,4 ming kishiga etgan. Ushbu tarmoqda bandlar soni sanoat ishlab chiqarishining yangi sohalari shakllanishi hisobiga barqaror ortib borgan bo‘lsa-da, tarmoqda bandlar ulushi 2010 yildagi 13,8%dan 9,1 foiz punktga ortib, 2024 yilda 22,9%ni tashkil etgan.

Qurilish sohasida bandlar sonining o‘zgarishi boshqa tarmoq va sohalardagiga nisbatan yuqoriroq sur’atlarda ortib, 2024 yilda 2010 yildagi 1033,7 ming kishiga nisbatan 31,6%ga ko‘paygan va 1360,1 ming kishiga etgan. Qurilish sohasida bandlarning jami band aholi sonidagi ulushi 2024 yilda 2010 yildagi 8,9%dan 9,5%ga oshib, 0,6 % punktga ortgan.

2.7-jadval

Iqtisodiyot sektorlari bo'yicha band aholi soni va ulushining o'zgarishi⁵⁵

Sektorlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2024 y 2010 y nisbatan o'zgarish, %
Milliy iqtisodiyot bo'yicha, ming kishi	11628	11919	12224	12523	12818	13058	13298	13520	13273	13541	13236	15539	13706,2	14014,2	14261,9	122,6
ulushi, % da	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
SHundan:																
Davlat sektorida bandlar soni, ming kishi	2410,2	2369,4	2363,2	2341,1	2324,7	2341,3	2330,4	2338,3	2427	2463,3	2483,1	2530,1	2540	2567,4	2604,6	108,1
ulushi, % da	20,7	19,9	19,3	18,7	18,1	17,9	17,5	17,3	18,3	18,2	18,8	18,7	18,5	18,3	18,3	-2,4
Nodavlat sektorda bandlar soni, ming kishi	9218,2	9549,7	9860,6	10182	10494	10717	10968	11182	10846	11078	10753	11009	11166,2	11446,8	11657,3	126,5
ulushi, % da	79,3	80,1	80,7	81,3	81,9	82,1	82,5	82,7	81,7	81,8	81,2	81,3	81,5	81,7	81,7	2,4

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi holatlar savdo, ta'lim xizmatlari, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida ham kuzatiladi. Ammo yangi shakllanib, tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan tashish va saqlash hamda boshqa tarmoq va sohalardagi bandlar soni va ularning jami band aholi sonidagi ulushi rivojlanish darajasiga mutanosib ravishda tez sur'atlarda ortib bormoqda.

Jumladan, tashish va saqlash xizmatlari sohasida bandlar soni 2024 yilda 2010 yildagiga nisbatan 19,7%ga ortgan bo'lsa, boshqa tarmoq va sohalarda 14,5%ga ko'paygan. SHu bilan birga tashish va saqlash xizmatlari sohasida bandlarning jami band aholi sonidagi ulushi 12 yil davomida 0,2%ga, boshqa tarmoq va sohalarda 0,1 foiz punkti ortgan. Ushbu tahlillar bandlik holatining sezilarli o'zgarishi nafaqat hududiy kesimda, balki tarmoq va sohalarda kesimida ham yuz berayotganligini ko'rsatadi

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida band aholi sonining iqtisodiyot sektorlari bo'yicha taqsimlanishi tahlili ham band aholining iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlaridagi soni va ulushi o'zgarib borayotganligini ko'rsatadi. Ammo yangi shakllanib, tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan sohalardagi bandlar soni va ularning jami band aholi sonidagi ulushi rivojlanish darajasiga mutanosib ravishda tez sur'atlarda ortib bormoqda (2.7-jadval).

Agar 2010 yilda davlat sektorida bandlar soni 2410,2 ming kishi (milliy iqtisodiyotda bandlarning 20,7%i)ni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilga kelib, bu ko'rsatkich 2,2 foiz punkti ortgan va 2542,4 ming kishi (milliy iqtisodiyotda bandlarning 18,5%i)ga etgan. Davlat sektorida bandlar soni o'tgan 12 yil davomida 5,5%ga ortgan bo'lsada, ushbu ko'rsatkichning jami band aholini qamrab olish darajasi kamaygan.

Nodavlat sektordagi bandlik ko'rsatkichlarida esa davlat sektoridagi holatning aksi ko'rinadi, ya'ni nodavlat sektorda bandlar soni ko'rilayotgan davrda 21,4%ga ortishi bilan ushbu ko'rsatkichning jami band aholini qamrab olish darajasi 2,2 foiz punkti o'sgan.

Mehnat bozorida aholi bandligi holatidagi o'ziga xos o'zgarishlar tendensiyalarini asosiy bandlik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalarda yaratilgan yangi ish o'rinlari soni hamda ulushining o'zgarishini tahlil qilish asosida ham aniqlash mumkin. Ushbu tendensiyalarni aniqlash maqsadida 2010–2021 yillar davomida iqtisodiyot tarmoqlaridagi yuridik shaxslarda (fermer xo'jaliklari, kichik tadbirkorlik sub'ektlari, XUJMSH va nodavlat-notijorat tashkilotlarisiz) yangidan tashkil etilgan ish o'rinlari soni tahlil qilindi (2.8-jadval).

2.8-jadval

Milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalari bo'yicha yuridik shaxslarda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni (% da)⁵⁶

Tarmoq va sohalari	Yillar														
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Milliy iqtisodiyot bo'yicha	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
SHundan:															
Qishloq xo'jaligi, o'rmon-chilik va baliqchilik	3,8	6,6	6,8	7,4	5,9	6,1	4,5	5,5	5,2	5,2	7	6,2	5,2	7	6,2
Sanoat	30,2	26,9	29	29,7	30,9	30,5	31,3	29,9	27,6	32,1	29,6	27,5	32,1	29,6	27,5
Qurilish	16,7	15,3	16,6	17	17,1	18,6	16,2	11,2	13	13,7	15,5	16	13,7	15,5	16
Savdo	14,4	19	17,9	14,5	13,6	14,5	15	11,6	11,5	15	15,4	14,6	15	15,4	14,6
Tashish va saqlash	7,3	5,9	6,5	6,6	5,6	5,6	8	8,3	6,3	5,9	3,7	4,1	5,9	3,7	4,1
YAshash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi	3,5	5,2	4,3	4,2	4,4	4,8	4,4	3,5	4,4	4,5	3,1	3,3	4,5	3,1	3,3
Axborot va aloqa sohasi	1,7	2	1,6	1,5	1,6	1,9	1,7	1,6	2	1,3	1,4	1,7	1,3	1,4	1,7
Moliyaviy xizmatlar sohasi	1,3	1,5	1,3	1,4	1,4	1,6	1,8	2,6	1,2	1,1	1,1	1,2	1,1	1,1	1,2
Ta'lim	5,8	5,1	3,9	4,5	4,8	3	4,4	4,5	8,8	7,7	10,6	10,5	7,7	10,6	10,5
Sog'liqni saqlash va ijti-moiy xizmatlar sohasi	3	2,1	2,1	3,4	5	3,8	3,5	4	4,5	3,8	3,3	4,1	3,8	3,3	4,1
Madaniyat, san'at va dam olish	0,7	0,7	0,7	0,7	0,8	0,6	1,1	0,7	1	1	0,7	0,7	1	0,7	0,7
Boshqalar	11,6	9,7	9,3	9,1	8,9	9	8,1	16,4	14,5	8,6	8,7	10,1	8,6	8,7	10,1

Ko'rsatkichlar tahlili alohida tarmoq va sohalarda yangidan yaratilgan ish o'rinlari ulushi sanoat (27,5%), qurilish (16%), savdo (14,6%) hamda boshqa (ko'rsatilgan tarmoq va sohalardan tashqari barcha sohalari) sohalari (10,1%)da ancha yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Biroq ko'rsatib o'tilgan tarmoq va

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sohalarda (boshqa sohalardan tashqari) yangidan yaratilgan ish o‘rinlari ulushi yillar davomida pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Yuridik shaxs maqomidagi korxonalarda yangidan yaratilgan ish o‘rinlari soni va ulushi tahlili mamlakatimizda ham boshqa yaqin va uzoq xorij mamlakatlaridagi singari band aholining xizmatlar sohasiga ko‘chish jarayoni yuz berayotganligini ko‘rsatdi. Jumladan, 2010–2020 yillarda mamlakatimiz bo‘yicha yuridik shaxs maqomidagi korxonalarda yangidan yaratilgan ish o‘rinlarining 48–57%i xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelgan.

Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda milliy mehnat bozorida aholi bandligi holati hamda bandlik darajasidagi o‘zgarishlarning hududiy va tarmoq tahlili asosida quyidagi o‘zgarish tendensiyalarini alohida ko‘rsatib o‘tish lozim:

1. Mamlakatimizda 2010–2022 yillar davomida bandlik darajasi ma’lum bir tebranish tendensiyasiga ega bo‘lgan va bu o‘zgarish tendensiyasi ushbu ko‘rsatkichning mamlakat hududlari bo‘yicha o‘zgarishida ham o‘z aksini topgan.

2. Iqtisodiyot tarmoq va sohalari kesimida bandlar soni va ulushi tahlili qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va baliqchilik, sanoat tarmoqlari, qurilish, savdo, ta’lim xizmatlari, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohalarda bandlar sonining o‘zgarishi boshqa tarmoq va sohalarga nisbatan yuqoriroq sur’atlarda ortgan bo‘lsada, ushbu tarmoq va sohalarda bandlarning jami band aholi sonidagi ulushi 2020 yilda 2010 yildagidan kamaygan.

3. Milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalarda yaratilgan yangi ish o‘rinlari soni hamda ulushining o‘zgarishi tahlili alohida tarmoq va sohalarda yangidan yaratilgan ish o‘rinlari ulushi sanoat (27,5%), qurilish (16%), savdo (14,6%) hamda boshqa (ko‘rsatilgan tarmoq va sohalardan tashqari barcha sohalarda) sohalarda (10,1%)da ancha yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Ammo ko‘rsatib o‘tilgan tarmoq va sohalarda (boshqa sohalardan tashqari) yangidan yaratilgan ish o‘rinlari ulushi yillar davomida pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

4. Yuridik shaxs maqomidagi korxonalarda yangidan yaratilgan ish o‘rinlari soni va ulushi tahlili mamlakatimizda ham boshqa yaqin va uzoq xorij mamlakatlaridagi singari band aholining xizmatlar sohasiga ko‘chish jarayoni yuz

berayotganligini ko'rsatadi. Jumladan, 2010–2022 yillarda mamlakatimiz bo'yicha yuridik shaxs maqomidagi korxonalarda yangidan yaratilgan ish o'rinlarining 48–57%i xizmatlar sohasiga to'g'ri kelgan.

5. Milliy mehnat bozorida aholining samarali bandligini ta'minlash, iqtisodiy tarmoqlari va hududlari kesimida bandlarni eng maqbul holda taqsimlash hamda bandlik jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarni samarali boshqarishda yuqorida ajratib ko'rsatilgan o'zgarish tendensiyalarini hisobga olish muhim sanaladi.

2.3. O'zbekiston Respublikasida aholi bandligi va yangi ish o'rinlarini yaratish holatini statistik baholash

Bugungi kunda aholining ish bilan bandligini ta'minlash muammosi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim makroiqtisodiy xususiyatlaridan biri bo'lib, milliy iqtisodiyotda alohida ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, 2022-2026 yillarda YAngi O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida "Aholi bandligini ko'paytirish maqsadida aholi real daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va daromadlar bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish" kabi asosiy vazifalar belgilab berilgan.

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida mehnatga qobiliyatli aholi bandligini ta'minlash muammolarini tadqiq etishning muhimligi eng avvalo, mazkur tushuncha va tavsiflarning nazariy rivojlanishini va konseptual yondashuvlarini ilmiy o'rganishni taqazo etadi.

Xususan, A.Smit "Xalqlar boyligi tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqoti" asarida ish bilan bandlik insonlarning faoliyati va intilishlari, ularning shaxsiy iqtisodiy manfaatlari orqali belgilanishini uqtiradi⁵⁷. E.V.SHuvaevaning fikricha, bandlik mehnat munosabatlari tizimining eng muhim elementi hisoblanadi.

⁵⁷ Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot / Darslik. Q.Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.

Bandlik yollanma ishchi kuchi yoki mehnat bozori paydo bo'lmagan ancha oldin shakllangan⁵⁸.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.O'lmasov va A.Vahobovlar "Bandlik mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan va mehnat qilishga ishtiyoqi bor insonlarni ishga joylashib, foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishlaridir" deb ta'riflaydi⁵⁹. D.Ortiqova mehnat bozorining tashkil etilishi va faoliyat yuritishini bozor iqtisodiyoti sharoitida bandlikni ta'minlash va uni qo'llab quvvatlashning muhim vositasi sifatida baholaydi⁶⁰.

SH.Xolmo'minov fikricha, "aholi bandligi – ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga keluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida aholini ish joyi va bir vaqtning o'zida insonni yashashi uchun zarur mablag' bilan ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar sifatida jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchlari shakllanishini ta'minlaydi"⁶¹.

Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha, bugungi kunda respublikamizda jami band bo'lganlarning 18,5% foizi davlat, 81,5% foizi nodavlat sohada mehnat qilmoqda⁶². Ushbu statistik raqamlar tahlili davlat korxonalarida ishlovchilarni soni qisqarib, xususiy sohada bandlikni ortishi yuz berayotganligini ko'rsatadi. Bu esa respublikamiz hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi, shuning asnosida aholining bandligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida band bo'lganlar soni 2022 yilda 2010 yilga nisbatan 18,1% foizga ortgan. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar sonida o'tgan yilga nisbatan o'sish yuz bergan. Sanoat va qurilish ishlab chiqarishida band bo'lganlar soni bazis yiliga nisbatan 13,5% foizga, savdoda 2,4% foizga, sog'liqni saqlashda 11,3% foizga, ta'lim sohasida 12,9% foizga

⁵⁸Asraqulov A.S. Bandlik modellarini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar // Biznes-ekspert. Biznes-Daily media. – 2019, №10. 46–50-b.

⁵⁹O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, Toshkent.-2012– 592 b.

⁶⁰Shadmanov X.N. Mehnat bozorida samarali bandlikni ta'minlash: muammo va echimlar // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2019 yil. 1–9-b.

⁶¹Xolmo'minov Sh.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (monografiya). –T.: Fan va texnologiya, 2014. –321 b.

⁶² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

ortgan. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida band bo'lganlar soni bazis yiliga nisbatan 10% foizga, tashish va saqlashda 24,6% foizga oshgan.

Bizning fikrimizcha, ishchi kuchiga talabni oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlardan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Bunga eng avvalo mulkchilik shakllarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish joylarini yaratish, ish vaqtidan unumli foydalanish, ishlovchilarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ko'tarish, soliqlarni oqilona belgilash orqali erishiladi.

Muhim iqtisodiy tadbirlar majmuasiga qayta ishlash sanoati va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish joylarini yaratish, ishlab chiqarishni kengaytirishga davlat tomonidan imtiyozli kreditlar berish, ilg'or texnologiyalarni tadbqiq etish, raqobat sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qayta ishlash sanoati tarmoqlarining asosiy mahsulotlariga davlat buyurtmasini belgilash, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish va ijtimoiy ishlarni mablag' bilan ta'minlash kiradi. Bu tadbirlar qo'shimcha ish joylarini tashkil qilishda eng kam investitsiyani nazarda tutadi va ishchi kuchiga talabni oshirishda muhim o'rin egallaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlanishi mablag'lar bilan ta'minlashning manbalari bo'lib, mahalliy byudjet, bandlikka ko'maklashish jamg'armasi va biznes fond mablag'lari hamda xususiy tadbirkorlarning shaxsiy jamg'armalari xizmat qiladi. Bugungi kunda ayniqsa, mintaqalarda aholi bandligi, ishlab chiqarishni ishchi kuchi bilan ta'minlash masalalarini o'rganishni hayotni o'zi taqozo etmoqda.

Respublikamizda mehnat birjasi va bandlik xizmatining boshlang'ich tashkilotlari tashkil etilib, ular ishsizlik va bo'sh o'rinlar miqdori va tuzilishining hisob-kitobi, tahlili va kelajagi, band bo'lmagan aholini ishga joylashtirish va qayta o'qitish, bandlikka ko'maklashish jamg'armasini tashkil qilish va sarflash ishlari bilan shug'ullandilar, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik doirasida imtiyozli kreditlarni ajratish yo'li bilan yangi ish joylarini yaratishga muayyan moliyaviy yordam ko'rsatildi. Iqtisodiyot tarmoqlarida, ayniqsa qishloq xo'jaligida

tarkibiy islohotlar amalga oshirilib xodimlar va ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari yaratildi va boshqalar.

Kelgusida respublikamizda aholi bandligi sohasida olib borilayotgan amaliy ishlarni jadallashtirish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi. YA'ni: ishchi kuchiga talabni oshishi va uning taklifini kamayishiga yo'naltirilgan chora tadbirlarni amalga oshirishni kuchaytirish; bandlik xizmati va uning infratuzilmasida mukammal va tez rivojlanuvchi tizimni yaratish; ishsizlikni yo'l qo'yiladigan darajasigacha qisqartirish; ish bilan band bo'lmagan mahalliy xodimlarning malakasi, raqobatbardoshligi, ijtimoiy himoyasini yaxshilash; mehnat bozori, bandlik va ishsizlikni tartibga solishning samarali tashkiliy-iqtisodiy va xuquqiy mexanizmlarini yaratish va hakoza.

Shuningdek, respublikamizda ishchi kuchi taklifini uning malakasini, raqobatbardoshligini va eksportini oshirish yo'li bilan kamaytirish; mulkchilikning turli shakllarini takomillashtirish, aholini ish bilan bandligi sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish; ish haqi va boshqa mehnat daromadlarining manbalari darajasidan soliq stavkasini kamaytirish; bandlik xizmatining bozor infratuzilmasini tashkil qilish; mehnat shartnomalarini tuzishni takomillashtirish hisobiga amalga oshirilishi lozim. Bularning barchasi bandlikni sezilarli o'sishi ishsizlikni kamayishi hamda ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasidagi farqni qisqarishiga ko'maklashadi.

Kelgusida respublikamizda aholi bandligini oshirish va mehnat salohiyatidan yanada samarali foydalanish maqsadida quyidagi takliflarni beramiz, ya'ni:

ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozori faoliyatini yildan yilga kengaytirib borib, ular tomonidan o'tkazilayotgan mehnat yarmarkalarini muntazam o'tkazilishini ta'minlash;

ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga soluvchi mustahkam rivojlangan mahalliy va xorijiy bandlik xizmati tashkilotlari tizimini takomillashtirish;

respublika va uning mintaqalarida yangi ish joylarini tashkil etish, aholining bandlik darajasini oshirish va ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadli foydalanish bo'yicha keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish;

aholini oqilona bandligini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan dasturlarning monitoringini muntazam olib borish;

qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish joylarini yaratish; ishchi kuchiga talabning oshishi va ishsizlikning kamayishini ta'minlovchi kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish;

xizmat ko'rsatish sohalarini mahalliy va xorijiy samarali texnika va texnologiya bilan ta'minlash;

mahalliy kadrlar malakasini, raqobatbardoshligini va chet elga yuborishni amalga oshirish;

mehnat bozori, ishsizlik va aholi bandligi jarayonlarini tartibga soluvchi tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish.

Shuningdek, respublikamizda ijtimoiy ishlarni tashkil qilish va mablag'lar bilan ta'minlashga yondashishni o'zgartirish maqsadga muvofiq. Ularni bandlik xizmati tashkilotlarining mablag'lari bilan ta'minlash etarli emas. Ijtimoiy ishlarni mablag'lar bilan ta'minlashning maxsus jamg'armasi va uni amalga oshirishning maqsadli kompleks dasturini tuzish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillarimizga ko'ra, respublikamiz aholisi, uning tuzilmasidagi band bo'lganlar soni yil sayin ortib bormoqda. Bu esa turli mulkchilikka asoslangan korxonalar va xo'jaliklarda qo'shimcha yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, ishsizlikni imkoniyat darajasida kamaytirish, kadrlarni o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilashimizni hayotiy zaruriyatga aylantirmoqda.

Mamlakatimizda yangi ish o'rinlari yaratilishi borasida qator vazifalar belgilab berilmoqda. Xususan, hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek, Strategiyaning mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish nomlangan 85-maqsadida kambag'allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, norasmiy

ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish, ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish, ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy darajada («mahallabay» tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo'lga qo'yish, hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag'al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag'allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish, hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og'ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to'g'ridan-to'g'ri davlat ijtimoiy yordamini ko'rsatish⁶³ kabi vazifalari belgilab berilgan.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyotining asosiy samarali omillaridan biri bo'lgan tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Xususan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining roli va jamiyatda o'rta sinf tabaqasi faolligi oshib borayotgan bir davrda ushbu ustuvor sohaning mamlakatimizda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish lozimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, yangi tashkil qilingan ish o'rinlarini ro'yhatga olish va ularning mavjudlik holatini nazoratini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2022 yil 27 yanvardagi PQ-104-son qaroriga muvofiq Vazirlar

⁶³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2022-2026 yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28-yanvardagi PF-60 sonli Farmoni. www.lex.uz.

Mahkamasining “Yaratilgan yangi ish o‘rinlarini hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori qabul qilingan. Unda tadbirkorlik sub’ekti hisoblangan yuridik shaxslarning soni ko‘paygan xodimlarining ish o‘rinlarini hamda yangi tashkil etilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, ularning yollanma xodimlari, usta-hunarmandlar, ularning shogirdlari, o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar, dehqon xo‘jaliklari hisobidan yaratilgan yangi ish o‘rinlarini hisobga olish tartibi⁶⁴ belgilab berilgan.

Zamonaviy dunyoga muvaffaqiyatli moslashish uchun ta’lim olish va kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishning o‘zi etarli emas, mehnat bozorida samarali harakat qilish, kasbiy yo‘nalishini mustaqil ravishda tanlash, shuningdek, kasbiy qobiliyatlarni o‘zlashtirishga imkon beradigan malakalarni egallash bilan bir qatorda, ish beruvchining umidlarini qondira olishi ham kerak. Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, birinchi navbatda, iqtisodiyot tarkibining o‘zgarishi, mehnat mazmuni va tashkil etilishining o‘zgarishi, yangi kasblarning paydo bo‘lishi va eskilarining yo‘qolishi bilan bog‘liq. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bir qator yangi kasblar uchun nomzodlarning etishmasligi va aksincha: eskirgan kasblar orasida ishsizlik o‘sib borishi kuzatiladi. YOshlar o‘rtasidagi raqobat ham past malakali bo‘sh ish o‘rinlarining qisqarishi tufayli kuchayib bormoqda. An’analarga asoslangan ta’lim tizimi zamonaviylashtirish va ish beruvchilarning innovatsion malakaga ega ishchilarga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

1999 yilda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Munosib mehnat dasturi erkin, adolatli va xavfsiz mehnat, mehnat kishisini qadrlash tamoyillariga asoslanadi. SHuningdek, munosib mehnat tushunchasi orqali mehnat sohasidagi xalqaro me’yor va tamoyillar, xodimlar ijtimoiy himoyasi ko‘lamini kengaytirish, davlat organlari, ish beruvchilar tashkilotlari va xodimlar o‘rtasidagi

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yaratilgan yangi ish o‘rinlarini hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 717-sonli qarori. www.lex.uz

munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish borasidagi ijtimoiy muloqot koʻzda tutilgan⁶⁵.

Bizga maʼlumki, bugungi kunda mehnat bozorida boʻsh ish oʻrinlari toʻgʻrisidagi xabarlar turli onlayn platformalar yoki ixtisoslashgan saytlar orqali ish izlovchilar eʼtiboriga etkazish allaqachon ommalashib ketgan. Boʻsh ish oʻrinlari toʻgʻrisida anʼanaviy tarzda yaʼni, televideniya, radio va bosma nashrlar orqali eʼlonlar berish samarasiz ekanligi oʻz isbotini topdi. Raqamli texnologiyalarning mehnat bozori va mehnat munosabatlariga taʼsiri hamda ularning kasblardagi oʻzgarishlarga olib kelishiga doir muammolar boʻyicha Ajemogli va Restreponing⁶⁶ ilmiy tadqiqotlarida chuqur oʻrganilgan. Felten va uning ilmiy jamoasi tomonidan olib borilgan tadqiqotda mehnat bozorini raqamli texnologiyalar taʼsirida oʻzgarishi va xodimlarning kasbiy koʻnikmalarini rivojlantirish masalalariga toʻxtalib oʻtilgan⁶⁷. Yana bir mehnat iqtisodchisi Jaraxi mehnat jarayonida inson oʻrtasidagi munosabatlarni tahlil qilib, yaqin istiqbolida ish joyidagi koʻplab mehnatga oid qarorlar mashinalar tomonidan amalga oshirilishi mumkinligini taxmin qiladi⁶⁸.

“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida 2026 yilga qadar kambagʻallikni 2022 yilga nisbatan ikki barobar, 2030 yilga qadar esa keskin qisqartirish belgilangan. Kambagʻallikka tushish xavfi mavjud boʻlgan 4,5 million aholi daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash maqsad qilingan. Shuningdek, xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi Oʻzbekistonni barpo etish boʻyicha xohish-irodasini roʻyobga chiqarish, har bir

⁶⁵ Abduramanov X.X. Oʻzbekistonda yashil ish bilan bandlik siyosatini amalga oshirish imkoniyatlari. “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017 yil. www.iqtisodiyot.uz

⁶⁶ Acemoglu, D. and P. Restrepo (2019), “Automation and New Tasks: How Technology Displaces and Reinstates Labor”, Journal of Economic Perspectives, Vol. 33/2, pp. 3-30, <http://dx.doi.org/10.1257/jep.33.2.3>

⁶⁷ Felten, E., M. Raj and R. Seamans (2019), “The Occupational Impact of Artificial Intelligence on Labor: The Role of Complementary Skills and Technologies”, NYU Stern School of Business, <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3368605>.

⁶⁸ Jarrahi, M. H. (2018). Artificial intelligence and the future of work: Human-AI symbiosis in organizational decision making. In: Business Horizons. [online]. Vol. 61, No. 4, 2018, pp. 577–586. Available at: <https://doi.org/10.1016/j.bushor.2018.03.007> [Accessed December 10, 2020].

fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida qabu qilingan ushbu Strategiyada 2026-yilga qadar kambag'allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish, kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash, mehnatga layoqatli aholini, shu jumladan yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni barqaror va samarali bandligini ta'minlash orqali ishsizlik darajasini 7 foizgacha tushirish, homiladorlik va tug'ish, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, ish beruvchi yuridik shaxs tugatilganda va tugatilayotgan korxonaning to'lovlar uchun mablag'lari mavjud bo'lmagan hollarda ishdan bo'shatish nafaqalari, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar oqibatidagi sug'urta to'lovlarini kafolatlangan ijtimoiy sug'urta tizimi orqali amalga oshirishni tashkil etish⁶⁹ kabi qator vazifalar belgilab berilgan.

Zamonaviy sharoitda mehnat bozorini samarali boshqarish va tartibga solish uchun ishonchli statistik ma'lumotlar tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat bozorining holatini monitoring qilish, bandlik va ishsizlik darajasini baholash, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish kabi masalalar statistik axborot bazasining sifatiga bevosita bog'liq.


O'zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasi, raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, aholini ish bilan bandligini ta'minlash, masalalari akad. Abdurahmonov va uning ilmiy maktabida keng va ko'p yoqlama tadqiq qilinmoqda⁷⁰. Shuningdek, yana bir mahalliy olim akad. G'ulomov ilmiy tadqiqotida O'zbekistonda zarur bo'lgan infratuzilmani takomillashtirish hamda kadrlar tayyorlashga doir zarur bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish masalalarini

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. www.lex.uz

⁷⁰ Abduraxmanov K.X. (2023) Transformasiya rinka truda v usloviyax vnedreniya iskusstvennogo intellekta. ekonomika truda Tom 10, Nomer 2, Fevral. Russian Journal of Labor Economics ISSN 2410-1613;

tahlil qilgan⁷¹. Aynan, raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozoridagi istqbolli kasblarni rivojlantirish masalalsini iqtisodchi olimi Abduraxmonova) o‘zining “Inson kapitalini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo‘nalishlari” nomli monografiyasida keng va chuqur tahlil qilgan⁷². Tadqiqotlar jarayonida o‘rganilgan aksariyat barcha korxonalar rahbarlari sun’iy intellekt texnologiyalari bilan ishlashda xodimlarni yangi kasb xavflarini aniqlash va ularni oldini olish bo‘yicha o‘qitish va malakasini oshirish lozimligini ta’kidlashdi⁷³.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mehnat bozori statistikasini yuritishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Big Data texnologiyalari, sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish usullari mehnat bozori to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini bermocda⁷⁴.



⁷¹ Gulyamov, S.S., Shermukhamedov, A.T., Mukhiddinova, M.H. (2022). Development of artificial intelligence in Uzbekistan. SJ International journal of theoretical and practical research, 2 (5), 7- 17

⁷² Abduraxmonova G.Q., Rustamov D.J. (2020) “Inson kapitalini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo‘nalishlari”. Monografiya. –Beau Bassin: “GlobeEdit” Publisher, –127 b.

⁷³ Bert Koliyn. (2019) Zasho bezrabotisata v Evropa e napolovina na tazi v SASH. Economic.bg.

⁷⁴ Stiglitz, J., & Sen, A. (2023). Measuring Labor Market Performance: New Approaches and Indicators. Journal of Labor Economics, 41(2), 245-267.


2.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil holatiga mehnat resurslari, ming kishi⁷⁵

Yuqoridagi jadvaldan, Samarqand, Farg‘ona viloyatlari hamda Toshkent shahri mamlakatimizning mehnat resurslari bo‘yicha asosiy ulushga ega hududlar (mos ravishda 2190,9 ming kishi, 2143,3 ming kishi hamda 2068,5 ming kishi) sifatida qady etilgan bo‘lsa, Jizzax (802,0 ming kishi), Navoiy(597,4 ming kishi) hamda Sirdaryo(503,2 ming kishi) viloyatlari aksincha eng kam mehnat resurslariga ega hududlar ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi yalpi ichki mahsulot YaIM ning barqaror o‘shishi bilan harakterlanadi, mamlakatimiz iqtisodiyotidgi tub o‘zgarishlar iqtisodiyotning barcha sohalari singari yalpi ichki mahsulotlar zahirida 2017-2023-yillarda kesimida 1,4 barobarga oshganligi bilan tavsiflanadi. YaIMning yiliga o‘rtacha 5,4 foiz o‘shishiga asosiy sabab ko‘rsatgichlaridan biri asosan xizmat ko‘rsatishdir, yillar salmog‘ida bu samaradorlik 2,4 foizda ko‘rsatgan bo‘lsa, sanoat 1,5 % tarmoqlari salmoqli hissa qo‘shdi. Rivojlangan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida iqtisodiy faollik asosan sanoat 1,6 barobar, qurilish 2,1 barobardan ortiq, xizmatlar 1,8 barobardan 2,4 barobarga, investitsiyalarni jalb qilish esa 1,9 barobar talqin etildi. Turli sohalardagi o‘shish hamda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari sonining 2,2 barobar ortishi hisobiga ta‘minlandi.

Iqtisodiy faol aholi - aholining daromad keltiradigan ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo‘lgan qismi (xizmat ko‘rsatish soxasi xodimlari, shaxsiy yordamchi xo‘jaligida ishlovchilar, bola tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lganlar ham kiradi). Ko‘pgina mamlakatlarda ish bilan band bo‘lganlar va ularning qaramog‘idagilar, davlat qaramog‘idagi shaxslar va ishsizlar ham iqtisodiy faol aholi hisobiga kiritiladi. Rasmiy statistikada mamlakatdagi 16—59 yoshdagi mehnatga layoqatli aholi iqtisodiy faol aholi hisoblanadi(2.2-rasm).

⁷⁵ www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi



2.2-rasm. Aholining iqtisodiy faollik darajasi, %⁷⁶.

Yuqoridagi rasmdan korishimiz mumkinki, aholining iqtisodiy faollik darajasi 2010-yilda (70,7%) o'rganilyatogan davr uchun eng quyi darajada bo'lgan bo'lsa, 2019-yilda (75,0%) o'zining eng yuqori darajasiga erishgan, ammo, 2024-yilga (72,3%) qadar jiddiy ravishda pasayib borgan.

Mehnat resurslari tarkibiga faqat iqtisodiy faol aholigina emas, shu bilan birga hozirgi paytda ishlamayotgan va ish qidirmayotgan mehnatga qobiliyatli shaxslar, shu jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotganlar aholi ham kiritiladi. Mehnat resurslari iqtisodiyotda mehnat bilan band bo'lgan, band bo'lmasa ham mehnat qilishlari mumkin bo'lgan kishilarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda, mehnat resurslari mehnat qilish imkoniyatiga ega haqiqiy va potensial xodimlardir. Mehnat resurslari shakllanishini o'rganishda ularni yosh guruhlari bo'yicha ko'rib chiqishimiz ham maqsadga muvofiqdir. Kishilarni guruhlarga ajratishda ularning yoshi chegaralarini aniqlash asosiy muammo hisoblanadi. Bu masalani hal etishda huquqiy asoslangan va amalda mavjudlarini ajratish muhim rol' o'ynaydi. Bunda inson organizmining nafaqat biologik xususiyatlari, balki mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, aholining turmush darajasi, umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimining holati, o'rtacha umr davomiyligi va boshqalar ham hisobga olinadi.


⁷⁶ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Yuqoridagilarga asoslangan holda ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan aholini yoshiga ko'ra 6 guruhga bo'lish mumkin: 1. Bolalar (0-15 yosh) - mamlakat jami aholisining eng katta qismini tashkil etib, ularning aksariyati mehnat jarayonida ishtirok etmaydi. Ammo ushbu guruh salmog'i mehnat salohiyatining kelgusi va istiqbol ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Chunki bu qatlamning yuqori chegarasidagi o'smirlar tez orada mehnat resurslari safiga qo'shiladi. 2. O'smir yoshlar (16-24 yosh) - mazkur guruhning katta qismi iqtisodiy nafaqat aholi tarkibiga kirib, ular maktab, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlar, tug'ruq ta'tilidagi ayollar hisoblanadi. Shuningdek, ular tarkibida iqtisodiyotning qator soha va tarmoqlarida band bo'lganlari ham mavjud bo'lib, mehnat faoliyati aksariyat hollarda boshlang'ich ko'rinishga ega bo'ladi. 3. O'rta yoshlilar (25-30 yosh) - ular o'zi jismoniy holati va imkoniyatlari jihatdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, mehnatga layoqatli jami aholining asosiy qismini qamrab oladi. Bu guruh vakillari aniq hayot yo'llarini tanlab olgan, o'z oilasiga ega bo'lgan va jamiyatda ma'lum yutuqqa erishgan hisoblanadi. Lekin ularning barchasi ham iqtisodiyotda band bo'lmaydi, chunki bu tarkibda yosh bolali onalar va ayollar ham ko'pchilikni tashkil etadi. 4. 31-59 yoshdagi aholi – ushbu guruhdagi aholi yuksak mehnat salohiyatiga ega bo'lib, hayotiy va ish tajribasining yuqori ko'rsatkichiga erishadi. Shu vaqtgacha olgan amaliy ko'nikma va malakalarini ishlab chiqarish jarayonlariga safarbar etadilar hamda mehnat jamoasida alohida o'rin egallaydilar. Bu toifa insonlar yoshlarga o'rnak va maslakdosh bo'ladi. Ushbu yosh chegarasidagi kishilarning iqtisodiy faollik darajasi boshqalarga nisbatan yuqori hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur qatlamning yuqori qismida pensiya yoshiga etgan ayollar hamda mehnat faoliyatini yakunlash taraddudida bo'lgan erkaklar ham mavjud. 5. 60 dan 70 yoshgacha bo'lganlar – bu qatlam vakillari pensiya yoshiga etgan aholi hisoblanib, ularning aksariyati pensiyada bo'ladi. Lekin, ularning orasida o'z ish faoliyatlarini davom ettirayotganlari ham bo'lib (ayniqsa, erkaklar), ular ham butunlay nafaqaga chiqish va mehnat faoliyatini yakunlash arafasida bo'ladilar. 6. Keksalar (70 va undan katta yosh) – ularning deyarli hammasi

mehnat faoliyatidan chetlashgan bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga ko'ra, aholi mehnat layokati bo'yicha uch guruhga ajratiladi. Jumladan: - mehnatga qobiliyatli yoshgacha (0-15 yosh); - mehnatga qobiliyatli yoshdagi (16-54 yoshli ayollar, 16-59 yoshli erkaklar); - mehnatga qobiliyatli yoshdan kattalar (55 yosh va undan katta ayollar, 60 yosh va undan katta erkaklar).

Resurslarning aksariyat qismini mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga qobiliyatli aholi tashkil etadi. Shuning uchun ham mehnat resurslarining dinamikasiga xos xususiyatlar ko'proq darajada shu yoshdagi aholi bilan bog'likdir. Xizmat qilishga layoqatli yoshdan katta kishilar, ishlovchi pensionerlar va mehnatga layoqatli yoshdan kichik kishilar, ishlovchi o'smirlar resurslar salmog'ida u darajada sezilarli rol o'ynamaydi. Iqtisodiyotda hamisha pensiya yoshdagi kishilar mehnatidan foydalanish «nuqta»lari bo'ladi. Ular orasida yuqori aqliy malaka ishlatishni talab qiladigan faoliyat turlari ham bo'lib, insondan yuqori tayyorgarlik va muayyan amaliy tajribani talab qiladi⁷⁷.



2.3-rasm. Iqtisodiy faol va nafaol aholi soni, ming kishi⁷⁸.

⁷⁷ Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T. Aholi ish bilan bandligi. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2011.
<https://library-samdukf.uz/wp-content/uploads/2022/12/Aholini-ish-bilan-bandligi.-Oquv-qollanma>.

⁷⁸ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2010-yilda iqtisodiy faol aholi soni 12 286,6 ming kishi, iqtisodiy nafaol aholi soni 4 439,4 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, doimiy o'sishdan keyin, mos ravishda, 15 097,9 ming kishi hamda 4 987,3 ming kishini tashkil qilgan. Iqtisodiy nafaol aholi soni 2019-yilga qadar pasayib kelgan hamda 2021-yildan sezilarli darajada doimiy o'sib kelmoqda.

Aholining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishning samarali mexanizmlaridan biri mehnat bozorini maqsadga muvofiq shakllantirish va rivojlantirish hamda uni tartibga solish hisoblanadi. By - ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi uzviy aloqalar va ziddiyatlarni hamda ular hamkorligining samaradorlik mezonlarini aniqlashga, ishchilarni kasb malakasini oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilashda hamda jonli mehnat resurslarini «ortiqcha» va ish joylari «taqchil» sharoitlarida ishchi kuchiga talab va taklifni makroiqtisodiy tartibga solishga pirovardida iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy tadbirlarni maqsadga muvofiq ravishda ishlab chiqarishga samarali imkon beradi. Bunday tadbirlarni ishlab chiqish - sodir bo'layotgan jarayonlarni chuqur ilmiy tadqiq etilishini, mehnat bozori shakllantirilishi va rivojlantirilishining eng muhim muammolarini va ularni ijobiy yangi yo'llarini aniqlashni talab qiladi. Albatta ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirishda ishchi kuchi taklifi va unga bo'lgan talabni o'zida jamlagan mehnat bozorini rivojlantirish juda muhimdir.

Bozor munosabatlari sharoitida mamlakatda yuz beradigan turli ijtimoiy, iqtisodiy, demografik hodisalar to'liq yoki qisman mehnat bozorida yuz berayotgan jarayonlarni aks ettiradi va u qayta ishlab chiqarish tizimida ham muhim rol o'ynaydi. Aynan mehnat bozorida ishchi kuchi oldi-sotdisi amalga oshadi, uning nafliligi va ahamiyati baholanadi.

O'zbekiston Respublikasida shakllangan kuchli ijtimoiy siyosatga ko'ra, jamiyatning asosiy boyligi inson hisoblanadi va respublikamiz uchun mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan bandligini oshirish bo'yicha muammoni xal qilishni eng samarali qurollaridan biri bo'lgan mehnat bozori tushunchasi, tarkibi,

xususiyatlari, vazifalarini tadqiqot qilish va mehnat bozorining rivojlanishni boshqarish masalalarini o'rganish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

2.1-jadval

Rasmiy ravishda ro'yxatga olingan ishsizlar soni dinamikasi

	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ishsizlar, ming kishi	709,4	724,0	837,0	1368,6	1335,3	1561,0	1441,8	1332,7	1024,1	836,0
O'tgan yilga nisb., %da	100,0	102,1	115,6	163,5	97,6	116,9	92,4	92,4	76,8	81,6
Rasmiy ishsizlar, kishi	2712,0	4990,0	14389,0	32333,0	57874,0	37110,0	98689,0	48954,0	36690,0	13723,0
O'tgan yilga nisb., %da	100,0	184,0	288,4	224,7	179,0	64,1	265,9	49,6	74,9	37,4

Yqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2015-yilda 709,4 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda 1,56 mln kishiga yetib, eng yuqori darajaga chiqqan. 2021–2024-yillarda esa asta-sekin kamayib, 2024-yilda 836 ming kishiga tushgan. Demak, 10 yillik davrda umumiy ishsizlik **avval keskin oshib**, keyin **pasayish tendensiyasiga** o'tgan. 2016-yilda o'sish 2,1% bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda birdaniga 15,6%, 2018-yilda esa 63,5% ga o'sgan. 2019-yildan boshlab ko'rsatkich nisbatan barqarorlashib, 2021-yildan pasayish kuzatildi. 2023-yilda eng keskin pasayish (76,8%) qayd etilgan. **Rasmiy ishsizlar soni** 2015-yilda 2,7 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2019-yilda 57,9 ming kishiga chiqib, **21 barobar oshgan**.

2020–2024-yillarda keskin o'zgarishlar kuzatilgan: 2021-yilda 98,7 ming kishiga yetgan, 2024-yilda esa 13,7 ming kishiga tushib ketgan. Bu rasmiy bandlik tizimida **hisobga olish va ro'yxatga olish mexanizmlari o'zgarib turganini** ko'rsatadi. 2015–2020-yillar oralig'ida ishsizlik muammosi kuchaygan, 2021-yildan esa kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Aholini ish bilan ta'minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u mehnat masalalari bilan bog'liq muammolarni hamda mehnatga bo'lgan taklif va talablarni qondirish yo'llarini ochib beradi. Ish bilan bandlik kishilarning ish joylari qayerdaligidan qat'i nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish yuzasidan o'zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridir. Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli kishilarning

qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir.

Aholini ish bilan ta'minlash bu, fuqarolarning ehtiyojini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, qonunlarga zid bo'lmagan va bularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyati, bandlikning ahvoli, uning eng muhim xususiyatlari, milliy farovonlik haqida, iqtisodiy rivojlanish sohasida tanlangan yo'lning samarali ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Ish bilan band aholini shakllanishi, qonuniy ish joyi va mehnat daromadi bilan ta'minlangan aholi sonini ko'payishi bilan bog'liq bo'lib, mehnat masalalari bilan bog'liq muammolarni hamda mehnatga bo'lgan taklif va talablarni qondirish yo'llarini ochib beradi.

Malakali mehnat bozoridagi faol siyosat ko'pincha aholining birmuncha noqulay ahvoldagi guruhlari manfaatlari yo'lida ishlab chiqiladi. Lekin bunday yondashganda aholini maxsus qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan guruhlarini ajratish ancha murakkab hisoblanadi. Bunday guruhlarga ish kuchida cheklangan darajada qatnashuvchi shaxslar (jismoniy nuqsonlari bor kishilar), jinsi va yosh belgisiga ko'ra, ishga yollanishda kamsitilishga duch keladigan shaxslar; ishlab chiqarish faoliyatida alohida qiyinchiliklarni boshdan kechiradigan kishilar, surunkali ishsizlar kirishi mumkin. Mutaxassislarning fikriga qaraganda, mehnat bozoridagi shunday faol siyosat, ya'ni butun aholining manfaatlari yo'lida mehnat bozorining faoliyat yuritish natijalarini yaxshilashga qaratilgan siyosat ko'proq samara berishi bilan ajralib turadi, lekin bunda aholining kam ta'minlangan guruhlari muammolarining o'ziga xos tomonlariga alohida e'tibor beriladi. Boshqacha aytganda, mehnat bozorining umumiy ahvoli yaxshilanganda aholining barcha guruhlarida ahvol yaxshilanadi.

Mehnat bozori ishchi kuchining «mehnatga bo'lgan qobiliyatini» sotish va sotib olish tizimidir. Mehnat bozorining tarkibiy qismlari ishchi kuchi talab, ishchi kuchining taklifi, qiymati va bahosi hamda uni yollashda raqobat hisoblanadi. Mehnat bozori o'zining asosiy vazifalarini bajarish talab va taklif o'rtasidagi farqni kamayishiga va aholining ish bilan bandligining oshishiga olib keladi. Mehnat bozorining shakllanishiga ishchi kuchining «mehnatga bo'lgan

qobiliyatini» tovarga aylanishi, ishchi kuchining erkin taklifi, ish beruvchilarning ishchi kuchiga mustaqil talabi iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishi, ko'p mulkchilikning rivojlanishi kabi iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar bevosita ta'sir etadi. Mehnat bozorining shakllanishida asosiy muammo bo'lgan ishchi kuchiga talabning ortishi va taklifning kamayishi turli omillar, tamoyillar va cheklovlar ta'sirida amalga oshiriladi.

Mehnat bozoridagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jamoa va shaxsiy shartnomalar asosida tartibga solinadi. Mehnat bozorini yaqin kelajakda rivojlantirishning bosh maqsadi – mehnat resurslari bilan ko'p ta'minlangan hududlarda ishchi kuchiga talabni oshirish va uning taklifini kamaytirish. Mehnat bozorining rivojlanish bosqichlari qayd etilgan tadbirlarni amalga oshirilishi yaqin kelajakda ishchi kuchiga talab va taklaf o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishish pirovardida, mehnat resurslarini oqilona bandligini ta'minlash va ishsizlikning kamaytirishga olib keladi.

IKKINCHI BOB BO'YICHA XULOSA

1. Ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, endilikdagi ustuvor vazifalardan biri aholini yirik, kichik va o'rta biznes sohasiga jalb qilishni yanada kuchaytirish, tadbirkorlar qatlamini shakllantirish ko'lamini kengaytirish orqali aholi bandligini va shu orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga erishishdan iborat.

2. Mamlakatimiz mehnat bozorida ham yoshlar ishchi kuchi taklifi va unga talabni muvofiqlashtirish maqsadida hududda yangi ish o'rnolari tashkil etishni yanada ko'paytirish hamda ularning xususiy tadbirkorlik sohasidagi barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yosh ishbilarmonlarga amaliy yordam ko'rsatilishi juda muhim.

3. Mamlakatimizda ishchi kuchiga talab esa yangi ish o'rnolari yaratish, qo'nimsizlik sababli bo'shagan ish o'rnilarini to'ldirish, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlariga o'qishga kirganlar va muddatli harbiy xizmatga chaqirilganlarning, korxona, tashkilot, muassasalardagi bo'sh ish o'rnilarini

to'ldirish, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan band bo'lganlar, mehnat resurslarining tashqi migratsiyasi hisobiga shakllantiriladi.

4.Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda ishchi kuchi taklifini kamaytirish uchun hududlar bandlikka ko'maklashuvchi markazlar inspeksiyalari o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirishlari lozim: mavjud ish joylari haqidagi ma'lumotlar bankini yaratish (21,0 foiz), ishsizlarni va bo'sh ish joylarini to'liq va vaqtida hisobga olish (14,9 foiz), ishchi kuchini rasmiy ravishda chetga chiqarishni rag'batlantirish (11,1 foiz), ishsizlarni, avvalo, ularning ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko'maklashish (10,2 foiz), ishsizlar uchun ijtimoiy ishlarni tashkil etish (9,9 foiz), kasanachilik mehnati va boshqa turdagi ish bilan bandlikni rag'batlantirish (8,0 foiz) va boshqalar.

III-BOB: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN FOYDALANISH HOLATINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA STATISTIK PROGNOZLASH

3.1.O‘zbekiston Respublikasida aholi bandligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 31yanvardagi 42-sonli qarorida aytiladiki: “Aholining ish bilan ta‘minlanganlik darajasi va tarkibi xalqaro standartlarga muvofiq to‘liq va xolis baholanishni ta‘minlash mintaqalarda aholini ish bilan oqilona ta‘minlash va yangi ish o‘rinlarini barpo etish muammosini samarali hal etish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni aniqlash, aholini ish bilan ta‘minlanganligini hisobga olish tizimini yanada takomillashtirish» belgilab berilga.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida»gi qonunning 17-moddasida qayd etib o‘tilganki, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aholini ish bilan ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish borasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

aholini ish bilan ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish;

aholini ish bilan ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatining umumiy prinsiplari amalga oshirilishini ta‘minlovchi normativ hujjatlar qabul qilish;

aholini ish bilan ta‘minlash yuzasidan hududiy tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

fuqarolarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash yoki ayrim turdagi ishlarni (kasblarni) ehtiyot tariqasida saqlab turish;

mehnat bozoridagi ahvol barqarorlashuviga ko‘maklashuvchi, shu jumladan, mehnat shartnomalari ommaviy ravishda bekor qilinishining oldini olishni, mavjud ish joylarini saqlab qolish va yangi ish joylarini yaratishni haq to‘lanadigan vaqtinchalik va jamoat ishlarini tashkil qilishni, ustuvor rivojlanish hududlarini aniqlashni o‘z ichiga olgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish

kabilar aholini ish bilan ta'minlash hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishning huquqiy asoslari bo'la oladi.

Bizning fikrimizcha, "Aholini ish bilan ta'minlash hududiy dasturlari"ni to'g'ri ishlab chiqish va tatbiq etishni tashkil etish uchun quyidagilar amalga oshirilishi zarur.

Dasturning maqsadi - ish bilan band bo'lmagan va rasmiy ishsizlarni qayta tayyorlash, ishga joylashtirishni tashkil etish va boshqa tadbirlar asosida ishchi kuchiga talab va uning taklifi muvozanatini ta'minlashga mo'ljallangan kompleks tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

O'z navbatida ushbu maqsadni amalga oshirishning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- mehnat bozorini tartibga solish;
- aholining iqtisodiy faolligini beto'xtov oshirib borish;
- mehnat resurslaridan unumli foydalanish;
- hududlardagi ishsizlik darajasining oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- turli mulkchilik shakllari va tarmoqlar bo'yicha ish joylari yaratish sur'atlari va hajmlarini ta'minlash;
- ish bilan bandlar va ishsizlarning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash va boshqalardir.

Mamlakatimiz aholisining umumiy o'sishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri uning hududlararo o'zgarishidir (migratsiya), Masalan, respublika aholisi migratsiya harakati tufayli o'zgarishi 2021 yilda minus 10,3 ming kishini tashkil qilgan (ya'ni respublikaga keluvchilarga nisbatan ketuvchilar 124,3 ming kishiga ko'p).

Respublikadagi demografik vaziyat:

- umumiy aholi tarkibida balog'at yoshiga etmaganlar 2021 yil boshida 37% foizdan ortiqroqni tashkil etdi.
- respublikada 2021 yilda har 1000 erkak kishiga 1003 xotin-qizlar to'g'ri keldi.

- respublikada aholining o'rtacha yillik o'sishi miqdori 650 ming kishiga teng, o'rtacha o'sish sur'ati 1,7% foizga teng.

Respublikada ijtimoiy infratuzilmani yangi ob'ektlarini ishga tushirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi.

- yuqori eksport salohiyatiga ega bo'lgan iste'molga tayyor mahsulot ishlab chiqarish to'la jarayonini ta'minlovchi zamonaviy yuqori unumli texnologiyalar va qurilmalar bilan jihozlangan yangi ob'ektlarni ishga tushirish.

Aholini ish bilan ta'minlash hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishning huquqiy asoslari quyidagilar:

“Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 24 iyundagi “Aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish tartibini tasdiqlash to'g'risida”gi 310-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 31 yanvardagi “Aholini ish bilan ta'minlanganligini hisobga olish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 42-sonli qarori.

Aholini ish bilan ta'minlash hududiy dasturini ishlab chiqishda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga e'tibor berish, aholini, ayniqsa, uning ijtimoiy jihatdan zaif himoyalangan toifalarining farovonligini oshirish maqsadida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqish. Bu tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil qilish uchun mehnatga qobiliyatli, ishlamayotgan oila a'zolari bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga kredit mablag'lari ajratish;

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari kafolati bo'yicha garovsiz kreditlash va o'zaro kreditlash mexanizmlarini banklar imkoniyatlaridan yanada faolroq va to'laroq foydalanish hisobiga takomillashtirish;

- xalqaro moliyaviy tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar, hayriya jamg'armalari va boshqa tashkilotlar kredit resurslarini jalb qilgan holda oilaviy, jumladan, kam ta'minlangan oilalar tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash;

- kam ta'minlangan oilalarning ish bilan band bo'lgan a'zolarini tadbirkorlik va mustaqil ish yuritish ko'nikmalariga o'qitishni tashkil qilish.

Aholini ish bilan ta'minlash hududiy dasturlarini ishlab chiqishda kichik va xususiy tadbirkorlik sohasida ish bilan bandlik darajasini oshirish. SHu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- mahalliy xom ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga, raqobatbardosh halq iste'mol mollarini ishlab chiqarishga, turli xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini, ayniqsa, qishloq joylarida jadal rivojlantirishni ta'minlash;

- o'zini-o'zi boshqarish organlari kafolati bilan garovsiz mikrokreditlash yo'li bilan oilaviy, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarni jalb qilib tadbirkorlikni ustuvor rivojlantirishni ta'minlash;

- tadbirkorlarning mustaqil ish yuritishlarini tashkil qilish, tovar bozorlaridagi vaziyat to'g'risidagi konsalting muassasalari yordamida o'qitishni tashkil qilish;

- ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi va boshqa byudjetdan tashqari fondlar hisobidan moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanuvchi kichik va xususiy korxonalarni xorijiy firmalar ishtirokida rivojlantirish. Aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqishda dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish zaruriyatga aylanadi.

- qishloq xo'jalik texnikalaridan hamkorlikda foydalanish bo'yicha ixtisoslashgan shirkatlarni tashkil qilish;

- qishloq joylarida dehqon va fermer xo'jaliklarini huquqiy, iqtisodiy marketing sohalari bo'yicha axborot, xo'jalik yuritishning zamonaviy usullari bilan tanishtiruvchi va ta'minlovchi maxsus xizmatlarni tashkil qilish;

- dehqon xo'jaliklari egalari va a'zolariga ijtimoiy sug'urtalashning afzalliklari va hususiyatlari to'g'risidagi tushuntirish ishlarini olib borishni faollashtirish;

- dehqon va fermer xo'jaliklari rahbarlarining ilg'or agrotexnika qoidalarini va qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti bo'yicha kasbga o'qitish va malakasini oshirish tizimini yaratish;

Aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqishda mehnatni tashkil qilishga alohida e'tibor berish kerak.

Mehnatni tashkil qilishning uy mehnati (kasanachilik) shakllarini rivojlantirish. Uy mehnati aholining ijgimoiy jihatdan zaif ta'minlangan toifalarini ish bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib uni yanada rivojlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. SHu maqsadda quyidagilarni ko'zda tutish zarur:

- tumanlardagi mahalliy sharoitlarni to'la inobatga olgan holda korxonalarda mavjud bo'lgan imkoniyatlardan to'liq foydalanib uy mehnatidan foydalanishning samarali turlarini amaliyotga joriy qilish. Bu borada tashabbuskor bo'lgan ish beruvchilar faoliyatini imtiyozlar orqali rag'batlantirish;

- uy mexnatida ish bilan band bo'lgan oilalar uchun etarli iqtisodiy shart-sharoitlar yaratishni tashkil qilish. Ish beruvchilar tomonidan kasanachilikda ish bilan bandlar uchun korxonalar ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar bilan barobar imtiyozlar va sharoitni yaratishni rag'batlantirish;

- kasanachilikka ixtisoslashgan korxonalarni ishga tushirish amaliyotini joriy qilish. Buning uchun ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi va tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Albatta bu ishlarni amalga oshirishda moliyaviy manbalar muhim rol o'ynaydi, ular quyidagilardir, ya'ni moliyalashtirish manbalari: byudjet mablag'lari; korxonalar mablag'lari; tijorat banklari kreditlari; chet el investitsiyalari; aholi mablag'lari; ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi mablag'lari; byudjetdan tashqari boshqa jamg'armalar mablag'lari bo'lishi mumkin.

Aholini ish bilan ta'minlash hududiy dasturlarini amalga oshirishni tashkil etish uchun mas'uliyat quyidagilar bo'la olishi haqiqatga yaqindir:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari;

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'alikni qisqartirish va bandlik vazirligi;

- bandlik va mehnat munosabatlari bo'yicha hududiy boshqarmalari;
- tuman (shaharlar) mehnat,bandlikka ko'maklashish Markazlari;
- fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari raxbarlari;
- davlat aktivlarini boqarish agentligi va uning joylardagi bo'limlari;
- savdo-sanoat palatasi;
- xo'jalik boshqaruv organlari (vazirliklar, assotsiatsiyalar, kompaniyalar, korxonalar va hokazolar).

O'z navbatida, aholini ish bilan ta'minlash dasturini amalga oshirishda va hayotga tadbiq etishda va dasturlarni amalga oshirishda hokimliklarning funksiyalari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

- Davlat va xo'jalik, boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (korxonalar), fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining yangi ish o'rinlari yaratish va aholini ish bilan ta'minlash masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi.

- Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (korxonalar), fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining yangi ish o'rinlari yaratish va aholini ish bilan ta'minlash masalalari bo'yicha hisobotini har oyda kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashning kengaytirilgan yig'ilishlarida eshitib boradi;

- Viloyat, tuman va shaharlarda maxalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda yangi ish o'rinlari yaratish, tegishli boshqaruv bo'yicha hujjatlarni qabul qilish va aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha yuzaga kelgan muammolarni tezkorlik bilan hal qilishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqadi;

- Joylarda, ayniqsa, mehnat bozoridagi vaziyat keskin bo'lgan tumanlarda yangi ish o'rinlari yaratish uchun bank mablag'lari va moliyalashtirishning boshqa manbalarini jalb qiladi;

- Fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun er va boshqa moddiy resurslarni ajratib beradi (bino va inshootlar);

Yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik korxonalar, mikrofirmalar va oilaviy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni sotish


Aholini yashash darajasini (turmush sharoitini) ifodalovchi asosiy, integral, pirovard ko'rsatkich (YAD)	YAD = MD/AHOLI	Demak, YAD ni oshirish uchun, bir tomondan MD (milliy daromad, foyda, xarajatlarni kamaytirish va.x.k.) ko'paytirish, ikkinchi tomondan demografik bosimni kamaytirish yoki ish o'rinlarini kerakli miqdorda yaratilishini ta'minlash lozim
Ish o'rinlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash		
Zarur, kerak, etarli bo'lgan ish o'rinlari (IO') soni: 1) ish bilan ta'minlashga muhtoj vaqtincha band bo'lmagan aholi (V), 2) mehnatga layoqatli aholi sonini ko'payishi (MR) va 3) korxonalardan bo'shatiladigan xodimlar xajmidan (B) kelib chiqib aniqlanadi	IO' = V+MR+Z	Ish o'rinlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda aholining band bo'lgan va ishsiz toifalarini aniq va to'la bilish, mehnatga layoqatli aholi sonini ko'payishi (o'z navbatida bu jarayon aholining tug'ilish va o'lish, migratsiyasi sohalarida olib boriladigan ishlar bilan bog'liq) hamda xodimlarni bo'shab chiqishini (masalan, shirkatlardan) hisobga olishni ham talab qiladi

bo'yicha yarmarkalar tashkil qilish, tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini soddalashtirish orqali yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish

3.1-rasm. Ish o'rinlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash⁷⁹

Aholini ish bilan ta'minlash dasturi band bo'lmagan aholi, bo'shatilayotgan Aholini ish bilan ta'minlash dasturi band bo'lmagan aholi, bo'shatilayotgan xodimlar va ishsizlarni ishga joylashtirilishi, kasbiy tayyorlanishi va qayta tayyorlanishini tashkil etish yo'li bilan ishchi kuchiga bo'lgan taklif va talablarni muvozanatga keltirilishini davlat tomonidan tartibga solish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

⁷⁹ Muallif ishlanmasi



3.2-rasm. Mehnat bozori va uni boshqarishning asosiy yo‘nalishlari⁸⁰

Aholini ish bilan ta'minlash hududiy dasturlarining tarkibi quyidagicha bo'ladi:

- mehnat bozorining qisqacha baholanishi;
- mulkchilik va xo'jalik yuritishning barcha shakllaridagi korxonalarda, shu jumladan kichik korxonalarda va tadbirkorlik sohasida yangi ish o'rinlari yaratish;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish asosida aholi bandligining yangi shakllarini rivojlantirish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalarini ish bilan ta'minlashni tartibga solish;
- haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish;
- xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- xodimlarning bo'shab chiqish jarayonlarini tartibga solish;

⁸⁰ Muallif ishlanmasi

- aholini ish bilan ta'minlash muammolarini birinchi navbatda rivojlantiriladigan hududlar (aholi yashash joylari) ni aniqlash;

- qishloq joylarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga mo'ljallangan korxonalarni tashkil qilish, dehqon va fermer xo'jaliklarini hamda tadbirkorlikni rivojlantirish asosida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish;

- yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlikni va xo'jalik yuritishning boshqa shakllarini rivojlantirish.

Aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqishning ma'lumotlar manbasi bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

1. Ishga joylashishga muhtoj shaxslarni aniqlash yuzasidan monitoring tadqiqotlari;

2. Aholining demografik rivojlanish holati prognozi.

3. Aholi yashash joylaridagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilishga to'g'ri keladigan bo'sh binolarni inventarizatsiya qilish;

4. Yangi ish o'rinlari yaratish yo'nalishlarini aholi yashash joylarida tegishli infratuzilmaning mavjud yoki mavjud emasligiga bog'lash;

5. Tijorat banklari kreditlari, korxonalar, byudjet va Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan yangi ish o'rinlari yaratishning moliyaviy ko'lamlari va imkoniyatlarini aniqlash.

Ilmiy ishimizda aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqishda hisobga olinadigan, ish bilan bandlikni oshirishning omillari va imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi yangi ob'ektlarini ishga tushirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- yuqori eksport salohiyatiga ega bo'lgan iste'molga tayyor mahsulot ishlab chiqarish to'la jarayonini ta'minlovchi zamonaviy yuqori unumli texnologiyalar va qurilmalar bilan jihozlangan yangi ob'ektlarni ishga tushirish;

- ortiqcha mehnat resurslari mavjud bo'lgan hududlarda va qishloq joylarida mehnat bozorida talab va taklifni muvozanatlashni ta'minlovchi yangi ob'ektlarni ustivor tarzda joylashtirish;

- bozor muhitiga tez moslashuvchi va kichik ko'lamli korxonalarni ko'proq tashkil qilish, mahsulot ishlab chiqarishda tez o'zgaruvchi bozor kon'yunkturasini hisobga oluvchi qulay texnologiyalardan foydalanish;

- ko'proq mahalliy tabiiy-xom ashyo va moddiy resurslardan foydalanib ishlovchi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan yangi ob'ektlarni, jumladan birinchi navbatda ayollarning ish bilan bandligini ta'minlovchi engil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini ishga tushirish;

- ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanish, korxonalarni texnik qayta qurollantirish va kengaytirish hisobiga ish o'rinlarini ko'paytirish;

- har bir tumanda mavjud ishlab chiqarish qurilmalaridan to'laroq foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash aniq chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Bunda korxonalarni raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish;

- mahsulot sotish bozorlarini va texnik jihatdan qayta qurollanishga bo'lgan ehtiyojni kompleks o'rganish asosida sanoat va qurilish korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi va qurilmalar smena koeffitsientini oshirish tarmoq dasturlarini ishlab chiqish;

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni kuchaytirish bo'yicha tadbirlarni moliyaviy jihatdan, jumladan ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi hisobidan qo'llab-quvvatlash;

- ish beruvchilarning texnologik qurilmalardan samarali foydalanish, ma'muriyat aybi bilan smenalardagi bekor turib qolish, yangi va chetdan keltirilgan qurilmalarni ishga tushirish normativ muddatlariga rioya qilish yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish.

Aholi, ayniqsa uning ijtimoiy jihatdan zaif himoyalangan toifalarining farovonligini oshirish maqsadida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqish. Bu tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil qilish uchun mehnatga qobiliyatli ishlamayotgan oila a'zolari bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga kredit mablag'lari ajratish;

- mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari kafolati bo'yicha garovsiz kreditlash va o'zaro kreditlash mexanizmlarini banklar imkoniyatlaridan yanada faolroq va to'laroq foydalanish hisobiga takomillashtirish;

- xalqaro moliyaviy tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar, xayriya jamg'armalari va boshqa tashkilotlar kredit resurslarini jalb qilgan holda oilaviy, jumladan kam ta'minlangan oilalar tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash;

- kam ta'minlangan oilalarning ish bilan band bo'lmagan a'zolarini tadbirkorlik va mustaqil ish yuritish ko'nikmalariga o'qitishni tashkil qilish.

Kichik va xususiy tadbirkorlik sohasida ish bilan bandlik darajasini oshirish. SHu maqsadda:

- mahalliy xom ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga, raqobatbardosh xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishga, turli xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini ayniqsa qishloq joylarida jadal rivojlantirishni ta'minlash;

- o'zini o'zi boshqarish organlari kafolati bilan garovsiz mikrokreditlash yo'li bilan oilaviy, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarni jalb qilib, tadbirkorlikni ustivor rivojlantirishni ta'minlash;

- tadbirkorlarning mustaqil ish yuritishini tashkil qilish, tovar bozorlaridagi vaziyat to'g'risida konsalting muassasalari yordamida o'qitishni tashkil qilish;

- ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi va boshqa byudjetdan tashqari fondlar hisobidan moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanuvchi kichik va xususiy korxonalarni xorijiy firmalar ishtirokida rivojlantirish.

Dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, buning uchun:

- qishloq xo'jalik texnikalaridan hamkorlikda foydalanish bo'yicha ixtisoslashgan shirkatlarni tashkil qilish;

- qishloq joylarida dehqon va fermer xo'jaliklarini huquqiy, iqtisodiy, marketing sohalari bo'yicha axborot, xo'jalik yuritishning zamonaviy usullari bilan tanishtiruvchi va ta'minlovchi maxsus xizmatlarni tashkil qilish;

- dehqon xo‘jaliklari egalari va a‘zolariga ijtimoiy sug‘urtalashning afzalliklari va xususiyatlari to‘g‘risidagi tushuntirish ishlarini olib borishni faollashtirish;

- dehqon va fermer xo‘jaliklari rahbarlarining ilg‘or agrotexnika qoidalari va qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti bo‘yicha kasbga o‘qitish va malakasini oshirish tizimini yaratish;

- dehqon va fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni chakana sotish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida dehqon bozorlarini zarur zamoniy savdo uskunalari va saqlash qurilmalari bilan jihozlash.

Mehnatni tashkil qilishning uy mehnati (kasanachilik) shakllarini rivojlantirish. Uy mehnati aholining ijtimoiy jihatdan zaif ta‘minlangan toifalarini ish bilan ta‘minlashda katta ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib uni yanada rivojlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. SHu maqsadda quyidagilarni ko‘zda tutish zarur:

- tumanlardagi mahalliy sharoitlarni to‘la inobatga olgan holda korxonalarda mavjud bo‘lgan imkoniyatlardan to‘liq foydalanib uy mehnatidan foydalanishning samarali turlarini amaliyotga joriy qilish. Bu borada tashabbuskor bo‘lgan ish beruvchilar faoliyatini mahalliy imtiyozlar orqali rag‘batlantirish;

- uy mehnatida ish bilan band bo‘lgan oilalar uchun etarli iqtisodiy shart-sharoitlar yaratishni tashkil qilish. Ish beruvchilar tomonidan kasanachilikda ish bilan bandlar uchun korxonalar ishlab chiqarishida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar bilan baravar imtiyozlar va sharoitlar yaratishni rag‘batlantirish;

- kasanachilikka ixtisoslashgan korxonalarni ishga tushirish amaliyotini joriy qilish. Buning uchun ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi va tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Ushbu dasturlarni ishlab chiqish ketma-ketligi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Band bo‘lmagan aholining soni va tarkibini aniqlash. Band bo‘lmagan aholi tarkibi statistik tahlili hududda aholini ish bilan ta‘minlash muammolarini hal etishda chora-tadbirlar yo‘nalishlarini asoslangan holda belgilash uchun


zarur. Bunda mehnat bozori, mehnat resurslari balansi va mehnat idoralari statistik ma'lumotlari asosida band bo'lmagan aholi soni aniqlanadi.

2. Bo'sh ish o'rinlari va vakant lavozimlar tarkibini aniqlash. Bo'sh ish o'rinlari va vakant lavozimlarning miqdor va sifat tarkibi korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida hisoblanadi.

3. Ish qidiruvchi, ish bilan band bo'lmagan shaxslar va bo'sh ish o'rinlarining kasbiy tarkibini taqqoslama tahlil qilish. Ish qidiruvchi, ish bilan band bo'lmagan shaxslar va bo'sh ish o'rinlarining kasbiy tarkibini taqqoslama statistik tahlil qilish. Ish qidiruvchi, ish bilan band bo'lmagan shaxslar va bo'sh ish o'rinlarining kasbiy tarkibini taqqoslama tahlil qilish ish qidiruvchi, ish bilan band bo'lmagan shaxslar va bo'sh ish o'rinlarining kasbiy tarkibi orasidagi moslikni aniqlash imkonini beradi. Bu esa kasbga o'qitish qayta tayyorlash va yangi ish o'rinlari yaratish tizimini takomillashtirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

4. Ish bilan band bo'lmagan, ish qidiruvchi, kasbiy o'qitish va qayta tayyorlashga muhtoj bo'lgan aholi sonini aniqlash. Mehnat idoralari kadrlar tayyorlash muassasalari bilan hamkorlikda bo'sh ish o'rinlari va ish bilan ta'minlanmagan, ish qidirayotgan aholi kasb tarkibining taqqoslama tahlilidan kelib chiqib, kasbga o'qitish yo'nalishlarini aniqlaydi.

5. Ish bilan band bo'lmagan, ish qidirayotgan shaxslar uchun yaratilishi kerak bo'lgan ish o'rinlari miqdorini aniqlash. Ish bilan band bo'lmagan, ish qidirayotgan shaxslar uchun talab qilinadigan ish joylari miqdori quyidagi yo'nalishlarda aniqlanadi: turli mulk shakllaridagi korxona va tashkilotlarni ishga tushirish; korxona va tashkilotlarni qayta ta'mirlash va kengaytirish; mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanish.



3.3-rasm. Dasturlarni ishlab chiqish ketma-ketligi⁸¹

⁸¹ Muallif ishlanmasi

Dasturlarni amalga oshirish bosqichlari

I bosqich. Dasturlarni ishlab chiqish		
1	Ish bilan bandlik holatining statistik tahlili. Tahlil demografik ma'lumotlar, mehnat resurslari balansi, boshqa dasturlar ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.	Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari
2	Ishchi kuchi taklifini baholash, bunda ish bilan ta'minlanishga muhtojlar toifalari va ish joylariga bo'lgan mos talab aniqlanadi: - ta'lim muassasalari bitiruvchilari; - ish joylari qisqartilishi natijasida bo'shab chiqqanlar; - faol ish qidirayotgan ish bilan band bo'lmaganlar; - boshqalar (Qurolli Kuchlardan bo'shatilganlar, jazo o'tash muassasalaridan ozod etilganlar)	Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari
3	Ishsizlarning soni va tarkibi aniqlanadi	Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari
4	Ishchi kuchiga bo'lgan talab aniqlanadi (ish joylari). Mavjud ish joylari miqdorini aniqlash ish joylari balansi asosida amalga oshiriladi.	Iqtisodiyot va statistika bo'limlari, mehnat organlari
5	Ishchi kuchi taklifi va ishchi kuchiga bo'lgan talab o'rtasidagi farq aniqlanadi. Aniqlangan farq asosida ish joylari yaratish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqiladi.	Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari

Dasturlarni ishlab chiqish muddatlari. Dasturlar choraklarga bo'lib, yarim yil va yillik uchun ishlab chiqiladi. Bunda har chorakda dasturning bajarilishi tahlil qilinadi va unga tuzatishlar kiritiladi. Viloyat Kambag'alikni qisqartirish va bandlik vazirligi bosh boshqarmalari taqdim qilingan tuman (shahar) dasturlarining loyihalarini ko'rib chiqadilar va hokimliklarning tegishli boshqarmalari, manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda viloyat bo'yicha, har bir tuman (shahar) bo'yicha dasturlarni ishlab chiqadilar va dasturlar ishlab chiqilgan davrdan 30 kun oldin dastur bo'limlarini kelishish uchun O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga taqdim etadilar. Dasturlar 20 kun davomida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan kelishilib, tasdiqlash uchun hokimliklarga yuboriladi.

II bosqich. Dasturni tasdiqlash va amalga oshirish

1	Dasturni tasdiqlash	Xokimiyat
2	Tashkilotlar va muassasalar bo'yicha ish joylari yaratish va ish bilan ta'minlash vazifalarini taqsimlash	Xokimiyat, Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari
3	Kasbga o'qitish va qayta tayyorlashni tashkil etish	Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari, ish beruvchilar
4	Dasturni amalga oshirishni moliyalashtirish	Xokimiyat, banklar, barcha boshqa moliyaviy manbalar hisobidan
5	Ishchi kuchi talabi va taklifi bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish	Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari
6	Ish bilan ta'minlashga muhtoj , va ishsizlarni hisobga olish, ularni ishga joylashtirish	Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari
7	Ish bilan bandlik va ishsizlik sohasida aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish	Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari
8	Dasturning amalga oshirishini nazorat etish	Xokimiyat, mehnat idoralari

Dasturlarni amalga oshirishda hokimliklarning roli. Dasturlarni amalga oshirish unda ishlab chiqilgan yo'nalish va ko'rsatkichlarga muvofiq aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilashni ko'zda tutadi. Qayd etilgan chora-tadbirlar hokimliklarning o'z hududlari bo'yicha korxona va tashkilotlarga ish o'rinlari yaratish, aholini ish bilan ta'minlash tadbirlarini moliyalashtirish, mehnat organlariga ish bilan band bo'lmagan va shtatlar qisqarishi natijasida bo'shab qolgan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash, shuningdek aholini ijtimoiy himoya qilish yuzasidan topshiriqlar berishni o'z ichiga oladi.

O'z hududi bo'yicha korxona va tashkilotlarga yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha topshiriqlar hokimliklar tomonidan o'rnatiladi.

Dasturlarning amalga oshirilishini ta'minlash va nazorat qilish joylardagi mahalliy hokimliklar va mehnat organlari zimmasiga yuklatiladi:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (korxonalar), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining yangi ish o'rinlari yaratish va aholini ish bilan ta'minlash masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (korxonalar), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining yangi ish o'rinlari yaratish va aholini ish bilan ta'minlash masalalari bo'yicha hisobotini har oyda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengashning kengaytirilgan yig'ilishlarida eshitib boradi;

- viloyat, tuman va shaharlarda mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda yangi ish o'rinlari yaratish, tegishli boshqaruvga doir hujjatlarni qabul qilish va aholini ish bilan ta'minlash dasturlarining bajarilishini ta'minlash bo'yicha yuzaga kelgan muammolarni tezkorlik bilan hal qilishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqadi;

- joylarda, ayniqsa, mehnat bozoridagi vaziyat keskin bo'lgan tumanlarda yangi ish o'rinlari yaratish uchun bank mablag'lari va moliyalashtirishning boshqa manbalarini jalb qiladi;

- fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun er va boshqa moddiy resurslarni ajratib beradi (bino va inshootlar);

- yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik korxonalar, mikrofirmalar va oilaviy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni sotish bo'yicha yarmarkalar tashkil qilish, tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini soddalashtirish yo'li orqali yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish.

3.2. Aholi bandligi ko'rsatkichlarining statistik axborotlar bazasini takomillashtirish yo'llari

Mehnat statistikasida aholining bandlik ko'rsatkichlari milliy iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalarini aks ettiruvchi muhim statistik ko'rsatkichlardan biri bo'lib, ular milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va aholining turmush farovonligi darajasini baholashga xizmat qiladi. Yangi ish o'rinlari yaratilishi bilan bir vaqtda iqtisodiy rivojlanish samarali bandlik va ishsizlik darajasini pasaytirishga erishishning eng muhim zaruriy sharti hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatda mehnat statistikasi holatini tahlil qilish hamda statistik baholash uchun rasmiy statistikada mehnat bozori holatini aks ettiruvchi statistik ko'rsatkichlar tizimi mukammal darajada ishlab chiqilishi zarur.

Iqtisodiyoti rivojlangan etakchi davlatlarning ko'plarida aholi bandligi ko'rsatkichlarini omilli statistik tahlil (iqtisodiy indekslar, korrelyasion-regression analiz) qilishda foydalaniladigan muhim statistik ko'rsatkichlar tizimi mehnat bozoridagi holatni har tomonlama to'liq tavsiflash hamda rasmiy statistika tomonidan kompleks o'rganilib, majmuaviy statistik ko'rsatkichlar tizimi ko'rinishida mujassamlashgan bo'ladi. Ushbu jihatlar rivojlangan xorijiy davlatlarda mehnat bozoridagi holatni aniq va o'rganilgan rasmiy ko'rsatkichlarga tayangan holda statistik tahlil qilish va ular asosida muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Tahlillarimizga ko'ra, barqaror iqtisodiy rivojlanishni oldindan ko'ra bilish va boshqarilishiga erishishning muhim bosqichlaridan biri ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qisqa, o'rta hamda uzoq muddatli prognozlash hisoblanadi. Turli darajalarda (qisqa, o'rta va uzoq muddatli) va har xil usullarda (eng kichik kvadratlar, ekstrapolyasiya, ekspert baholash, trend va boshqalar)da prognozlarni ishlab chiqishda eng muhim konsepsiyalar va g'oyalardan tashqari alohida jarayonlar va holatlarning ko'lami hamda intensivligini, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini o'lchash, shuningdek, statistik jihatdan miqdoriy baholash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida bugungi raqobat sharoitida quyidagilarni o'z ichiga oluvchi ishchi kuchi, bandlik va aholi daromadlarini hisobga olish tizimi amal qilmoqda:

turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining statistik hisobotlari asosida ulardagi ishlovchilar soni va tarkibiy tuzilmasi, ishchi kuchining demografik xususiyatlari va boshqalar to'g'risidagi mehnat statistikasi asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha haqqoniy statistik ma'lumotlarni to'plash. Bular yoppasiga statistik kuzatish (statistik xisobot) va qisman statistik kuzatish usullari (asosiy massivni kuzatish, monografik kuzatish, tanlanma kuzatish va anketa orqali kuzatish) orqali amalga oshiriladi;

aholi bandligining turli ko'rinishlari, jumladan, norasmiy bandlik to'g'risida, aholi daromadlari tarkibi va manbalari to'g'risida statistik ma'lumotlarni taqdim etuvchi uy xo'jaliklari byudjetini keng doirada statistik o'rganish. Bunda respublikamizda mavjud bo'lgan 6886 mingta uy xo'jaliklaridan har yili 10000 tasi (0,2 %) tanlab olinib, har oyda 833 tasi ustidan planshetlar yordamida kuzatishlar olib boriladi, kelgusida ularning faoliyatini yanada kengroq o'rganish maqsadida interv'yuerlar va respondentlar uchun motivatsiyalash tizimini rivojlantirish zarur;

doimiy ravishda aholi bandligi tuzilmalari tomonidan ishlab chiqilgan mehnat resurslari balansini tanlanma o'rganish;


hududiy bandlik markazlari statistik ma'lumotlari asosida ishsizlik darajasi va statistikasini hisobga olish va boshqalar.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatini ifodalovchi statistik ma'lumotlarni yig'ish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari yillik Dasturi doirasida amalga oshiriladi. SHuni ta'kidlash zarurki, 2018 yildan boshlab, ushbu Dasturga oldingi yillardagidan sezilarli farq qiluvchi muhim o'zgarishlar kiritilgan. Misol uchun, Dasturga yangi bo'limlar qo'shildi, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar ro'yxati kengaytirildi, har bir bo'lim uchun axborot-tahliliy ma'lumotlar tayyorlash belgilandi, davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti (www.stat.uz)ga statistik ma'lumotlar taqdim etish bo'yicha vizual interaktiv xizmatlar joylashtirish

koʻzda tutildi. Yana bir muhim natija avval amal qilgan iqtisodiy tarmoqlar boʻyicha xoʻjalik yurituvchi subʼektlar tasnifi iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha tasnifining joriy etilganligida namoyon boʻladi.

Ilmiy kuzatishlarimizga koʻra, Dasturga muhim oʻzgarishlar kiritilgan boʻlsa-da, uning mehnat statistikasiga aloqador boʻlimlariga ayrim zaruriy oʻzgarishlarni kiritish lozim. Bandlik va ijtimoiy-mehnat munosabatlarini aks ettiruvchi koʻrsatkichlar Davlat statistika ishlari yillik Dasturining “Milliy hisoblar statistikasi” deb nomlanuvchi 1-boʻlimi va “Aholining iqtisodiy faolligi, ishchi-xodimlar mehnatiga haq toʻlash va mehnat sharoitlari” deb nomlanuvchi 7-boʻlimida oʻz aksini topgan. Dastur boʻyicha bandlik koʻrsatkichlari Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan 5 ta koʻrsatkich boʻyicha maʼlumotlar yigʻish hamda Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi tomonidan 9 ta asosiy hosila koʻrsatkichlari asosida aniqlanadi.

Statistika ishlarining yillik Davlat dasturlarini statistik tahlil qilish natijasida Oʻzbekistonda mehnat statistikasi koʻrsatkichlarini oʻlchashda quyidagi kamchiliklar hamda hal etilishi zarur boʻlgan jihatlarni koʻrib chiqamiz (3.1-rasm):



3.1-rasm. Milliy va hududlar darajasida mehnat statistikasi koʻrsatkichlarini aniqlashdagi asosiy muammolar⁸²

⁸² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bizning fikrimizcha, yuqorida ko'rsatib o'tilgan jihatlarning har birini to'liq va atroflicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. Xususan:

1. Mehnat bozoridagi aholi bandligi holatini o'zaro omilli bog'lanishlar asosida ko'p omilli statistik tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarning etarli darajada qamrab olinmaganligi. Bugungi kunda milliy statistika tizimida aholi bandligi va ish haqi bilan bog'liq bir nechta (15 ta atrofida) asosiy statistika ko'rsatkichlari yig'iladi. Ammo ushbu statistik ko'rsatkichlar mehnat bozoridagi bandlik holatini ko'p omilli bog'lanishlar asosida statistik tahlil qilish uchun etarli emas.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida (masalan, Rossiya Federatsiyasi, Belarus) yig'iladigan bandlik va ish haqi bilan bog'liq statistik ko'rsatkichlar turlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy statistika tizimi tomonidan quyidagi ko'rsatkichlarni yig'ish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

ish beruvchining ishchi kuchiga sarflagan xarajatlari miqdori. Ishchi kuchiga sarflangan xarajatlar darajasi ish haqi siyosatini shakllantirishda muhim masala bo'lgani holda bugungi kunda ushbu ko'rsatkich milliy statistika tizimida deyarli mavjud emas. Ushbu statistik ko'rsatkichlar tizimi mehnatni muhofaza qilish va inson kapitaliga investitsiyalarni jalb etish yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etgan holda ichki va xalqaro savdodagi muhim raqobat omillarini o'zida aks ettiradi;

mehnatdan olingan daromad. Mamlakatimizda ish haqi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar tarkibiy qismlariga bo'linmagan holda umumlashgan holatda jamlanadi. Milliy statistika tizimida tarif ish haqi, yollanish bo'yicha bandlikdan daromadlar, yollanma ishchilarning mehnat daromadlari, o'z-o'zini band qilishdan daromadlar kabi muhim daromad tarkibiy qismlari bo'yicha statistik ma'lumotlar mavjud emas. SHuningdek, bandlarning soliqlar va boshqa majburiy yig'imlar to'langandan keyin egalik qiluvchi daromadlari to'g'risidagi statistik ma'lumotlar ham rasmiy statistikada yuritilmaydi. Daromadlar statistikasi aholi turmush farovonligini o'lchash, eng kam (bazaviy) ish haqi miqdorini belgilagan holda ish haqi siyosatini shakllantirish, ijtimoiy ta'minot kabi maqsadlarni ko'zda tutishi

e'tiborga olinadigan bo'lsa, taklif etilayotgan statistik ko'rsatkichlar yordamida ijtimoiy jihatdan pasayish holatida bo'lgan hududlarni aniqlash hamda ushbu hududlarda tegishli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

mehnat migratsiyasi. Mintaqaviy, hududiy va kasbiy mobillilikni o'zida mujassamlashtirgan mehnat migratsiyasi ko'rsatkichlarining mintaqa (hududlar)lar demografik rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri yuqori. Ammo, mamlakatimizda mehnat migratsiyasining mamlakat ichidagi holati bo'yicha statistik hisob yuritilmaydi. Migratsiyani tartibga solish, uning ko'lami, oqim va miqdor tarkibi, jamiyat va iqtisodiyotga ta'sirini statistik baholash va prognozlash mamlakat iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ichki mehnat migratsiyasi bo'yicha statistika yuritilmasligi natijasida donor mintaqalar va retsepiient (qabul qiluvchi) mintaqalarda migratsiya ko'lami va uning natijalarini statistik baholash imkoniyati mavjud emas;

Aytish joizki, qo'shimcha yig'ilishi lozim bo'lgan zaruriy bandlik ko'rsatkichlari ko'rsatib o'tilgan tartibda statistik tahlil etilsa va baholansa, aholi bandligi samaradorligi darajasining yuqori bo'lishiga erishish mumkin.

2.Statistik axborotlarni to'plash va umumlashtirishda qo'llanilayotgan uslubiyotning bandlikni o'lchashning umumqabul qilingan xalqaro standartlaridan farqlanishi. Aholi bandligi holatini statistik o'lchash amaliyoti tahlili o'lchash uslubiyoti muntazam ravishda Mehnat statistiklarining xalqaro anjumani rezolyusiyalarida bayon etilgan xalqaro standartlarga yaqinlashib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Ammo bugungi kunda ushbu xalqaro standartlar ham eskirib borayotganligini ayrim etakchi xorijiy davlatlarda ko'rsatkichlarni aniqlash uslubiyoti bandlik shakllari va korxona (korporatsiya, kvazikorporatsiya va boshqalar)larning mehnatga haq to'lash siyosatiga moslashib borayotganligida ko'rish mumkin. Umumiy holda yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammoni ikki yo'nalishda ajratib ko'rsatish mumkin (3.2-rasm):

Statistik ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishda qo'llanilayotgan uslubiyotning aholi bandligini aniqlashning umumqabul qilingan xalqaro standartlardan farqlanishi

Milliy statistika tizimida qo'llanilayotgan tushunchalar mohiyati va ularni aniqlash uslubiyatining Xalqaro Mehnat tashkiloti tomonidan belgilangan mohiyat va aniqlash uslubiyotidan farqlanishi

Mehnat bozori statistik ko'rsatkichlarini hisoblash hamda mehnat bozorida holat ko'p omilli statistik tahlilida standart hosila ko'rsatkichlar va korrelyasion-regression, diskriminant va omilli tahlillar qo'llanilmasligi

Asosiy tushunchalar:

- "mehnat resurslari" atamasi va mazmuni;
- "iqtisodiy faollik", "bandlik" va "ishsizlik" atamaları mazmun va mohiyati;
- "norasmiy sektorda bandlik" tushunchasi va mazmuni;
- "mehnat migrasiyasi" tushunchasi mohiyati va mazmuni

Qo'llanilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar va usullar:

- iqtisodiy indekslar;
- korrelyasion-regression, omilli, klasterli tahlil va dinamika qatorlari tahlili;
- asosiy tendensiyalar qo'llanilishining cheklanmasligi;
- bandlik ko'rsatkichlarining mavsumiylik omilini hisobga olgan holda tahlili;
- mehnat statistikasi ko'plab ko'rsatkichlarini yosh va jinsi bo'yicha aniqlash va guruhlash

3.2-rasm. Milliy va umumqabul qilingan standartlar o'rtasidagi tafovutlar⁸³

1. Milliy statistika tizimida qo'llanilayotgan atamalar va tushunchalar mohiyati va ularni aniqlash uslubiyati XMT tomonidan belgilangan mezonlar va aniqlash uslubiyatidan farqlanishi.

Aholi bandligi bilan bog'liq ayrim atamalar va tushunchalar mohiyatining umumqabul qilingan mohiyatdan farqlanishi ayrim statistik ko'rsatkichlar miqdori ma'lum darajada ortiq yoki kam ko'rsatilishiga olib keladi. Masalan, milliy statistika tizimida "mehnat resurslari" tushunchasi mohiyatida mehnatga layoqatli yoshdan katta va kichik mehnat resurslari, "iqtisodiy faol aholi" toifasida bola parvarishida bo'lgan ayollar, uy bekalari va kunduzgi o'qish shaklidagi o'quvchilar, "bandlar" toifasida ish soatlari va ish vaqti davomiyligi, "ishsizlar" toifasida o'zi mustaqil ish izlovchi ishsizlar, iqtisodiyotning norasmiy sektoridagi

⁸³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bandlik hisobga olinmaydi. “YOshlar” toifasiga xalqaro standartlar bo'yicha 25 yoshgacha bo'lganlar kiritilsa, milliy statistika tizimida 30 yoshgacha bo'lganlar kiritiladi. “Mehnat migratsiyasi” deganda milliy statistika tizimida faqat yollanma mehnat resurslari nazarda tutilib, tadbirkorlik faoliyati (asosan savdo sohasida) bilan mamlakat ichida va mamlakatdan tashqariga harakatlanuvchi shaxslar hisobga olinmaydi.

2. Mehnat bozori statistik ko'rsatkichlarini hisoblash hamda mehnat bozorida holat statistik tahlilida standart hosila ko'rsatkichlar va korrelyasion-regression, diskriminant va omilli tahlillar qo'llanilmasligi.

Rasmiy statistika tizimida mehnat bozori ko'rsatkichlarini hisoblash va mehnat bozori holati statistik tahlilida rivojlangan xorijiy davlatlarda qo'llaniluvchi quyidagi hosila ko'rsatkichlar va tahlillarning qo'llanilishi bandlik va mehnat bozori holatini aniqroq ko'rish hamda boshqarish imkonini beradi:

qisqa muddatli davr uchun iqtisodiy indekslar (agregat va garmonik umumiy indekslar) ko'rsatkichlarining qo'llanilishi, bir tomondan, mehnat statistikasi ko'rsatkich (mehnat unumdorligi, ish haqi, aholining nominal, ixtiyoridagi va real daromadlari, iste'mol narxlari indeksi)lari dinamikasini statistik tahlil qilish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy indekslarga asoslangan ko'p omilli statistik tahlil omil belgining natijaviy belgi (bandlik va mehnat unumdorligi darajasining YAIM o'sishiga ta'siri)ga miqdoriy ta'sirini aniqlash imkonini beradi;

korrelyasion-regression tahlil, omilli tahlil, klasterli tahlil va dinamika (vaqtli) qatorlari statistik tahlilidan etarli darajada foydalanish aholi bandligi va ishsizlik ko'rsatkichlarining boshqa iqtisodiy ko'rsatkich (YAIM, eksport va import hajmi, asosiy kapitalga investitsiyalar va boshqa)lar bilan o'zaro bog'lanish zichligini statistik baholash imkonini beradi;

mehnat bozorida asosiy o'zgarishlar va tendensiyalarni aks ettiruvchi o'rtacha miqdorlar – moda va mediana ko'rsatkichlarining statistik tahlillar uchun qo'llanilishi trendlarni aniq ko'ra olish hamda bandlarning eng ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini aniqlashga imkon yaratadi;

aholi bandligi ko'rsatkichlarining mavsumiyligini hisobga olgan holda statistik o'rganish qisqa muddatli mavsumiy davrlarda mintqa va hududlar dinamika ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslash hamda ularning tafovutlarini aniqlash imkonini beradi;

aholining yoshi va jinsi bo'yicha mehnat statistikasi ko'rsatkichlarining statistik guruhlanishi iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi ish o'rinlarini qaysi yosh yoki jinsdagi ishchi kuchi egallab turganligini aniqlash bilan birga talab va taklifni muvozanatga keltirishni rejalashtirishda zaruriy o'zgarishlarni kiritish imkonini beradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan nomutanosiblik va tafovutlarning bartaraf etilishi va taklif etilayotgan o'zgarishlarning jarayonga kiritilishi mehnat statistikasi ko'rsatkichlari sifatini oshiradi, deb aytishimiz mumkin.

Milliy statistika tizimidagi mehnat statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirishdagi yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolar mehnat resurslari sifati, dinamikasi hamda ma'lumotlilik va malakaviylik darajasining ish haqiga ta'sirini statistik baholash; mehnatni me'yorlash va ish haqini tartibga solish; mehnat resurslari oqimi harakati sabablarini aniqlash va boshqarish; mahsulot (xizmat)lar raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mehnat xarajatlarini maqbullashtirish; hududiy, tarmoq, sektor va yosh hamda jins bo'yicha mehnatga haq to'lashdagi nomutanosibliklarni tenglashtirish; ishchi kuchining iqtisodiyot tarmoqlari, kasbiy-malaka, jinsiy, hududiy va boshqa xususiyatlari asosidagi mehnat unumdorligi darajasining qiyosiy tahlilini amalga oshirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan holatlarni zaruriy darajaga keltirish uchun turli darajalarda taraqqiy etgan xorijiy davlatlarda (jumladan MDHda) bugungi kunda keng qo'llanilayotgan mehnat bozori va ish haqi ko'rsatkichlari tizimini joriy etish va bunda, birinchi navbatda, quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

milliy, mintqa va hududiy iqtisodiyotni yuqori malakali ishchi kuchi bilan ta'minlash, milliy va hududiy mehnat bozorlaridagi holatni statistik tahlil qilish asosida iqtisodiy faollikni yanada yuksaltirish;

mehnat bozorining ta'lim (jumladan oliy) va kasbiy tayyorgarlikka bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash asosida ishchi kuchini yo'naltirish;

aholi bandligi va mehnat bozorini tartibga solish bo'yicha asoslangan dasturlar, chora-tadbirlar va "yo'l xaritalari" ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

ishchi kuchi harakatini hudud, tarmoq, sektor va sohalar kesimida tartibga solish hamda ishchi kuchini tashkillashtirilgan holda yollash dasturlarini ishlab chiqish;

iqtisodiyot tarmoqlari, institutsional sektor va sohalarning mehnat sig'imini tartibga solish hamda ishlab chiqarishning mehnat xarajatlarini maqbullashtirish bo'yicha choralarni amalga oshirish va mehnat unumdorligini yuksaltirish;

mehnatga haq to'lashning adolatli va shaffof tarzda amalga oshirish;

samarali ish bilan bandlik, yangi ish o'rinlari yaratish hamda milliy va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ijtimoiy himoyalashni rag'batlantiruvchi maqsadga yo'naltirilgan soliq siyosatini olib borish;

aholi turmush farovonligi va yashash darajasi o'rtasidagi farqlanish va tabaqalashuvni oldini oluvchi aholi daromadlari va ijtimoiy himoyaning asoslangan siyosatini amalga oshirish;

ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarni belgilashda ularning turli usul va har xil variantlardagi prognoz ssenariylarini tuzish va chora-tadbirlarni mazkur ssenariylar asosida amalga oshirilishini ta'minlash va boshqalar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan asosiy vazifalarni amalga oshirilishi bilan milliy mehnat bozoridagi aholi bandligi hamda mehnat daromadlari statistik ko'rsatkichlarining eng maqbul holatini ta'minlash imkoniyati kengayadi. Ushbu holat esa, o'z navbatida, aholining samarali bandligini ta'minlashning muhim jihatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

3.3.O‘zbekiston Respublikasida ishchi kuchining istiqbolli rivojlanishini ko‘p variantli statistik prognozlarini tuzish (2025-2030 yy.)

Aholi bandligini ta'minlash, bandlik darajasini oshirish qaysi omillar ta'sirida yanada ijobiy bo'lishi mumkinligini aniqlash, qanday omillarning salbiy ta'sirini oldindan ko'ra bilish, ushbu omillar ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab, tegishli xulosalar chiqarishimiz lozim. SHunday ekan, O'zbekistonda aholi bandligini ko'p variantli prognozlarini amalga oshirishda mamlakat statistika tashkilotlari va ilmiy izlanishlar davomida yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanib aholi bandligini aniqlash bo'yicha regressiya tenglamasini aniqlaymiz. Aholining bandlik darajasi va korxona va tashkilotlarning sonining oshirilishi hisobiga iqtisodiyotda bandlar sonini hisoblaymiz.

O'zbekistonda iqtisodiyotda bandlar soni va aholi bandligini ta'minlash orqali yalpi ichki mahsulot hajmini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni quyidagicha belgilab oldik:

YAlpi ichki mahsulot hajmi (mlrd. so'm) – Y;

Iqtisodiyotda bandlar soni, ming kishi – X_1 ;

Mehnat resurslari soni, ming kishi – X_2 ;

YAngi tashkil etilayotgan korxonalar soni, dona – X_3 ;

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm – X_4 .

2000-2024 yillar davomida O'zbekistonda iqtisodiyotda bandlar soni 8 mln. 983 ming kishidan 14 mln. 260 ming kishigacha etgan bo'lib, 2024 yilda 2000 yildagiga nisbatan 58,74 foizga o'sgan. Mehnat resurslari soni 2000 yildagi 12 mln. 469 ming kishidan 2024 yilga 20 mln.85 ming kishiga etgan. Mehnat resurslari 2024 yilda 2000 yilga nisbatan 61,08 foizga o'sgan. Iqtisodiyotda band aholining mehnat resurslariga nisbatan ulushi 2000 yilda 72,04 foiz bo'lgan bo'lsa, 2011 yilga kelib ushbu ko'rsatkich eng past nuqtasiga kelib 68,95 foizgacha tushgan. 2017 yilga kelib tahlil qilinayotgan davrda bu ko'rsatkich eng yuqori nuqtasiga etgan bo'lib, 72,43 foizni tashkil etgan. Iqtisodiyotdagi band aholining mehnat resurslariga nisbatan ulushi 2017 yildan sekin-asta kamayib, 2020 yilga

kelib 69,09 foizni tashkil etgan. 2024 yilda iqtisodiyotda bandlarning mehnat resurslari tarkibidagi ulushi 70,99 foizni tashkil etgan. Ushbu hisoblardan kelib chiqib, iqtisodiyotda band aholi va mehnat resurslari sonini alohida yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omil sifatida ko'rib chiqdik. Ushbu hisoblarimiz quyidagi statistik ma'lumotlarga tayangan holda amalga oshirildi (3.1-jadval).

3.1-jadval

**O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi
asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi⁸⁴**

Yillar	Yalpi ichki mahsulot hajmi, mlrd. so'm	Iqtisodiyotda bandlar soni, ming kishi	Mehnat resurslari soni, ming kishi	YAngi tashkil etilayotgan korxonalar soni, ming dona	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm
	Y	X ₁	X ₂	X ₃	X ₄
2000	3 255,6	8 983,0	12 469,0	20,1	744,5
2001	4 925,3	9 136,0	12 817,4	18,2	1 320,9
2002	7 450,2	9 333,0	13 181,0	19,3	1 526,6
2003	9 844,0	9 589,0	13 607,2	22,0	1 978,1
2004	12 261,0	9 910,6	14 048,8	22,8	2 629,0
2005	15 923,4	10 196,3	14 453,2	22,6	3 165,2
2006	21 124,9	10 467,0	14 816,5	26,2	4 041,0
2007	28 190,0	10 735,4	15 219,6	33,2	5 903,5
2008	38 969,8	11 035,4	15 685,7	26,4	9 555,9
2009	49 375,6	11 328,1	16 103,5	37,0	12 531,9
2010	78 936,6	11 628,4	16 726,0	34,3	16 463,7
2011	103 232,6	11 919,1	17 286,4	32,7	19 500,0
2012	127 590,2	12 223,8	17 564,3	21,9	24 455,3
2013	153 311,3	12 523,3	17 814,1	27,8	30 490,1
2014	186 829,5	12 818,4	18 048,0	26,9	37 646,2
2015	221 350,9	13 058,3	18 276,1	27,9	44 810,4
2016	255 421,9	13 298,4	18 488,9	32,7	51 232,0

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yillar	Yalpi ichki mahsulot hajmi, mlrd. so'm	Iqtisodiyotda bandlar soni, ming kishi	Mehnat resurslari soni, ming kishi	YAngi tashkil etilayotgan korxonalar soni, ming dona	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm
2017	356 453,8	13 520,3	18 666,3	41,0	72 155,2
2018	473 652,8	13 273,1	18 829,6	55,0	124 231,3
2019	594 659,6	13 541,1	18 949,0	96,7	195 927,3
2020	668 038,0	13 236,3	19 158,2	95,3	210 195,1
2021	820 536,6	13538,9	19 334,9	102,8	239 552,6
2022	995 573,1	13706,8	19 517,4	93,6	266 240,0
2023	1 204 458,4	14014,2	19 739,6	88,8	356 071,4
2024	1 454 573,9	14260,0	20 085,2	79,7	507 490,2

Mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari joriy bozor baholari bo'yicha aholi bandligiga bog'liqligini aniqlash va prognoz qilishda ko'rsatkichlar yanada ishonchli bo'lishi uchun barcha pul qiymatidagi ko'rsatkichlarni 2024 yilgi narxlarda hisoblab chiqilishi maqsadga muvofiq. Nominal ko'rsatkichlariga tayanib xulosalar qilishga nisbatan qiyosiy baholardagi YAIM va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini biror yilni, jumladan, 2024 yilni bazis yil sifatida hisoblash ekonometrik modelimiz ishonchliligini yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasidagi 2000-2024 yillardagi narxlar indeksini hisoblab, YAIM va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmini aniqlaymiz. Buning uchun bizga joriy bozor baholaridagi YAIM va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumot etarli bo'ladi. Mamlakatimizdagi YAIM o'sish ko'rsatkichlaridan foydalangan holda, 2000 yildan 2024 yilgacha bo'lgan ko'rsatkichlarni bazaviy 2024 yillarga mos narxlar indeksiga bo'lish orqali aniqlandi. O'zbekiston Respublikasidagi 2000-2024 yillar mobaynidagi narxlar indeksi 3.2-jadvalda keltirilgan.

3.2-jadval

**O‘zbekiston Respublikasida 2000-2024 yillar davomida narxlar darajasini
o‘zgarishiga mos bazis 2024 yilga nisbatan
narxlar indeksi⁸⁵**

<i>Yillar</i>	<i>YAIM, mlrd so‘mda</i>	<i>YAIM o‘sish sur‘ati, foizda</i>	<i>YAIM qiyosiy narxlarda (mlrd.so‘m)</i>	<i>Narxlar indeksi</i>
2000	3255,6	103,8	283371,383	0,0115
2001	4925,3	104,2	295272,981	0,0167
2002	7450,2	104,0	307083,900	0,0243
2003	9844,0	104,2	366585,689	0,0269
2004	12261,0	107,4	393713,030	0,0311
2005	15923,4	107,0	421272,942	0,0378
2006	21124,9	107,5	452868,413	0,0466
2007	28190,0	109,5	495890,912	0,0568
2008	38969,8	109,0	540521,095	0,0721
2009	49375,6	108,1	584303,303	0,0845
2010	78936,6	107,1	625788,838	0,1261
2011	103232,6	107,5	672723,001	0,1535
2012	127590,2	107,1	720486,334	0,1771
2013	153311,3	107,3	773081,836	0,1983
2014	186829,5	106,9	826424,483	0,2261
2015	221350,9	107,2	885927,045	0,2499
2016	255421,9	105,9	938196,741	0,2722
2017	356453,8	104,4	979477,398	0,3639
2018	473652,8	105,6	1034328,132	0,4579
2019	594659,6	106,8	1104662,445	0,5383
2020	668038,0	101,6	1122337,044	0,5952
2021	820536,6	108,0	1212124,008	0,6769
2022	995573,1	106,0	1284851,448	0,7749
2023	1204458,4	106,3	1365797,089	0,8819
2024	1454573,9	106,5	1454573,900	1,0000

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

3.2-jadvalda 2000-2024 yillar mobaynidagi narxlar indeksi 2024 yilga nisbatan hisoblab chiqilgan. 2024-yildagi narx indeksi 1 ga teng deb olingan. 2023 yildagi narx indeksini hisoblashda, 2023 yildagi yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi shu yildagi iqtisodiy o‘sish sur‘atiga bo‘lish orqali qayta hisoblangan. 2022 yildagi YAIM hajmini 2024 yildagi qiyosiy narxlarda hisoblash uchun 2023

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

yilning qiyosiy narxlardagi YAIM hajmi 2023 yildagi iqtisodiy o'sish sur'atiga bo'lish orqali aniqlangan. 2021 yildagi qiyosiy narxlardagi YAIM 2022 yildagi qiyosiy narxlarida hisoblangan YAIM hajmini 2022 yilning iqtisodiy o'sish sur'atiga bo'lish orqali hisoblab chiqilgan. Oldingi yillardagi qiyosiy narxlardagi YAIMlar hajmi shu tarzda hisoblab chiqilgan. 2024 yildagi narxlarga nisbatan 2000-2023 yillardagi narxlar indeksini aniqlashda joriy narxlardagi YAIM hajmi, qayta hisoblangan qiyosiy narxlardagi YAIM hajmiga bo'lish orqali aniqlangan. 2023 yildagi narxlar indeksi 0,8819 ga teng bo'ldi. 2022 yildagi narxlar indeksi 0,7749 ga teng bo'ldi. Boshqa yillardagi narxlar indeksi ham zanjirli tarzda 2024 yildagi YAIM hajmlari mos yillardagi iqtisodiy o'sish sur'atlariga qayt-qayta bo'lish orqali hisoblangan YAIM hajmlari yordamida aniqlab chiqilgan. 2010 yildagi narxlar indeksi 0,1261 ga teng bo'lgan bo'lsa, 2000 yildagi narxlar indeksi 0,0115 ga teng bo'ldi. Barcha qayta hisoblab aniqlangan ma'lumotlar quyidagi 3.3-jadvalda keltirilgan.

3.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi (2024 yil qiyosiy narxlarida)⁸⁶

Yillar	YAlpi ichki mahsulot hajmi, mlrd. so'm	Iqtisodiyotda bandlar soni, ming kishi	Mehnat resurslari soni, ming kishi	YAngi tashkil etilayotgan korxonalar soni, ming dona	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm
	Y	X ₁	X ₂	X ₃	X ₄
2000	283 095,652	8 983,00	12 469,00	20,1	64739,130
2001	294 928,144	9 136,00	12 817,40	18,2	79095,808
2002	306 592,593	9 333,00	13 181,00	19,3	62823,045
2003	365 947,955	9 589,00	13 607,20	22,0	73535,316
2004	394 244,373	9 910,60	14 048,80	22,8	84533,762
2005	421 253,968	10 196,30	14 453,20	22,6	83735,450
2006	453 324,034	10 467,00	14 816,50	26,2	86716,738
2007	496 302,817	10 735,40	15 219,60	33,2	103934,859
2008	540 496,533	11 035,40	15 685,70	26,4	132536,755
2009	584 326,627	11 328,10	16 103,50	37,0	148306,509
2010	625 984,140	11 628,40	16 726,00	34,3	130560,666

⁸⁶O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Agar $\alpha = 0,05$ (besh foizli ahamiyatlilik darajasi) va erkinlik darajasi $k_1 = 1$ va $k_2 = n - 2$ bo'lsa, tasodifiy miqdorlar Fisherning taqsimoti keltirilgan jadvallardan F – belgisining jadval qiymati (F_{jadv}) topiladi. Agar ushbu $F_{haqiqiy} > F_{jadv}$ tengsizlik o'rinli bo'lsa, regressiya tenglamasi statistik ahamiyatli hisoblanadi.

Regressiya tenglamasidagi xatoliklarga "a" va "b" parametrlarni hamda r_{xy} - korrelyasiya koeffitsientini hisoblashdagi tasodifiy xatoliklar ham ta'sir etadi. SHuning uchun "a" va "b" parametrlarni hisoblashdagi standart xatoliklar m_a, m_b lar bilan aniqlandi.

Regressiya koeffitsientining tasodifiy xatoligi quyidagi formula bilan aniqlandi:

$$m_b = \sqrt{\frac{\sum (y - y_x)^2 / (n - 2)}{\sum (x - \bar{x})^2}}. \quad (3.13)$$

Regressiya tenglamasining "a" parametri tasodifiy xatoligi quyidagi formula bilan aniqlandi:

$$m_a = \sqrt{\frac{\sum (y - y_x)^2}{n - 2} \cdot \frac{\sum x^2}{n \cdot \sum (x - \bar{x})^2}}. \quad (3.14)$$

CHiziqli korrelyasiya koeffitsientining tasodifiy xatoligi esa quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$m_r = \sqrt{\frac{1 - r^2}{n - 2}} \quad (3.15)$$

Regressiya tenglamasi parametrlarining statistik ma'nodorligini baholash Stъyudentning t -mezoni yordamida ham amalga oshirilishi mumkin (erkinlik darajasi soni $n - 2$ va $\alpha = 0,05$ bo'lganda t belgining jadval qiymatlari Stъyudent taqsimoti jadvalidan topiladi). Unda quyidagilar hisoblanadi:⁸⁷

$$t_a = \frac{a}{m_a}, \quad t_b = \frac{b}{m_b}, \quad t_r = \frac{r_{xy}}{m_r}. \quad (3.16)$$

Agar t belgining topilgan asl qiymatlari uning jadval qiymatidan katta bo'lsa (ya'ni, $t_a > t_{jadv}$, $t_b > t_{jadv}$, $t_{rxy} > t_{jadv}$), "a" va "b" parametrlar statistik ma'nodor hisoblanadi.

⁸⁷ Ekonometrika: Uchebnik. / Pod red. I.I.Eliseevoy. –M.: Finansi i statistika, 2003-s. 344.

O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining aholi bandligi bo'yicha o'zgarishini hisoblashda quyidagi omillarni asosiy ta'sir etuvchi omillar sifatida oldik: iqtisodiyotda band bo'lgan aholi soni, mehnat resurslari soni, yangi tashkil etilayotgan korxonalar soni, asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi. Bu omillar orqali ko'p omilli regression model tuzish maqsadini qo'ydik.

Ko'p omilli regression model tuzishning asosiy qoidalaridan biri modelga tanlanib olinadigan omillar o'rtasida bog'lanish zichliklarini aniqlash, ya'ni tanlanib olinayotgan omillar o'rtasida bog'lanish mul'tikollenearlilik muammosini tekshirish hisoblanadi.

Natijaviy omil uchun ta'sir etuvchi omillar o'rtasida korrelyasion matritsasi Eviews 10 dasturida hisoblandi. Bu omillar o'rtasida mul'tikolleniylilik mavjud emasligini aniqlashda korrelyasion tahlil o'tkazamiz (3.4-jadval).

3.4-jadval

O'zbekistonda YAIM hajmiga ta'sir etuvchi aholi bandligi bilan bog'liq omillar o'rtasidagi korrelyasion bog'lanish matritsasi⁸⁸

	Y	X_1	X_2	X_3	X_4
Y	1				
X_1	0,958082993	1			
X_2	0,955022802	0,996095963	1		
X_3	0,850059042	0,721001854	0,732732388	1	
X_4	0,951472644	0,84284949	0,842529412	0,916839355	1

Respublika yalpi ichki mahsuloti hajmi o'sishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ko'p omilli empirik model tuzish uchun, korrelyasion matritsadagi qiymatlardan kelib chiqib yuqorida keltirilgan barcha omillar olinadi va ularning modelda o'zlarini qanday tutishlari tekshirib ko'riladi.

Aholi bandligi bilan bog'liq hamda ularga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi ekonometrik model tuzish va tahlil qilish uchun eng kichik kvadratlar usulidan foydalanamiz.

Jarayonlarning ko'p omilli empirik modellariga ega bo'lish uchun Eviews 10 dasturida bir necha variantlar hisob-kitob qilindi va tegishli natijalar olindi, 3.5-

⁸⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

jadvalda YAIM hajmining o'sishi uchun empirik model qurilgan, shuningdek, bu modelni va uning parametrlarini baholashda mezonlardan foydalanib ahamiyatligi ko'rsatilgan.

3.5-jadval

O'zbekistonda YAIM hajmiga ta'sir etuvchi aholi bandligi bilan bog'liq omillar regression modelini qurish⁸⁹

O'zgaruvchi	Model ko'effitsientlari	Standart xatolar	t-Styudent mezon	P-qiymati
C	-876180.4	89808.44	-9.756103	0.0000
X ₁	152.5654	57.84648	2.637419	0.0158
X ₂	-26.37922	40.30394	-0.654507	0.5202
X ₃	623.6332	754.9231	0.826088	0.4185
X ₄	1.272318	0.220508	5.769939	0.0000
R ² -Determinatsiya ko'effitsienti	0.989903	Bog'liq o'zgaruvchining o'rtacha qiymati		765653.6
Tekislangan R ² -Determinatsiya ko'effitsienti	0.987884	Bog'liq o'zgaruvchining standart chetlanishi		358072.8
Regressiyaning standart xatosi	39413.89	Akaykening axborot modeli		24.17848
Qoldiqlar kvadratlari yig'indisi	3.11E+10	SHvarsning axborot modeli		24.42226
Maksimal o'xshashlik funksiyasining qiymati	-297.2310	Hannan-Quinn criter		24.24609
F - Fisher mezon	490.2166	DW-Darbin-Uotson mezon		1.667897
Prob (F - Fisher mezon)	0.000000			

Fisher va Styudent mezonlari hisoblanib, hisoblangan qiymat jadval qiymatlari bilan taqqoslangan, jadval qiymatlaridan kattaligi aniqlangan. Quyidagicha empirik modelni hosil qildik:

$$Y = -876180,4 + 152,5654 * X_1 - 26,37922 * X_2 + 623,6332 * X_3 + 1,272318 * X_4 \quad (3.17)$$

Odatda, determinatsiya ko'effitsienti [0;1] kesmadagi qiymatlarni qabul qiladi. Ko'effitsient qiymati 1 ga qanchalik yaqin bo'lsa, bog'liqlik shunchalik kuchli hisoblanadi. Mazkur holatda determinatsiya ko'effitsientining 0,9899 qiymatga teng bo'lishi modelda mazkur iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida etarli darajada kuchli bog'liqlik mavjudligini bildiradi.

⁸⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Tuzilgan ko'p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatliligi va o'rganilayotgan jarayonga mos kelishini aniqlash uchun Fisherning F -mezonidan foydalanamiz.

F -mezonning jadval qiymati $F_t = 3,01$ ga teng, $F_a = 490,2167$.

$F_a \gg F_t$ shartni qanoatlantiradi, bu esa, F -mezonning hisoblangan qiymati jadvaldagi qiymatidan katta ekanligidan statistik ahamiyatli bo'lib, undan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan tovarlar va xizmatlar hajmini kelgusi davrlarga prognoz qilishda foydalanish mumkin.

Ko'p omilli ekonometrik model parametrlari va korrelyasiya koeffitsientlarining ishonchliligini tekshirishda Stuyudentning t -mezonidan foydalaniladi. Bunda ularning qiymati tasodifiy xatolar qiymatlari bilan taqqoslanadi.

Stuyudentning t -mezonini hisoblangan (t_a) va jadval (t_t) qiymatlarini taqqoslab, N_0 gipotezani qabul qilamiz yoki rad etamiz. Buning uchun t -mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi ($d.f. = n - m - 1$) shartlar asosida topamiz. Bu erda n – kuzatuvlar soni; m – omillar soni.

Ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajasi $d.f. = 21 - 4 - 1 = 16$ bo'lganda, t -mezonning jadval qiymati $t_t = 2,1448$ ga teng bo'ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan tovarlar va xizmatlar hajmi bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modeldagi hisoblangan parametrlar uchun ham $F_a \gg F_t$ sharti qanoatlantirilishi lozim.

YUqoridagi model bo'yicha natijaviy omilning qoldiqlarida avtokorrelyasiyani tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz.

$$DW = \frac{\sum_{t=2}^T (e_t - e_{t-1})^2}{\sum_{t=1}^T e_t^2} = \frac{\sum_{t=2}^T e_t^2 + \sum_{t=2}^T e_{t-1}^2 - 2 \sum_{t=2}^T e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^T e_t^2} =$$

$$= 2 - 2 \frac{\sum_{t=2}^T e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^T e_t^2} \approx 2(1 - \rho_1), \quad (3.18)$$

Bu erda, ρ_1 – birinchi tartibdagi korrelyasiya koeffitsienti.

Natijaviy omil qoldiqlari qatorida avtokorrelyasiya mavjud bo‘lmasa, $DW = 2$, musbat avtokorrelyasiyada DW nolga, manfiy avtokorrelyasiyada esa 4 ga intiladi.

$$\begin{cases} \rho_1 = 0 \rightarrow DW = 2; \\ \rho_1 = 1 \rightarrow DW = 0; \\ \rho_1 = -1 \rightarrow DW = 4. \end{cases} \quad (3.19)$$

Agar natijaviy omilning qoldiqlarida avtokorrelyasiya mavjud bo‘lmasa, u holda hisoblangan DW mezonining qiymat 2 atrofida bo‘ladi. Mazkur modelda hisoblangan DW mezonining qiymati 1,66 ga teng. Bu esa natijaviy omil qoldiqlaridan avtokorrelyasiya mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Qurilgan modellarda (chiziqli regressiya tenglamalari uchun) hisobga olingan parametrlar turli ko‘rsatkichlardan iborat. SHuning uchun tahlil qilishda elastiklik koeffitsientlarini hisoblab chiqish lozim. Quydagi jadvalda qurilgan modelni tahlil qilishda elastiklik koeffitsientlarini hisoblab chiqdik (3.6-jadval).

3.6-jadval

O‘zbekistonda YAIM hajmiga ta’sir etuvchi aholi bandligi bilan bog‘liq omillar uchun qurilgan modelning koeffitsientlarining elastikligi⁹⁰

O‘zgaruvchi	Model koeffi-sientlari	Standartlashtirilgan koeffitsient	Elastiklik koeffitsienti
X_1	152,5654	57,84648	2,3694
X_2	-26,37922	40,30394	-0,5800
X_3	623,6332	754,9231	0,0360
X_4	1,272318	0,220508	0,3190

Hosil qilingan modeldagi parametrlarning yakuniy natijaga ta’siri yuqoridagi jadvalda keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, iqtisodiyotda band aholi soni (X_1) 1 foizga


⁹⁰ Muallif tomonidan Eviews 9 dasturidan foydalanib olingan natija.

oshirilsa, yalpi ichki mahsulot hajmi (Y) 2,3694 foizga ko'payishi, mehnat resurslari soni (X_2) 1 foizga o'zgarishi yakuniy natijani (Y) 0,58 foiz kamayishiga, mamlakatda yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etilishi (X_3) yakuniy natijani (Y) 0,036 foiz ko'payishiga, asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiya hajmining (X_4) 1 foizga oshishi esa yalpi ichki mahsulotning (Y) 0,319 foizga oshishiga sabab bo'lishi aniqlandi. Qurilgan modellar orqali O'zbekistonda YAIM hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning prognoz varianti ishlab chiqilib, uning natijasi

3.11-jadvalda aks ettirildi. Prognoz variantlarini ishlab chiqish uchun modeldagi X_1 , X_2 , X_3 , X_4 o'zgaruvchilarning trend tenglamalarini aniqlashda MS Excel dasturidan foydalanildi. Quyida har bir omilning vaqtga bog'liqlik trend tenglamalari keltirilgan:

Iqtisodiyotda band aholi sonining vaqt bo'yicha o'zgarishining trend modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (X_1):

$$X_1 = 226,37 \cdot t + 8948,2; \quad R^2 = 0,9639 \quad (3.20)$$




3.2-rasm. O'zbekiston iqtisodiyotida band aholi soni (ming kishi)⁹¹

O'zbekiston Respublikasidagi mehnat resurslari soni o'zgarishi (X_2):

$$X_2 = 320,78 \cdot t + 12665; \quad R^2 = 0,9653, \quad (3.21)$$

⁹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



3.3-rasm. O‘zbekistonda mehnat resurslari soni (ming kishi)⁹²

O‘zbekistonda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni (X_3):

$$X_3 = 3,2698 \cdot t + 1,689; R^2 = 0,6807, \quad (3.22)$$



3.4-rasm. O‘zbekistonda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni (ming dona)⁹³

⁹² O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁹³ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O‘zbekistonda 2000-2024 yillar davomida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2024 yil narxlaridagi o‘zgarishining vaqtga bog‘liqlik trend modeli (X_4):

$$X_4 = 53728 * e^{0,0832 * t}; \quad R^2 = 0,9497, \quad (3.23)$$



3.5-rasm. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (mlrd. so‘m)⁹⁴

Ushbu MS Excel dasturida aniqlangan trend tenglamalari va Eviews 10 dasturida aniqlanib, turli statistik ahamiyatlilik mezonlarida tekshirilgan modellardagi regressiya tenglamalariga asoslanib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida yaratilgan tovarlar va xizmatlar hajmi hamda unga ta’sir etuvchi omillarning prognoz varianti ishlab chiqildi (3.7-jadval).

3.7-jadval

O‘zbekistonda YAIM hajmiga ta’sir etuvchi aholi bandligi bilan bog‘liq omillarning prognozi⁹⁵

Yillar	YAlpi ichki mahsulot hajmi, mlrd. so‘m	Iqtisodiyotda bandlar soni, ming kishi	Mehnat resurslari soni, ming kishi	YAngi tashkil etilayotgan korxona-lar soni, ming	Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m
--------	--	--	------------------------------------	--	--

⁹⁴ Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

⁹⁵ Муаллиф томонидан тузилган.

				dona	
	<i>Y</i>	<i>X₁</i>	<i>X₂</i>	<i>X₃</i>	<i>X₄</i>
2024 haqiqiy	1 454 573,900	14 260,00	20 085,20	79,7	507490,200
2025	1481519,929	14833,82	21005,28	86,704	467339,283
2026	1561218,777	15060,19	21326,06	89,974	507883,698
2027	1645392,960	15286,56	21646,84	93,243	551945,578
2028	1734430,737	15512,93	21967,62	96,513	599830,083
2029	1828754,056	15739,30	22288,40	99,783	651868,850
2030	1928821,467	15965,67	22609,18	103,053	708422,283
2030-2024 farq (+;-)	474 247,567	1 705,67	2 523,98	23,353	200 932,083
2030/2024 nisbat(%)	132,60	111,96	112,567	129,30	139,59

O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti aholi bandligiga bog‘liq ko‘rsatkichlar ta’sirida 2030 yilga borib, 1 928 821,467 mlrd. so‘mdan ortiq (2024 yil qiyosiy narxlarda) bo‘lishi, yoki 2024 yildagiga nisbatan 132,6 barobarga oshishi prognozlashtirildi.

Ilmiy izlanishlarimizga asoslanib, 2030 yilga borib, O‘zbekiston iqtisodiyotida band aholi soni 15 965,67 ming kishiga, mehnat resurslari soni 22 609,18 ming kishiga, iqtisodiyotda band aholining mehnat resurslari tarkibidagi ulushi 2030 yilga borib 70,62 foiz bo‘lishi mumkin ekan. Har yilgi yangi tashkil etiladigan korxona va tashkilotlar soni 103,053 ming donadan, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 708422,283 mlrd. so‘mdan (2024 yil qiyosiy narxlarida) oshishi kutilmoqda.

III-BOB BO‘YICHA XULOSA

1. Mehnat bozori samarali faoliyat olib borishi uchun quyidagi masalalarga alohida e’tibor berish talab etiladi: mehnat bozorida ishchi kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish. Bu, mehnat resurslarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishni hayotiy zaruriyatga aylantiradi; aholini ish bilan ta’minlashning eng samarali vositalari bo‘lgan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilikni, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal sur’atlarda rivojlantirish; aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan toifalari uchun ish o‘rinlarini kvotalash; yangi ish o‘rinlari yaratayotgan ish beruvchilarni rag‘batlantirish, ularga soliq, kredit imtiyozlari va boshqa imtiyozlar berish; davlat va mahalliy byudjetlar mablag‘lari hisobidan vaqtinchalik va jamoat ishlarini tashkil etish.

2. Qishloq mehnat resurslarini qayta taqsimlashning eng samarali usullari orasida turmush darajasini tartibga solishni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu usul qishloq hududlari moliyaviy resurslari hisobidan xodimlarning mehnat va uy-joy, shart-sharoitlarini, madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish darajasini yaxshilash kabi tadbirlarni amalga oshirish asosida tatbiq etiladi.

3. Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik holatlarini doimiy tahlil qilish va istiqbolini belgilash bilan shug‘ullanuvchi respublika va hududiy boshqaruv idoralarining metodik ko‘rsatmalar va axborotlar bilan ta’mini bo‘yicha o‘zaro hamkorliklarni yaxshilash ham muhim tashkiliy tadbirlarga talluqlidir. Xususan, manfaatdor idoralar hududiy mehnat bozoridagi vaziyatlarni doimiy tahlil qilish va istiqbolini belgilashning maxsus formalari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishlari lozim.

4. Tahlillarimizga ko‘ra, kasanachilikka asoslangan ishlab chiqarish, xalq hunarmandchiligi korxonalarini qurish ham aholini ish bilan ta’minlashga yordam beradi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, hozir viloyatda kasanachilikka talab anchagina o‘sgan. Mehnat faoliyatining bu shaklidan foydalanish, birinchidan, qishloq joylarida o‘tkir bo‘lib turgan ishsizlik muammosini hal etishga imkon beradi, ikkinchidan, u yoki bu sabablarga ko‘ra, ishlab chiqarishda ishtirok eta olmaydigan

aholi uchun ishlash imkoniyati yaratiladi, uchinchidan, kasanachilikning maoshi oila byudjetiga qo'shimcha bo'lib, daromad oshishiga olib keladi va nihoyat, insonlarning, ayniqsa, ko'p bolali ayollarning ishga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi.

XULOSA

Dissertatsiya ishini bajarish davomida ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalar olindi hamda aholi bandligini ta'minlashning statistik tadqiqini takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Milliy mehnat bozoridagi o'zgarishlar holatning statistik tahlili unda quyidagi o'zgarish va tendensiyalarni mavjudligini ko'rsatdi:

aholi bandligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lgan iqtisodiy faol aholi sonining doimiy aholi va mehnat resurslari sonidagi ulushi, iqtisodiyotda bandlar sonining mehnat resurslari sonidagi ulushi barqaror o'sib borgani holda mehnat resurslari sonining doimiy aholi sonidagi, iqtisodiyotda bandlar sonining doimiy aholi va iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi pasaygan;

2010–2024 yillar davomida bandlik holati tebranish tendensiyasiga ega bo'lgan va bu o'zgarish tendensiyasi ko'rsatkichning mamlakat hududlari bo'yicha o'zgarishida ham o'z aksini topgan;

hududlar kesimida bandlik darajasining yuqori sur'atlarda ortishi uning mamlakat o'rtacha darajasidan ancha kichik bo'lgan viloyatlarda kuzatiladi;

iqtisodiyot tarmoq va sohalari kesimida bandlar soni va ulushi tahlili asosiy 8 ta xizmat sohasida bandlar soni ortishi boshqa tarmoq va sohalardagiga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda bo'lganligini ko'rsatdi.

2. Mehnat statistikasi ko'rsatkichlarini yig'ish va tahlil qilish jarayonini statistik o'rganish zaruriy hisobot ko'rsatkichlari to'liq yig'ilmasligi, ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirishda qo'llanilayotgan uslubiyot bandlikni aniqlashning umumqabul qilingan xalqaro andozalariga mos kelmasligi kabi tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Aniqlangan muammolarning sabablarini tahlil qilish asosida ularni bartaraf etish borasida ijtimoiy mehnat ko'rsatkichlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

3. Bugungi kunda mamlakatlarning rivojlanish holatini baholovchi xalqaro baholash tuzilmalarining ko'rsatkichlari tarkibida faqatgina ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zigagina tayanib qolmasdan, jamiyatning ijtimoiy rivojlanish

ko'rsatkichlari oldingi o'rinlarga chiqmoqdaki, bu ko'rsatkichlarning aksariyati aholi turmush farovonligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ularning darajasi mamlakat fuqarolarining samarali bandligi hamda bandlik natijasi hisoblangan turmush farovonligi darajasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Bandlik mehnatga layoqatli aholining daromad olgan holda ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etishining turli shakllarini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanib, uni alohida belgilar asosida tasniflash mumkin.

4. Aholi bandligi darajasiga ta'sir etuvchi omillar siyosiy, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillarni o'z ichiga oluvchi tashqi omillar hamda bandlikni tartibga solish yo'nalishidagi institutsional tuzilmalar va ish beruvchi (korxona) sub'ektning xususiyatlarini o'z ichiga oluvchi ichki omillar guruhidan iborat holda tasniflanadi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida har ikki guruhga kiruvchi omillarning bandlikka ta'sir ko'lamini kengaytirilgan holda o'rganish asosida omillar tasnifi takomillashtirildi.

5. Ishchi kuchiga talab oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlar orasida YAIM hajmining oshishiga yo'naltirilgan chuqur iqtisodiy islohotlarni o'tkazish etakchi o'rin egallaydi. YAIM hajmini ko'paytirishning hal qiluvchi shartlaridan biri-mehnat unumdorligini oshirish. Unga ish joylarini zamonaviy moddiy-texnik va texnologik ta'minlash, ish vaqtidan oqilona foydalanish, xodimlar moddiy manfaatdorligini yaxshilash, oqilona moliya-soliq siyosatini olib borish kabi yo'llar bilan erishish mumkin.

6. Ishchi kuchidan samarali foydalanish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur: sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalarida yangi ish joylarini yaratish; ishlab chiqarishni kengaytirishga davlat tomonidan mablag'ni ko'proq ajratish; xizmat ko'rsatishni yaxshilash va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish; yangi xususiy va qo'shma korxonalarni tashkil etish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish; ijtimoiy ishlarni tashkil etish va x.k.lar.

7. Qo'shimcha yangi ish joylari yaratuvchi va eng kam sarmoya talab qiladigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy ishlarni tashkil qilish ishchi kuchiga talabni oshirishda muhim o'rin tutadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishini mablag' bilan ta'minlash manbai bo'lib, mahalliy byudjet, bandlikka ko'maklashish jamg'armasi va Biznes fond mablag'lari hamda xususiy tadbirkorlarning sarmoyalari xizmat qiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga foizsiz yoki kichik foizlar bilan imtiyozli kreditlar ajratish maqsadga muvofiq.

8. Ish haqini tartibga solish bo'yicha tadbirlarni ishchi kuchi talab va taklifiga ta'sir qilishning umumiy iqtisodiy va ijtimoiy uslubi sifatida qarash mumkin. U ko'proq ishchi kuchining taklifiga ta'sir etadi. Chunki ish haqining miqdori mehnatni tatbiq qilish sohasini tuzishni va bir necha ish joylarida ishlashga harakat qilish miqyosini belgilaydi. Shuning uchun, davlat ish haqi sohasida belgilangan siyosatini o'tkazib, ishchi kuchiga talabning miqdori va tuzilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Raqobat sharoitida davlat ish haqi darajasini ma'muriy belgilashdan voz kechishi lozim. Uning miqdori ish beruvchilar bilan yollanma xodimlar o'rtasida tuziladigan mehnat shartnomasi asosida kasaba uyushmasi vakilining ishtirokida belgilanishi kerak.

9. Tashkiliy tadbirlar orasida davlat tomonidan aholining ish bilan bandligini oshirish bo'yicha o'tkazayotgan siyosat etakchi o'rinni egallaydi. U aholining ish bilan bandligini va ishchi kuchiga talab va taklif tuzilishidagi o'zgarishlarni va ish joyini yo'qotgan, ammo mehnat qilishni hohlovchi va faoliyatning boshqa turlarini faol izlovchi shaxslarni qo'llab-quvvatlashning bozor mexanizmlarini uzviy birlashtirishdan iborat bo'lishi lozim. Yaqin kelajakda respublika mintaq va hududiy dasturlari bilan bir qatorda ma'lum tarmoqlarda aholi bandligini oshirishning maqsadli kompleks dasturlarini ishlab chiqish zarur.

10. Aholining ish bilan bandligi va mehnat bozori tahlili va prognozi statistika idoralarining ishini takomillashtirishni talab etadi. Hozir nodavlat korxonalar va tashkilotlarda ishchi kuniga talab va undan foydalanish, ular uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, mehnat sharoitlari va ish haqi bo'yicha axborotlarning etishmasligi sezilmoqda. Shu bilan birga mulkchilikning turli xil shakllari ish joylarining harakati, ishchi kuchi talab va taklifining o'zgarishi, ishsizlikning holati, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash kabi masalalar

bo'yicha statistik tadqiqotlar o'tkazishni kengaytirish zarur. Aynan shunday statistik tadqiqotlar, xususan, mulkchilikning yangi shakllari vujudga kelishi aholining ish bilan bandligi tarkibi o'zgarishiga, mehnat faoliyati va o'z-o'zini ish bilan band qilishning turli yo'nalishlari rivojlanishiga va ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. SHu munosabat bilan aholining ish bilan bandligi va mehnat bozori sohasida statistikani takomillashtirish bo'yicha tadbirlar majmuasini ishlab chiqish kerak.

11. Biz tomondan o'tkazilgan amaldagi axborot oqimlarining statistik tahlili shundan dalolat beradiki, bandlikka ko'maklashish markazlariga tushadigan axborot yig'ish, umumlashtirish va uzatish ishlarining 90 foizga yaqin qismi ma'muriy statistik tizimga to'g'ri keladi. Bu tizim ustunliklar bilan bir qatorda ayrim kamchiliklarga ham ega. Masalan, u faqat bandlikka ko'maklashish markazlarida ro'yxatga olingan ish izlovchi fuqarolarnigina qamrab oladi. SHu bilan birga, O'zbekistonda ish izlaydigan ko'pgina kishilar, jumladan ishsizlar bandlikka ko'maklashish markazida ro'yxatdan o'tmaydi. Natijada ma'muriy statistika faqat ishga joylashuviga ko'maklashish uchun bandlikka ko'maklashish markaziga murojaat qilgan kishilar bilan cheklanib qoladi.

12. Mehnat bozori va mehnat munosabatlarida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni statistik o'rganish jarayonida o'zaro bog'liqlikda bo'lgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish taqazo qilinadi. Ushbu tizimning mehnat bozori ishtirokchilari orasidagi, ya'ni ish beruvchilar va yollanma xodimlar orasidagi real o'zaro bog'liqliklarni aks ettirishi talab qilinadi. Mehnat bozori statistikasining ko'rsatkichlarini hisoblash uchun uslubiy asos bo'lib, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyanomalar hisoblanadi. Mehnat bozori statistik ko'rsatkichlari qaysi o'lchov birligida ifodalanishiga qarab, statistik ko'rsatkichlar tizimi natura, qiymat va mehnat ko'rsatkichlariga tasniflanadi.

13. Mehnat bozori statistikasining ko'rsatkichlar tizimi quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

a) mamlakat mehnat salohiyatining asosini tashkil qiluvchi aholi statistikasi ko'rsatkichlari (aholining soni va tarkibi ko'rsatkichlari; mehnat yuki

ko'rsatkichlari; aholi va ishchi kuchining tabiiy va mexanik harakati ko'rsatkichlari);

b) iqtisodiy faol aholi, bandlik, ishsizlik va ishsizlikdan iqtisodiyotning yo'qotish ko'rsatkichlari;

v) ishchi kuchining taklifi, unga talab va mehnat bozori kon'yunkturasi ko'rsatkichlari;

g) to'la bo'lmagan (qisman) bandlik, to'liq bo'lmagan bandlik va norasmiy bandlik hisobiga iqtisodiyotning yo'qotishlari;

d) ish vaqtining davomiyligi va undan foydalanish ko'rsatkichlari;

e) ishchi kuchining qiymati;

j) mehnat haqi ko'rsatkichlari (ish haqi, mehnat bilan bog'liq bo'lgan boshqa daromadlar, nominal va real ish haqi);

z) mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari (mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasi; mehnat unumdorligiga omillar ta'sirini baholash; mehnat unumdorligini hududlararo taqqoslash);

i) aholi va ishchi kuchining mehnat bo'yicha harakatchanlik (mobillik) ko'rsatkichlari (sotsial, kasb va hududlararo);

k) ishchi kuchining yashash, mehnat va dam olish sharoitlari ko'rsatkichlari (aholining real va nominal daromadlari; aholining harajatlari va jamg'armalari; aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli; chakana tovar aylanishi ko'rsatkichlari; aholining uy-joy va uzoq muddat foydalanadigan buyumlar bilan ta'minlanishi; ishlab chiqarish jarayonida majruh bo'lish, kasbiy kasallanib qolish va mehnat bo'yicha kelishmovchiliklar ko'rsatkichlari; bo'sh vaqt ko'rsatkichlari).

14. Mehnat bozori statistikasi ko'rsatkichlar tizimini tuzishda statistik tahlil uchun g'oyat muhim hisoblanadigan quyidagi guruhlashlardan foydalanadi:

a) mehnatga layoqatlilik yoshlari bo'yicha guruhlashlar;

b) hududlararo guruhlash, shu jumladan shahar va qishloq joylarida yashashiga qarab guruhlash;

v) band aholini xo'jalik yuritishning sotsial shakllari bo'yicha guruhlash (davlat korxonalari va muassasalari; kollektiv mulk shaklidagi korxonalar:

aksionerlik jamiyatlari, shirkatlar va h.k.; xususiy korxona va muassasalar; xorijliklarga tegishli korxonalar; aralash mulk shaklidagi korxonalar);

g) barcha turdagi iqtisodiy faoliyat turlarini xalqaro standart tarmoqlar tasnifi bo'yicha guruhlash (qishloq va o'rmon xo'jaligi, ovchilik; baliqchilik; qazib olish sanoati; qayta ishlash sanoati; elektroenergiya, gaz va suv ishlab chiqarish; qurilish; savdo, mehmonxonalar va restoranlar; transport, aloqa va omborxona xo'jaligi; ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, ishlab chiqarish xizmatlari va ijara; boshqaruv, mudofa, ijtimoiy sug'urta; maorif; sog'liqni saqlash; boshqa shaxsiy va jamoa xizmatlar: atrof muhitni himoyalash, sport, dam olish, turizm, madaniy tadbirlar, uy xo'jaliklariga pullik xizmatlar; hududdan tashqari tashkilotlar);

d) bandlik holatiga qarab guruhlash;

e) kasb bo'yicha guruhlash.

15. Xalqaro mehnat bozorining amaliy holatini tadqiq etishning boshlang'ich tamoyili uning xususiyatlarini bir qator umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar, ya'ni ish kuchining taklifi, unga bo'lgan talab va ularning ta'sirida yuzaga keladigan mehnat bozori kon'yunkturasining ko'rsatkichlarini statistik o'rganish hisoblanadi.

Ish kuchi taklifini statistik aks ettirish uchun salohiyatli, amaldagi va qo'shimcha taklif toifalari xizmat qiladi.

Salohiyatli taklif hajmi mehnatga layoqatli aholi soni va tarkibi ko'rsatkichlari yordamida butun aholi soni va tarkibiga, uning salomatligi holati va mehnatga layoqati darajasiga, hududiy joylashuviga va aholining siljishiga bog'liq bo'lgan turli belgilarga ko'ra, shuningdek ushbu davlatda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ko'ra ta'riflanadi.

Amaldagi taklifning hajmi iqtisodiy faol aholi soni va tarkibi ko'rsatkichlari yordamida aks ettiriladi. Iqtisodiy faol aholi soni ish kuchi taklifining amaldagi joriy chegarasi bo'ladi. Amaldagi taklif hajmida qondirilgan taklif, ya'ni talab bilan qamrab olingan, ish bilan band bo'lgan aholining soni va tarkibi bilan ta'riflanadigan taklif ajratiladi.

Qo'shimcha taklif hajmi, ya'ni talab bilan qamrab olinmagan hajmi ish izlayotgan shaxslarning umumiy soni va sifat tarkibi, ishsizlarning umumiy soni,

ro'yxatga olingan ishsizlarning soni, ishsizlik bo'yicha nafaqa oluvchilar soni bilan shuningdek ushbu ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha dinamikasi bilan ta'riflanadi.

16. Demografiya statistikasida davlat ichidagi aholi harakati va davlatga ko'chib kelganlar hamda ko'chib ketganlarni hisobga olinadi. Uning asosida migratsiya ko'rsatkichlari (migratsiya nettosi, orttirmasi, bruttosi, migratsiya intensivligi, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlari, umumiy koeffitsientlar, migratsiya unumdorligi) hisoblanadi.

17. Respublikada iqtisodiy faol aholi statistikasi xalqaro tashkilotlar va ayniqsa, zamon talablariga to'la javob bermaydi. Migratsiyani hisoblash nazariyasi etarlicha ishlab chiqilmagan, uni amaliy tashkil etish samarali darajadan orqada qolmoqda, ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi hisobi amaliyotida echilmagan muammolari juda ko'p. Masalan, immigrant va emigrant atamalariga ta'riflar haligacha turlicha, migratsiya bilan yashash joyini almashtirish o'rtasidagi farqni aniq emasligi, XMT tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda ayrim tushunchalarning turlichaligi va h.k.

18. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qoshida faoliyat yuritayotgan ochiq mehnat bozori va uni ifodalovchi statistik hisobotlarni barcha talablarga javob beradi deb bo'lmaydi. Unga operativlik va egiluvchanlik etishmaydi. Hanuzgacha ishchi kuchiga talab va taklif to'g'risida yagona respublika bo'yicha ma'lumotlar banki etarli darajada shakllanmagan, ish beruvchilar bilan o'zaro aloqalarning aniq tizimi ko'rinmaydi. Korxonalarning vakansiyalar to'g'risidagi arizalari, odatda, ishchi kuchiga sifat va miqdor jihatdan haqiqiy talablardan kelib chiqqan holda berilmaydi. Ish qidirayotganlarni hisobga olish dasturlari va mehnat bozorining monitoringi ham takomillashtirishni talab etadi.

19. Yashirin yoki tashkillashtirilmagan ishchi kuchi bozori o'z qamroviga ko'ra ochiq bozordan anchagina kattadir. Ushbu bozor uy, dala hovli, garaj, qurilishlari, transport, yuklash-tushirish ishlari, hosilni yig'ib olish va boshqa vaqtincha va mavsumiy ishlarda keng tarqalgan. Bunday bozorlar O'zbekistonda uzoq davrlarda ham mavjud bo'lgan. Har bir shahardagi maxsus joylarda ishchi kuchini oldi-sotdilari sodir bo'ladi. Bunda ish beruvchi sifatida faqat xususiy

shaxslargina emas, balki korxona va tashkilotlarning ma'muriyati ham qatnashadi. Aholining ma'lum, asosan yoshlardan iborat, qismi ushbu bozor orqali tirikchilik qiladi. Bunday bandlikni ikkilamchi bandlik deyish mumkin, chunki asosiy ish joylaridan oladigan maoshlari kam bo'lganligi sababli ayrim shaxslar shanba, yakshanba yoki boshqa bo'sh vaqtlarida mardikorchilik bilan shug'ullanansalar, ba'zilar uchun esa bu faoliyat asosiy hisoblanishi mumkin. Bu yopiq ishchi kuchi bozorida operativlik va ish haqi darajasi ancha yuqori hisoblanadi. Afsuski, statistika idoralarida ushbu bozordagi talab-taklif, qatnashuvchilar soni, oladigan haqlari to'g'risida ma'lumotlar etarli darajada emas.

Hozirgi paytda xorijiy mamlakatlar, ayniqsa rivojlangan mamlakatlar statistikasida keng qo'llaniladigan soatlik, kunlik, oylik, choraklik va yillik mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari ayrim tarmoq statistikalarida hisob-kitob qilinsada, statistikaga oid nashrlarda chop etilmaydi.

20. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochilgan hozirgi paytda kam ta'minlangan hamda ijtimoiy jihatdan yuqori darajada himoyalanmagan qishloq mehnatkashlari orasida ishsizlar soni sezilarli darajada ortib bormokda. Bular qishloq mehnat bozorini tartibga solishning yangi – samarali, hududiy usullariga tayangan, hududlarni, ularni mehnat resurslari ortiqcha va bu resurslar etishmaydigan hududlarga bo'lgan holda statistik tadqiq qilishni taqozo etadi.

21. Raqobat sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar hududlarda aholi bandligi bo'yicha tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ayniqsa, mehnat bozorini yanada rivojlantirish uchun mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan qator vazifalarni dolzarb qilib qo'yimoqda. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

mehnat bozorini bosqichma-bosqich rivojlantirish bilan birga uning ijtimoiy himoyaga yo'naltirilganlik darajasini ham oshirish;

bandlik xizmati idoralarining mamlakatdagi mehnatga layoqatli aholidan bir qismini ma'lum muddatga xorijga ishchi kuchi sifatida safarbar etish borasidagi faoliyatini kuchaytirish;

respublikamizdagi ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarida qo'shimcha ish o'rinlari yaratish imkoniyatlarini izlab topish;

mamlakatimiz ishchi kuchlari raqobatbardoshligini oshirish, yuqori malakaga, zamonaviy kasblarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash, ular uchun ish joylarini erkin va mustaqil tanlash imkoniyatlarini yaratish va muttasil kengaytira borish;

mehnat bozorini va aholi bandligini tartibga solishda tashkiliy-iqtisodiy hamda muhofazalanishning xuquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va x.k.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mehnat resurslarining bandlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyot barqarorligi ham, uning tez sur'atlarda o'sishi ham ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2003.
<http://lex.uz/mobileact/20596>.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. –T.: SHarq, 1998 (yangi tahrir). <https://nrm.uz/contentf>.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1996 yil 29 avgust.
www.lex.uz > acts.
4. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi qonuni (O'RQ-616-I) // Xalq so'zi, 1998, 22 may.
5. O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistikasi to'g'risida” gi qonuni // 11.08.2021 yildagi O'RQ-707-son www.lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida” gi qonuni (O'RQ-210). // Xalq so'zi, 2009, 17 aprelʼ.
7. O'zbekiston Respublikasining “Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida” gi qonuni (O'RQ-501) // Xalq so'zi, 2018, 17 oktyabrʼ.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF–4749-sonli farmoni. www.lex.uz.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF–5052-sonli farmoni. www.lex.uz.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 yanvardagi “2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida”gi PF–5635-sonli farmoni. www.lex.uz.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 maydagi “Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–5723-sonli farmoni. www.lex.uz.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–5953-sonli farmoni. www.lex.uz.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 6 apreldagi “Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–616-sonli qarori. www.lex.uz.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 maydagi “Aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2960-sonli qarori. www.lex.uz.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3001-sonli qarori. www.lex.uz.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3165-sonli qarori. www.lex.uz.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi “2018 yilda aholi bandligiga ko‘maklashish Davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3506-sonli qarori. www.lex.uz.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Byudjeti to‘g‘risida”gi qonun ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4555-sonli qarori. www.lex.uz.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 dekabrda qabul qilingan “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1011-son qarori. www.lex.uz.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

20. Aronova S.A. Kachestvo rabochey silы i faktory ego formirovaniya (monografiya). –Orel: Orlovskiy gosudarstvennyy universitet, 2004.

21. Baxramova D.B. Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo‘nalishlarini iqtisodiy-statistik tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: TDIU, 2018. –56 b.

22. Gimpelъson V.E., Zudina A.A. «Неформалы» в Rossiyskoy ekonomike: skolyko ix i kto oni? (monografiya). –M.: Izd. dom VSHE. –2011.

23. Zayseva, K.V. Upravlenie trudovoy zanyatostъyu v usloviyax smeshannoy ekonomiki: monografiya / K.V.Zayseva. –Donetsk: MCHP «VIK», 2003. –294 s.

24. Inozemsev V.L. Za predelami ekonomicheskogo obщestva (monografiya). –M.: Akademia, 1998.

25. Muxamedov YU.K. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishning omillari va ekonometrik modellari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2006, - 47 b.

26. Muxitdinov H.T. Bozor muvozanati makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: TDIU, 2001. –23 b.

27. Pospelov G.S. Problemy programmno-selevogo planirovaniya i upravleniya (monografiya) –M.: Nauka, 1981. –460 s.

28. Rezinkina S.G. Modeli analiza zanyatosti i bezrobotitsy v Rossii. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uch. step. kand. ekon. nauk. –Rostov-na-Donu: 2004. –28 s.
29. Semerikova E.V. Ispol'zovanie prostranstvennoy zavisimosti v regional'nykh issledovaniyax na primere analiza bezrobotitsy v Rossii i Germanii. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uch. step. kand. ekon. nauk. – M.: MGU, 2017. –28 s.
30. Syusyura D.A. Programmno-selevoe upravlenie sotsial'nyim razvitiem sela: monografiya. –M.: Izdatel'skiy dom «Finansy i Kredit», 2007. –160 s.
31. Fauzer V.V., Nazarova I.G., Fauzer V.V. Sotsial'no-trudovye otnosheniya: otraslevaya i regional'naya spetsifika (monografiya). –M.: Ekon-Inform, 2010. –175 s.
32. Xolmo'minov SH.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (monografiya). –T.: Fan va texnologiya, 2014. –321 b.
33. Ssyigankova A.V. Gosudarstvennoe regulirovanie Rossiyskogo rynka truda v sovremennykh sotsial'no-ekonomicheskikh usloviyax. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uch. step. kand. ekon. nauk. –M.: MGU, 2009 g. –19 s.
34. Asrakulov A.S. Neformalnaya zanyatost' i analiz faktorov, vliyayushchix na neformal'nuyu zanyatost' v Uzbekistane / Regional'naya ekonomika: teoriya i praktika. –2019, №12. Rossiya. S.2328–2336.
35. Asraqulov A.S. Bandlik modellarini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar / Biznes-ekspert. Biznes–Daily media. –2019, №10. 46–50-b.
36. Asraqulov A.S. O'zbekistonda aholi bandligidagi tendensiyalarning ekonometrik tadqiqi / Iqtisodiyot va ta'lim, 2019, №5. 86–89-b.
37. Asraqulov A.S. Norasmiy bandlikka konseptual yondashuvlar va uning O'zbekiston mehnat bozoridagi darajasi / Biznes-ekspert. Biznes–Daily media, 2020, №1. 106–110-b.
38. Aleksandrova M.A., Paxomova E.A., Rojkova O.V. Osnovnye podhody k ekonometricheskomu modelirovaniyu zanyatosti na osnove otraslevoy spetsifiki:

materialy mejdunarodnoy nauchnoy konferensii World Science–2017. Kirov: MSNIP, 2017. S. 158–162.

39. Volokitina A.O. Modelirovanie krivoy Fillipsa dlya Rossii // Vestnik CHelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. 2015. № 11 (366). Ekonomika. Выр. 49. S. 130–135.

40. Voloshenko K.YU., Dmitrieva M.A. Metodicheskie prinsipy prognozirovaniya rynka truda v usloviyax rosta riskogenosti ekonomiki Baltiyskogo regiona // Ekonomika i sotsium. 2013, № 4. S. 240–248.

41. Gurtov V.A., Pituxin E.A. Matematicheskaya model' prognozirovaniya sprosa i predlozheniya na rynke truda v rossiyskix regionax // Obozrenie prikladnoy i promyshlennoy matematiki. 2004. T. 11. Выр. 3. S. 539.

42. Gurtov V.A., Pituxin E.A., Serova L.M. Modelirovanie potrebnostey ekonomiki v kadraxs professional'nyim obrazovaniem // Problemy prognozirovaniya. 2007, № 6. S. 91–107.

43. Drokina K.V. Primenenie kognitivnogo podxoda dlya analiza rynka truda // Trudy Mejdunarodnogo kongressa po intellektual'nyim sistemam i informatsionnyim texnologiyam «IS & IT 10». –M.: Fizmatlit, 2010. – T. 2. S. 301–307.

44. Lebedeva L.F. Strukturnye sdvigi v lichnom potreblenii v Rossii i SSHA: osobennosti sovremennogo perioda // SSHA. EPI, 1997, №12. S. 36–37.

45. Luk'yanova K.K. Zarubejnyy opyt regulirovaniya zanyatosti naseleniya. Vestnik YUUrGU. Seriya «Ekonomika i menedjment». 2016. T. 10, № 3. S. 109–115.

46. Maslennikova A.V. Dinamicheskaya model' mejregional'nogo razvitiya RF dlya issledovaniya strategiy upravleniya sotsial'no-ekologo-ekonomicheskimi regional'nyimi protsessami // Upravlenie razvitiem krupnomasshtabnyh sistem (MLSD'2010): Trudy CHetvertoy mejdunarodnoy konferensii (4-6 oktyabrya 2010 g., g. Moskva, Rossiya). Tom II. –M.: Uchrejdenie Rossiyskoy akademii nauk Institut problem upravleniya im. V.A. Trapeznikova RAN, 2010. S. 346–352.

47. Mirzakarimova M., Olimjonova SH. Norasmiy bandlik va uni legallashtirish masalalari / Iqtisod va moliya. 2014, № 12. –52-b.
48. Nikol'skaya, G.K. Vliyanie globalizatsii ekonomicheskix svyazey na sostoyanie rynka truda v SSHA / G.K.Nikol'skaya // Trud za rubejom, 2000, №1. S. 13–16.
49. Portes A. Neformalnaya ekonomika i ee paradoksy // Ekonomicheskaya sotsiologiya. 2003, № 5. S. 37–38.
50. Sedlak M. Tendensii razvitiya sektorial'noy struktury ekonomiki // Problemy teorii i praktiki upravleniya. 1998, №2. S. 31–32.
51. Tulenkov, M.V. Organizatsionno-upravlencheskie osnovy regulirovaniya zanyatosti v Germanii / M.V.Tulenkov // Byul. IPK GSZU. – 2004, № 1. S. 50–54.
52. Uzyakova E.S., Uzyakov M.N. Zanyatost' i effektivnaya zanyatost' v rossiyskoy ekonomike // Problemy prognozirovaniya. –2011, № 6. C. 89–101.
53. Uilyamson O. Povedencheskie predposylki sovremennogo ekonomicheskogo analiza // THESIS. T.1. Вып. 3. –М.: Nachala-Press, 1993. S.71–72.
54. SHadmanov X.N. Mehnat bozorida samarali bandlikni ta'minlash: muammo va echimlar // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel', 2019 yil. 1–9-b.
55. World Employment and Social Outlook: Trends 2019. International Labour Office. –Geneva: ILO, 2019.
56. Feige E.L. (1979). How big is the irregular economy? Challenge, no. 22, pp. 5–13.
57. Grossman G. (1997). The «Second Economy» of the USSR. Problems of Communism, no. 5, pp. 25–40.
58. Hart K. (1973). Informal economy opportunities and the urban employment in Ghana. Journal of Modern Africa Studies, no. 11 (1), pp. 61–89.
59. Inada K. On a Two-Sector Model of Economic Growth: Comments and a Generalization // Review of Economic Studies. 1963. № 30, pp. 119–127.

60. Katsenelinboigen A. (1977). Coloured Markets in the Soviet Union. Soviet Studies, no. 1, pp. 62–85.

61. Oswald A. The Economic theory of trade unions: an introductory survey. Scandinavian Journal of Economics. –1985. V.67. pp 160–193.

62. Rakowski C. A. Convergence and divergence in the informal sector debate: A focus on Latin America, 1984–1992 // World Development, 1994. № 4. pp. 501–516.

63. Slonimczyk F. The effect of taxation on informal employment: Evidence from the Russian flat tax reform / Research in Labor Economics // Informal Employment in Emerging and Transition Economies / Ed. by H.Lehmann, K.Tatsiramos. –2011. Bingley, Emerald Group Publishing Limited, vol. 34, pp.55–99.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

64. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakieva I.A. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. – T.: TDIU, 2011. – 237 b.

65. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaev M.K. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 178 b.

66. Ishmuxamedov A.E., Xaydarov M.T., Muxamedjanova G.Ya., Abdusattarova X.M. Makroiqtisodiy siyosat muammolari: o'quv qo'llanma –T.: TDIU, 2005. –147 b.

67. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi: darslik. –T.: Fan va texnologiya, 2012. –126 b.

68. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. –T.: Mehnat, 2009. – 227 b.

69. Adamchuk V.V., Romashov O.V., Sorokina M.E. Ekonomika i sotsiologiya truda: uchebnik dlya vuzov. –M: YUNITI, 2001. –407 s.

70. Alimov R.X., Boltaeva L.R., Ishnazarov A.I. Ekonometrika-2: o'quv qo'llanma. –T: TDIU, 2012. –115 b.

71. Arxipova N.I., Sedova O.L. Menedjment (upravlenie personalom). –M.: Iz-vo "Ippolitova", 2003. –360 s.

72. Bazylev N.I. Makroekonomika / N.I. Bazylev, S.P. Gurko, M.N. Bazyleva. –M.: INFRA-M, 2003.
73. Bashkatova B.I. Sotsialno-ekonomicheskaya statistika. –M.: YUniti, 2002. –203 s.
74. Belokrylov A.A., Belokrylova O.S., Volchik V.V., Ketova N.P. Ryнок труда regiona i ego institutsionalnaya organizatsiya. Rostov n/D: Izd-vo RGU, 2003. –316 s.
75. Vaysburd V.A. Ekonomika truda: ucheb. posobie / 2-e izd., ster. –M.: Izdatel'stvo «Omega-L», 2012. –376 s.
76. Vasil'eva N.V., Levin M.I., Paxomova E.A. Ekonometrika: praktikum. – Dubna: Mejdunarodnyy universitet prirody, obshchestva i cheloveka «Dubna», 2001.
77. Genkin M.B. Ekonomika i sotsiologiya truda: uchebnik. 2-izd-e. –M.: NORMA–INFRA, 1999.
78. G'oyibnazarov B.K., Kolonova L. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. –T.: 2007. –106 b.
79. Granberg A.G. Osnovy regional'noy ekonomiki: uchebnik. –M. Izd. dom GU VSHE, 2006. –495 s.
80. Gulyamov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari. – T.: Fan, 2010. –876 b.
81. De Soto Ernando. Inoy put'. Nevidimaya revolyusiya v tretyem mire. – M.: Catallaxy. 1995.
82. Dornbush R., Fisher S. Makroekonomika / Per. s ang. –M.: Izd-vo MGU: INFRA–M, 1997. –784 s.
83. Julina E.G. Ekonomika truda: ucheb.posobie. –M.: Eksmo, 2010. –208 s.
84. Keynes Dj. M. Obshchaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. Izbrannoe. / Dj. M. Keynes. –M.: EKSMO, 2007.
85. Kibanov A.YA. Ekonomika i sotsiologiya truda: uchebnik. –M.: INFRA–M, 2010. –584 s.

86. Kleyner G.B. Методы анализа производственных функций. –М.: Информэлектро, 1980.
87. Kostin L.A. Mejdunarodnaya organizatsiya truda. –М.: Экономика, 2002. –170 s.
88. Mejdunarodnaya organizatsiya truda. Rezolyusiya I o statistike trudovoy deyatel'nosti, zanyatosti i nedoispol'zovaniya rabochey sily. 19-ya MKST. Doklad III: Doklad konferensii, –Jeneva, 2014 g.
89. Менкбьу, G.N. Принципы экономики / N.G.Менкбьу; per. s angl. V.Kuzina; pod общ. red. V. M.ssvetaeva, YU. N. Kapturevskogo. –SPb.: Piter Kom, 1999. –780 s.
90. Odegov YU.G., Rudenko G.G. Экономика труда: учебник. –М: Para Type, 2010. –792 s.
91. Oleynik A. Institutsional'naya ekonomika: учебное пособие. –М.: INFRA–М. 2000.
92. Porter M. Konkurentnoe preimushchestvo: kak dostich' vysokogo rezul'tata i obespechit' ego ustoychivost' / per. s angl. E. Kalininoi. — М.: «Альпина Pablisher», 2008. — 720 s.
93. Programmno-selevoe upravlenie razvitiem obrazovaniya: opyt, problemy, perspektivy / Pod red. A.M.Moiseeva. –М.: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii, 2001. –256 s.
94. Rikardo D. Sochineniya. T.1. Nachala politicheskoy ekonomii i nalogovogo oblozheniya. –М.: Gospolitizdat, 1955. S. 86.
95. Rofe A.I. Экономика труда: учебник. (2-е издание.) –М: KNORUS, 2011. –392 s.
96. Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. T.1. –SPb.: 1866. S.194.
97. Sey J.B. Traktat po politicheskoy ekonomii. Seriya «Politicheskaya ekonomiya: stupeni poznaniya». –М.: Delo, 2000.
98. Tarasevich L.S., Grebennikov P.I., Leusskiy A.I. Makroekonomika: учебник. –М.: Vysshee obrazovanie, 2006. –654 s.

99. Toffler, E. *Revolusionnoe bogatstvo* / E. Toffler, X. Toffler. –M.: AST, 2007. –576 s.
100. Forrester Dj. *Mirovaya dinamika*. –M.: Nauka, 1978.
101. Xaydarov M., Abdullaeva M. *Makroiqtisodiy tahlili: o‘quv qo‘llanma*. –T.: TDIU, 2007. –149 b.
102. Xakimov T.X. *Iqtisodiy o‘shishning matematik modellari: o‘quv qo‘llanma*. –T.: TDIU, 2013. –194 b.
103. Xolmo‘minov SH.R., SHoyusupova N.T. *Mehnat bozori iqtisodiyoti: o‘quv qo‘llanma*. –T.: TDIU, 2007. –178 b.
104. Chernyshev I. *Izmerenie zanyatosti v neformal'noy ekonomike: Rekomendatsii po primeneniyu v statisticheskoy praktike metodologicheskix polojeniy po izmereniyu neformal'noy zanyatosti i zanyatosti v neformal'nom sektore. Metodologicheskoe rukovodstvo*. –M.: 2018 g.
105. SHodiev T.SH., Xakimov T.X., Boltaeva L.R., Ishnazarov A.I., Nurullaeva SH., Muminova M.A. *Ekonometrika: o‘quv qo‘llanma*. –T.: TDIU, 2007. –178 b.
106. <http://www.ebiblioteka.ru> (RF elektron kutubxonasi sayti).
107. <http://www.gov.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali).
108. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
109. <http://www.stat.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti).
110. <http://www.xalqso'zi.uz>.
111. <http://www.mehnat.uz> (Kambag‘alikni qisqartirish va bandlik vazirligi rasmiy sayti).
112. www.elitarium.ru.
113. <https://kun.uz/news/2020/04/03/aqshda-bir-hafta-ichida-ishsizlar-soni-rekord-darajada-kopaydi>.

114.KPRT 8. Zanyatostъ v neformalъnoy ekonomike.

http://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/-stat/documents/publication/wcms_501609.pdf. С. 103-110.

115. http://web.stat.uz/open_data/uz/.